

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

I.Mirzayev, M.Narziyeva, M.Ubaydullayeva

**QISQACHA MAKTAB
ETIMOLOGIK
LUG‘ATI**

O‘quv lug‘ati

“Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti
Samarqand – 2023

UO‘K 494.3

KBK 81.2

M 54

I.Mirzayev, M.Narziyeva, M.Ubaydullayeva. Qisqacha maktab etimologik lug‘ati. O‘quv lug‘ati. – Samarqand: SamDCHTI nashriyoti. 2022. 176 bet.

Mas’ul muharrir: filologiya fanlari doktori, professor
Sh.Shomusarov

Taqrizchilar: filologiya fanlari doktori, professor
A.Pardayev

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori, dotsent M.Xolova

Mazkur lug‘at Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Uslubiy Kengashining 2022-yil 28-dekabrdagi yig‘ilishida nashrga tavsiya etilgan (Bayonnoma № 4)

ISBN 978-9910-9728-5-0

© “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2023

KIRISH


Keyingi yillarda fan-texnikaning rivoji va globallashuvi natijasida tilimizga ko‘plab yangi so‘zlar va tushunchalar kirib keldi. Shu bilan birga jamiyatimizning turli sohalarida, jumladan, ta’lim sohasida ham bir qator islohatlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, maktab darsliklari va ularning mazmuni, mavzu-mundariyasi yangi tushuncha va terminlar bilan boyitildi. Terminlarni nutqimizda qo‘llashimiz uchun uning mazmuni va etimologiyasini bilishimiz zarur.


Qo‘lingizdagi ushbu lug‘at aynan mana shunday jarayonning mahsulidir. “Qisqacha maktab etimologik lug‘ati” o‘zbek tilshunosligida dastlabki tajriba sifatida yaratildi. Lug‘at hozirgi maktab darsliklarida keng qo‘llanadigan fan, texnika, san‘at, madaniyat, din sohalariga oid mingga yaqin so‘z va so‘z birikmalarini o‘z ichiga oladi. Bu sohalarga oid terminlarning izohi bilan yaqindan tanishgan o‘quvchilar terminlarni o‘z o‘rnida qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Bu lug‘atning afzalligi shundaki, har bir fan sohasida uchraydigan terminlarning izohi hamda tarixiy kelib chiqishi haqida keltirilgan ma’lumotlar o‘quvchi ongida uzoq saqlanib qolishini ta’minlaydi. Lug‘atda maktabda o‘qitiladigan ona tili, matematika, biologiya, musiqa, tarix, huquq va shu kabi fanlarga doir terminlarning etimologiyasi hamda izohi berilgan. Keltirilgan izohlar misollar bilan boyitilgan.


Lug‘at maktab o‘quvchi va o‘qituvchilari, oliy ta’lim talabalari, pedagog xodimlar va barcha qiziquvchilarga mo‘ljallangan.

Mualliflar



 **ABD. ABDU** – (arabcha so‘z) banda, qul. Aksariyat musulmonlar ismining tarkibiy qismi. Mas: Abdulloh – Allohning bandasi. Islomga qadar esa arab qabilalarida ko‘p xudolik vaqtida ayrim qabilalar o‘z xudolarining nomiga “Abd” so‘zini qo‘shib, o‘zlariga ism qo‘yishgan. Mas: Abdshams, Abduluzzo, Abdulmasih.

 **ABDULLOH** – (arabcha so‘z) ot, atoqli ot, shaxslarga atab qo‘yilgan ot. 1. Allohning quli, bandasi degani bo‘lib, musulmonlar orasida eng ommalashgan erkaklar ismi. 2. Muhammad (s.a.v.) otasining ismi. Payg‘ambarimiz tug‘ilmasdan avval vafot etgan.

 **ABRAHA** – (arabcha so‘z) ot, atoqli ot, shaxslarga atab qo‘yilgan ot. Islomdan avvalgi Yaman podshohi. Qur‘oni karimning “Fil” surasida uning qilmishlari zikr etilgan. Abraha Ka‘bani yo‘q qilmoqchi bo‘lib, milodiy 570 – yili fillar va katta qo‘shin bilan Makkaga bostirib keladi. Allohning irodasi bilan abobil qushlari fillarni ham, lashkarlarni ham halok qiladi. Bu voqea tarixga “Fil yili” bo‘lib kirgan. (Islom nuri. Izohli lug‘at. T., 2010, 13 – b).



ADAB – (arabcha soʻz) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik. Adab soʻzining lugʻaviy maʼnosi tarbiya. 1. Turmush tarzidagi husni xulq qoidalari. 2. Tasavvufda tariqatdan saboq beruvchi pir yoki shayx va saboq oluvchi murid yoki solihning rioya qilishi zarur boʻlgan qonun – qoidalar.

1. Adab sarishtasin tutgin, adabdin yaxshi roz oʻlmas, Adabsiz ikki olamda bilingkim, sarfarozi oʻlmas. (Fuzuliy, Devon. T.: Tipo – litografiya, br.Kamenskix, 1883)

2. Bu soʻzning sidqu kizbi kov – kovi, Adab ermas, chu sodiq erdi roviy. (Navoiy. Sirojul – muslimiyn. T.: Minhoj, 1992, 8-b)



ADOLAT – (arabcha soʻz) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik. Adolat – toʻgʻrilik, odillik. Zulmning ziddi. Kishilar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatning maʼlum tartibi, shaxsning huquq va burchlari muvofiqligi, har kimning xizmatiga yarasha taqdirlash haqidagi tasavvurlarni oʻz ichiga olgan tamoyil.

Musulmonlar ega boʻlmogʻi lozim boʻlgan eng muhim sifatlardan biri “adolat” – odil boʻlishdir. Oila aʼzolari, qarindosh – urugʻlari boʻlsa ham, haqiqat, toʻgʻrilik va adolat chizigʻidan chetga chiqmaslik, masʼum, mazlum va haqdorlarning yonini olish. (Mahmud Asʼad Joʻshon, Tasavvuf va nafs tarbiyasi. T.,1998, 30-b)



ADMIRAL – (hollandcha soʻz) ot, turdosh ot, yasama ot, birlik, bosh kelishik. XVI asrda Holland tilidan rus tiliga kirib kelgan. Hollandcha admiral arabcha “amir al-bahr” ga borib taqaladi: arabcha amir al bahr > hollandcha admiral > rus, oʻzbek admiral.



AGRESSIYA – (fransuzcha soʻz) ot, turdosh ot, yasama ot, birlik, bosh kelishik. XX asr boshida fransuz tilidan kirib kelgan (agression). U ham oʻz navbatida, lotincha agressio “hujum”dan oʻzlashgan: lotincha agredior “hujum qilayapman, bostirib kirayapman” > lotincha agressio > rus, oʻzbek agressiya.



ABITURIYENT – (nemischa soʻz) ot, turdosh ot, yasama, birlik. Rus tilida XIX asrning oʻrtalarida nemis tilidan oʻtgan. Nemischa abituriyent “kirish imtihonlariga topshiruvchi” lotincha abituriens sifatdoshi asosida yasalgan. Uning qaratqich kelishik shakli “oʻquv yurtidan ketayotgan” maʼnosi abiturientis lotincha “abire” feʼliga borib taqaladi. Hozir uning “bitiruvchi” maʼnosi unutilgan boʻlib, faqat “kiruvchi” (litsey, kollej, oliy taʼlim muassasasi va boshqalar) maʼnosi saqlanib qolgan: lotincha abire > lotincha, abituriens > rus, oʻzbek abituriyent .



AGRONOM – (fransuzcha soʻz) ot, turdosh ot, yasama soʻz, birlik, bosh kelishik. Rus tiliga XIX asrning birinchi yarmida fransuz tilidan oʻzlashgan. Fransuzcha agronome yunoncha “agros” – “dala, yer ” va “nomos” – “qonun” asosida yasalgan. Agronom soʻz dehqonchilik qonunlarini biladigan (kishi): yunoncha agros > fransuzcha agronome > rus, oʻzbek agronom (hosilot).



AJAM – (arabcha soʻz) arab emas, chet ellik. Arablar arab boʻlmagan Yaqin va Oʻrta Sharq, Oʻrta Osiyo xalqlarini shunday nom bilan ataganlar. (Hidoyat. T., 2005/5, 22)



AJRIQ – (turkiycha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, bosh kelishikda, birlikda (azir +iq = aziriq > ayiriq > ajiriq > ajriq). Bu ot asli qadimgi turkiy tildagi ajrat, farqla maʼnosini anglatgan azir feʼliga + iq qoʻshimchasini qoʻshish orqali yasalgan. Shundan keyin ikkinchi boʻgʻindagi tor unli talaffuz qilinmay qoʻyilgan. (DLT.I tom 124-bet) keyinchalik bu soʻz tarkibidagi z undoshi y undoshiga (DLT. I tom 136-bet), y undoshi oʻz navbatida j undoshiga almashgan (QRS. 24-bet) (SH.Rahmatullayev OʻTEL 2000-y. 21-b)

Ajriq – bu soʻz turkiy tildagi vositalar asosida yasalgan boʻlib, Oʻrxun Enasoy obidalarida qayd etilmagan. Lekin M.Qoshgʻariyning “Devoni lugʻatit turk” asarida ajriq (DLT.1, 136-bet) azriq (DTL. 1, 124-b)

Alisher Navoiy asarlarida:

Orada bo‘lg‘on bo‘lsa tufroq rust,

Asrag‘on bo‘lsa ajriq oni durust. (Sabbayi sayyor, 1169 -bet)

Ushbu so‘z turkiy tillarda: uyg‘ur tilida ajriq, o‘zbek tilida ajriq, Samarqand shevasida ajriq, Buxoro shevasida ajriq tarzida qo‘llaniladi. Bu so‘z yasama so‘z bo‘lib, ikki qismdan iborat. Ajir + iq (fe‘l +ot yasovchi qo‘shimcha – iq)(KST. B.Bafoyev 46 – bet)

Ajriq so‘zi – boshqodoshlarga mansub ko‘p yillik ildizidan tarmoqlanib, yer bag‘irlab o‘sadigan ser ildiz yovvoyi o‘t. O‘sha kuni tuni bilan ajriqqa ag‘anagandek uxlolmabdi. Sh.G‘ulomov, Baxt bo‘stoniga. (O‘TIL. 47-bet)

Ajriq so‘zini arablar “sil” seydilar va “Devoni lug‘atit turk” hoshiyasida shunday izoh berilgan: *O‘t yig‘uvchi tabiblar uni o‘z vaqtida terib oladilar. Bir turli shish (sovuqdan bo‘lgan shish), istisqo kasaliga foydalidir, qovug‘iga tosh kelganlar uni ichadilar, u qovuqdagi toshlarni eritib yuboradi va yuvib ketadi.*

Qoshg‘ariyda yana shunday izoh bor. *Ajriq – u yumshoq bir o‘t. Turklar azriq deydir. O‘g‘uzlar z harfini y ga almashtiradilar.* (E.Shukur “Bobo so‘z izidan 204-bet.



AKA – (o‘zbekcha so‘z) ot, turdosh ot, shaxs oti, aniq ot, birlik, bosh kelishik. Ot (aq + a = aqa > aka) bu ot qadimgi turkiy tildagi “yoshi katta bo‘l” ma’nosini anglatgan aq fe‘liga - a qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan. O‘zbek tilida q undoshi k undoshiga aylangan. (Sevortyan, I tom 122- bet)

Aka – 1) bir ota – onadan tug‘ilgan katta o‘g‘il. O‘zidan kichiklariga, ukalariga nisbattan. M: *katta aka, o‘rtancha aka, kichik aka.* 2) o‘zidan katta er kishiga murojaatda yoki unga hurmat yuzasidan ishlatiladi (bunda yakka holda yoki nutq qaratilgan shaxsni bildiruvchi so‘z bilan qo‘llanadi). M: *Aka, eski shaharga qaysi avtobus qatnaydi.* (O‘TIL, 60-bet)



AHD – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik. Ahd – so‘z berish, va‘da. Boshqalar bilan biror ishga ahdlashgan bo‘lsa, ahdiga vafo qilishi va va‘dasining

ustidan chiqishi lozim bo‘ladi, chunki musulmon kishi sifatlanishi lozim bo‘lgan go‘zal hulqlardan biri ahdni bajarishdir.



AKADEMIK – (polyakcha so‘z) ot, turdosh ot, yasama ot, birlik, bosh kelishik. Rus tiliga Pyotr I davrida polyak tilidan kirib kelgan. Polyak tilida akademik “o‘qituvchi, ustoz” lotincha academicus so‘ziga borib taqaladi. U esa suffiksali yo‘l bilan academia so‘zidan yasalgan. Yunoncha akademeia – afsonaviy qahramon Akadem bog‘ida joylashgan. “Aflotun maktabi” ma’nosini anglatadi. Rus tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan: yunon tilida akademeia > lotin tilida academia > lotincha academicus > polyak tilida akademik > rus, o‘zbek tilida akademik.



AKSIOMA – (yunoncha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot yasama so‘z, birlik, bosh kelishik. Rus tiliga Pyotr I davrida o‘zlashgan. Yunoncha aksioma “shubhasiz, umum e’tirof etgan” yunoncha axioyp “biror narsani ishonchli narsa sifatida tan olmoq” fe’lidan suffiksali yo‘l bilan hosil qilingan. Yunoncha axioyp > yunoncha aksioma > rus, o‘zbek tilida aksioma (isbot talab qilmaydigan teorema, fikr).



ALLA – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, yasama(ala> alla). Bu ot qadimgi turkiy tilda tinchlanish ma’nosini bildirgan “ala” undov so‘zidan o‘sib chiqqan. L undoshi ikkilangan. Alla so‘zi kuylanadigan misralar oxirida kelganida undov so‘z vazifasini bajaradi, qo‘shiqning nomi sifatida kelganda esa ot bo‘lib keladi (M.Q.”DLT”).

Alla – go‘dakni uxlatishda yakkaxon usulida aytiladigan qo‘shiq.

M: Bo‘ylaringga bo‘ytumor bo‘lay, bolam, alla,

Ko‘zlaringga ko‘ztumor bo‘lay, bolam, alla. (O‘TIL, 71)



ALLOMA – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (allamat(un) > allamat > allama > alloma). Bu so‘z asli olim ma’nosini anglatuvchi allam(un) otiga

kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi – at(un) qo'shimchasining qo'shilishidan hosil qilingan bo'lib, “zabardast olim” ma'nosini anglatadi (UAYA, 500).

Alloma – eng bilimdon, zo'r olim, ilm-fanning bir yoki bir nechta sohasini mukammal egallagan shaxs; qomusiy olim. M: Jahon ilmi xazinasiga buyuk hissa qo'shgan allomalarimizning tavallud sanalari keng nishonlanayotganligi mustaqilligimiz samarasidir (O'TIL, 72).



ALLO – (inglizcha so'z) undov so'z. (telefonda eshitaman). Rus tiliga XIX asrda fransuz tilidan kirib kelgan. Rus tiliga ingliz tilidagi hallo “salom” (sog' bo'l) (hello bilan qiyoslang) so'zining buzib talaffuz qilingan shakli: ingliz hallo > fransuz allo > rus, o'zbek allo.



ALBOM – (fransuzcha so'z) ot, turdosh ot, tub so'z, birlik, bosh kelishik. Rus tiliga XIX asr boshida fransuz tilidan o'tgan. Fransuzcha album “albom” lotin tilidagi albus “oq” > albumdan hosil qilingan: lotincha albus > lotincha album > fransuzcha album > rus, o'zbek albom.



AMMA – (arabcha so'z) ot, turdosh ot, shaxs oti, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (amm(un) so'ziga -at(un) qo'shimchasi qo'shib, ammatun shakliga kelgan, ammat > amma) (ARL,538)

Amma – bu so'z otaning opasi yoki singlisi (jiyanga nisbatan) ma'nosini anglatadi (O'TIL, 1981, 1, 44). Amma (ar.s) ot, turdosh ot, Amma – bu so'z amaki so'zi bilan o'zakdosh bo'lgani kabi tilda ham bir-biriga qarindosh. Amma va amaki so'zi bitta ildizdan o'sib chiqqan bo'lib, ularning tub ma'nosi arabchada “otaning akasi” ma'nosini anglatadi. Ma'no taraqqiyoti natijasida bu so'z otaning opasi yoki singlisi mazmunini ifodalaydigan bo'lgan. (E.Sh. “Bobo so'z izidan”,12-16)



ANOR – (forscha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik (a + nor). Nor so'zi arab tilida olov, o't, olovning

shu'lasida ma'nosida qo'llangan. A tovushi esa inkor ma'nosini ifodalagan. Demak, anor so'zi "olov emas" degan ma'noni anglatadi. Tojik tilida *anor, nor*; kurd tilida *xenay*; mo'g'ul tilida *anar*; turkman tilida *nar*; qirg'iz tilida *anar*; uyg'ur tili va uning lahjalarida *anar, ana*; qoraqolpoq tilida *anor* tarzida qo'llaniladi. Bu so'z O'rxun-Enasoy manbalarida, Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida uchramaydi.

Anor so'zi A.Navoiy asarlarida *anor, nor, rummon* tarzida qo'llangan:

1. *O'z ilgida bir anor bo'lsa bilmaski, necha parda va necha xonda asi bor va har pardag'a har xonasida necha donasi bor va ul dona achchig'mudur yo zumuxtvash yo chuchukmudur va yo mayxush.* (MQ, 13 – tom, 26 – bet)

2. *La'li rummoniy tilarsen dam – badam ziynat uchun,*

3. *Qatra – qatra bag'ring andin nordek qon bo'ldi tut.* (G'S, 89 – bet)

Qatrasi la'l, vale rummoni, Qaysi rummon, degil ardistoni (FK, 690 – bet)

(Ko'hna so'zlar tarixi. B. Bafoyev)

Anor. 1. Anordoshlarga mansub kichikroq daraxt yoki buta shaklidagi subtropik o'simlik. *Har joy har joyda ko'milgan anor tuplari do'mbayib yotibdi.*

2. Shu daraxtning ichi qizil donalar bilan liq to'la mevasi. *Achchiq anor. Chuchuk anor. Anor suvi.* (O'TIL I tom, 87-bet)



AND – (arabcha so'z) ot, atoqli ot, muborak joy nomi. And – jannatning nomi, Alloh unda Odam (a.s) ni joylashtirgan o'rin.

Ul to'rtinchi behishtni,

Jannat – ul and derlar.

(Mir'otul mu'taqidin – sharhi qasidai Amoliy Sirojiddin O'shiy. T.: Tipografiya V.M.II'ina, 1326 h.)



ANBIYO – (arabcha so'z) ot, turdosh ot, shaxs oti, birlik, bosh kelishik. Bu so'zning birlik shakli "nabiy" bo'lib, nabiy "xabar beruvchi" ma'nosini bildiradi. Payg'ambarlar. M:

Avliyo va anbiyolarning ko‘zlari ummon qadar kengdir. Bu kenglik qarshisida ikki olam, dunyo va oxirat bir qil kabi ko‘rinadi.



ANIMIZM – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot. Animizm – jon va ruhlar borligiga ishonish. Animistik tasavvurlar ibtidoiy jamiyatdan boshlab mavjuddir.



ANGLA – (turkiycha so‘z) fe‘l, holat fe‘li, bo‘lishli, o‘timli, aniq nisbatda, buyruq mayli, yasama (ang + la > angla). Bu so‘z qadimgi turkiy tildagi aql – idrok ma‘nosini anglatgan “ang” otiga – la fe‘l yasovchi qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilingan (Sevortyan, 1, 153).

Angla – 1. Gap, fikr, mulohaza va shu kabilarning mazmunini bilib olmoq, tushunmoq. M: *Gapingizni-ku angladim.*

2. Idrok etmoq, fahmlamoq. M: *Eshqobil tog‘asining rais oldida girdi kapalak bo‘lish sabablarini bir qadar anglaganday bo‘ldi.* (O‘TIL, 83)



ANGINA – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z. XVII asrda fransuz tili orqali lotin tilidan rus tiliga kirib kelgan. Angina angere “bo‘g‘moq” fe‘lidan suffiksali yo‘l bilan yasalgan: angere > lotincha; angina > fransuzcha; angine > rus, o‘zbek tilida angina (tomoq og‘rig‘).



ANTONIM – (yunoncha so‘z) ot, turdosh ot, atama oti, yasama so‘z, birlik, bosh kelishik. XX asrda rus tiliga fransuz tilidan o‘zlashgan, yunoncha anti “teskari, qarshi” va onuma “ism” so‘zlarining qo‘shilishidan paydo bo‘lgan.



APELSIN – (hollandcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, yasama so‘z, birlik. Rus tiliga XIII asrda Holland tilidan kirib kelgan. Hollandcha appelsin, fransuzcha *rotte de chine* (Holland tilida rotte “olma” appel+chine “Xitoycha so‘zma-so‘z: xitoy olmasi” ; hollandcha appel chine sien > rus, o‘zbek tilida apelsin.



APREL – (yunoncha so‘z) ot, atoqli ot, yasama so‘z, birlik, eski slavyan tilidan o‘zlashgan. Bu tildagi april qadimgi yunon tilidagi aprili(o)s dan, lotincha aprilis, aniqrog‘i, lotincha o‘zakdosh apricus “quyosh tomonidan qizdiriladigan” dan yasalgan. Aprel sodda so‘z, “quyoshli, iliq (oy)” lotincha aprilis) lotincha apricus (abrikos) > yunoncha aprili (o)s > rus, o‘zbek aprel.



APTEKA – (polyakcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z. Rus tiliga XVI asrda polyak tilidan o‘zlashgan. Polyak tilida apteka lotin tili orqali yunon apotheke “ombor” < yunoncha apotithemi откладиваю, yashiryapman so‘zidan kirib kelgan: yunoncha apotithemi > yunoncha apotheke > polyakcha apteka > rus, o‘zbekcha apteka.



AQL – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, tub (aql(un)> aql). Bu so‘z asli arab tilidagi “yuksak darajada fikr yuritish qobiliyatiga ega bo‘ldi” ma’nosini anglatuvchi “aqala” fe’lidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida “yuksak darajada fikr yuritish qobiliyati” (Aql yoshda emas, boshda), “zehn” (Aqli kalta), “es-hush” (Aqldan oz) kabi ma’nolarni anglatadi (Sh.R,O‘TEL,58).

Aql – (es, hush). Inson miyasining dunyoni aks ettirish va shaxsning voqelikka munosabatini boshqarib turadigan faoliyati; fikrlash qobiliyati. M: *Jonzotlar ichida birgina odamzotga aql ato etib, yuragiga diyonatni joylabdi* (O‘TIL, 126).



ARIQ – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot; qadimgi turkiy tildagi “oq” ma’nosini anglatgan “ar” fe’liga -iq qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan (Sevortyan ESTYA, I,188-bet).

Ariq so‘zi qadimgi turkiy tilda ham turli tovush o‘zgarishlariga uchragan holda qo‘llangan. Ariq so‘zi hozirgi turkiy tillarda: qirg‘iz tilida ariq; turkman tilida ariq; ozorbayjon

tilida arx; qoraqolpoq tilida ariq; boshqird tilida ham ariq, uygʻur tilida erik; oʻzbek tilida ariq; qozoq tilida ham ariq shaklida .

Ariq – sunʼiy ravishda hosil qilingan suv yoʻli, oʻzani va undagi suv. M: *Bir odam ariq qaziydi, koʻp odam suv ichadi* (OʻTIL, 98-bet).



ARPA – (turkiycha soʻz) ot, qadimgi turkiy tilda “ar” soʻzi erta, barvaqt, oldin kabi maʼnolarni anglatgan. Arpa boshqa donlarga nisbatan erta va tez pishib yetiladi. Uning mana shu xususiyatiga asoslanib nomlangan (KST, 40-bet).

Arpa – gʻalladoshlar oilasiga mansub, doni ovqatga va yem sifatida ishlatiladigan bir va koʻp yillik gʻalla oʻsimligi va uning doni, gʻallasi.

M: *Arpa ekan arpa oʻrar, bugʻdoy ekan bugʻdoy olar* (OʻTIL, 100 – bet).



ARQON – (turkiycha soʻz) ot, turdosh ot, birlikda, bosh kelishikda, yasama (ar + qa =arqa +n=arqan). Bu ot asli qadimgi turkiy tildagi esh, bura maʼnosini anglatgan “ar” feʼlining takror maʼnosini ifodalovchi “qa” qoʻshimchasi bilan hosil qilingan shakliga -n qoʻshimchasini qoʻshib yasalgan. Aslida arqa feʼli “koʻp marta bura” maʼnosini anglatgan. Shu feʼldan yasalgan arqon oti esa koʻp marta burash bilan hosil boʻlgan buyum maʼnosini anglatgan (Sevortyan, 176-bet).



ARQON – (turkiycha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik. Arqon – zigʻir, kanop, nasha poyasi tolalaridan, ipdan yoki jundan eshib tayyorlangan bogʻlash uchun ishlatiladigan buyum, argʻamchi. M: *jun arqon, qil arqon* (OʻTIL, 103 – bet).



ARCHA – (turkiycha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama. Sarvlar oilasiga mansub, igna bargli, doim yashil daraxt.

(ard + cha = ardcha > archa). Bu ot qadimgi turkiy tilda sarv daraxtining bir turini anglatgan *ard* soʻziga kichraytirish

ma'nosini ifodalovchi *-cha* qo'shimchasi bilan hosil qilingan. (Sevortyan, I,182)

Archa – qadimda ard degan daraxt bo'lgan. Bugungi “archa” so'zi shu so'zning avlodi. Hozir ham oltoy dostonlarida “ard” so'zi saqlanib qolgan. Masalan: “Xon Buday” dostonida shunday satrlar bor.

Ard uchinda arkaning

Altin sari kushkansi

Aldina aning uchib keldi.

Bu so'zning ba'zi tillarda “ardich”, “ardish”, “articha” kabi shakllari ham bor. Shuning uchun ba'zi olimlar “ardcha”, “ardish” so'zlarini “artish” so'ziga taqab, havoni tozalash ma'nosida “tozalagich”, “soflamoq” deb ham sharhlaydilar. (E.Shukur,99)

Archa – 1.Sarfdoshlar oilasiga mansub, doim yashil buta yoki daraxtlar turkumi. M: *Chinor chirimas, archa qurimas*.2. Aynan qoraqarag'ay daraxti (O'TIL, 102).



ARSLON – (turkiycha so'z), ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama. (ars + la = arsla + n =arслан) Bu so'z qadimgi turkiy tildagi yovvoyi hayvonlarning tovushga taqlid *ars* so'ziga -lan fe'l yasovchi *qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan*. Mushuksimonlar oilasiga mansub bahaybat yirtqich sutemizuvchi hayvon. Masalan: *Hayvonot bog'imizga yana bir arslon keltirildi*.

Arslon. 1. Mushuksimonlar oilasiga mansub bahaybat yirtqich sutemizuvchi hayvon; she'r. Masalan: *Yigit so'zidan, arslon izidan qaytmas*.

2. Bahodir, zabardast, dovyurak odam haqida (shu jonivorga nisbat beriladi) ko'chma ma'noda qo'llanadi. Masalan: *Mash'um Kalon minorasidan o'limga itarilgan el arslonlarining na'rasi qal'a osmonini hamon larzaga keltirmoqda*.

3. Arslon (erkaklar ismi).(O'TIL , 100)

Arslon – Bu eski o'zbek tilida, hattoki, qadimgi turkiy tilda ham faol qo'llangan. O'rxun-Enasoy yozma manbalarida, M.Qoshg'ariy lug'atida, “Tafsir” da *arслан* tarzida, XIV asr Xorazm yozma manbalarida *arслан* – *arsalan*, A.Navoiy

asarlarida *arslon* tarzida qoʻllangan. Bu soʻz oʻzbek tilida *arslon*, turkman, uygʻur, tatar, noʻgʻoy, oltoy, qoʻmiq, qaraqalpoq tillarida *arslan*; ozarbayjon, uygʻur, gagauz, turk tillarida *aslan*; qirgʻiz, qozoq tillarida *arstan*; tojik tilida *arsalan*; (B.Bafojev, “K.s.t”).



ARGʻUMOQ – (turkiycha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama. (argʻi + maq) qadimgi turkiy tildagi “katta tezlik bilan yugur” maʼnosini anglatgan argʻi feʼliga – maq qoʻshimchasini qoʻshish orqali ot yasalgan (Sevortyan, 1,172; QRL, 66).

Argʻumoq – zotli chopqir otlarga berilgan umumiy nom. M: Baxmal yopqichli argʻumoqlar koʻkka sapchiydi (OʻTIL, 103).



ARDOQLA – (turkiycha soʻz), feʼl, holat feʼli, boʻlishli, oʻtimli, aniq nisbat, buyruq mayli (arda + la = ardaqla). Ardoq soʻzi asli “meʼyordan ortiq izzat-ikrom, parvarish” maʼnosini anglatib, oʻz navbatida qadimgi turkiy tildagi “ortiq darajada izzat – ikrom qil” maʼnosini anglatuvchi *arta* feʼliga -q qoʻshimchasini qoʻshilishidan yasalgan (Sevortyan, 173).



ARMIYA – (lotincha soʻz) ot, turdosh ot, birlik. Rus tiliga XVIII asrda nemis tili orqali fransuz tilidan oʻtgan. Fransuzcha “armearmer” – “qurollantirmoq” feʼlining otlashgan sifatoshi. Armer feʼli esa arme “qurol” soʻzidan yasalgan. Dastlab, armeya shaklida olingan: fransuzcha arme > fransuzcha armer > fransuzcha armee > rus, oʻzbek tilida armiya (qoʻshin).



ARTILLERIYA – (fransuzcha soʻz) ot, turdosh ot, yasama soʻz, birlik. XVII asrda polyak tilidan (bu tilga fransuz tilidan) oʻzlashgan. Fransuzcha artillerie artillier “qurol-yarogʻ bilan taʼminlamoq” feʼlidan suffiksali yoʻl bilan yasalgan. Bu feʼl oʻrta lotin tilidagi artillum “снаряд” asosida paydo boʻlgan: lotincha artillum > fransuzcha artillier > fransuzcha artillerie > polyak tilida artyleria > rus, oʻzbek artilleriya.



ARTIST – (fransuzcha so‘z) ot, turdosh ot, yasama, birlik, bosh kelishik. XIII asrda rus tiliga fransuz tilidan kirib kelgan. Fransuzcha artiste, lotincha ars, artis so‘zi asosida yuzaga kelgan. Art so‘ziga – iste qo‘shish yo‘li bilan yasalgan: lotincha arsartis > fransuzcha artiste > rus, o‘zbek tiliga artist.



ASPIRANT – (lotincha so‘z) yasama ot, bilik. XIX asrda rus tiliga fransuz tilidan o‘tgan. Fransuzcha aspirant “lavozim izlovchi” lotin tilida giaspirans, aspirantis “biror narsaga intiluvchi” lotincha aspirare “biror narsaga erishishga intilish” fe’lining sifatdosh shaklidir. Uning hozirgi ma’nosi sovet davrida paydo bo‘lgan: lotincha aspirare > lotincha aspirans > lotincha aspirantis > fransuzcha aspirant > rus, o‘zbek aspirant.



ASTRA – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot, birlik. Fransuzcha aster, yunoncha aster “yulduz”ning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tgan shakli. Bu gul yulduzni eslatgani uchun shunday nomlangan. Yunoncha aster > fransuzcha aster > rus, o‘zbek tilida astra (yulduzgul).



ATOM – (yunoncha so‘z) ot, birlik. Rus tiliga Pyotr I davrida yunon tilidan olingan. Yunoncha atomos “bo‘linmaydigan” a (inkor) ma’nosi shakl va temno “bo‘laklayapman, sindirayapman”ning birikishidan yasalgan. Yunoncha atomos > rus, o‘zbek (zarra).



ATTESTAT – (lotincha so‘z) yasama ot, birlik. Rus tiliga XVII asrda nemis tilidan (nemis tiliga lotin tilidan) o‘tgan. Attestatum “shahodat berish” attestare “guvohlik bermoq, tasdiqlamoq” fe’lining sifatdosh shakli. Asosi testis “guvoh” bo‘lgan attestat “guvohnoma” ma’nosini anglatadi. Lotincha testis > lotincha attestatum > rus, o‘zbek attestat.



AVESTO – (parfiyoncha so‘z) arastok – matn, “Zent Avesto”, ya’ni “Tafsir qilingan matn” deyiladi. Avesto

zardushtiylikning asosiy manbasi va muqaddas kitobi hisoblanadi. Avesto O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining islomgacha davridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlarini, ma'naviy madaniyatini o'rganishda muhim va yagona manbadir.



AVQOF – (arabcha soʻz) “vaqf” soʻzining koʻplik shakli. Vaqflar – masjid, madrasa va shu kabi umumxayrli muassasalar uchun maxsus ajratilgan daromadli yer, mol-mulk va boshqalar: *O'qituvchilar o'z uylarida ochgan xususiy maktablaridan tashqari barcha o'quv yurtlari, turli shaxs va tashkilotlar tomonidan xayriya qilingan vaqflardan tushadigan daromad hisobidagi ishlar edi.*



AVLIYO – (arabcha soʻz) ot, turdosh ot, birlik, bosh kelishik. “Valiy” soʻzining koʻplik shakli. Xudoga yaqin odam. Tasavvufda Allohning zoti va sifatlarini yaxshi bilgan, uning buyurganlarini bajarib, gunoh ishlardan oʻzini saqlovchi, dunyo lazzati va shahvoniy ishlardan tiyiluvchi kishi.

Xoja Bahouddin Naqshbandning Buxoroda avliyo sifatida shuxrat topishida bir voqea sabab boʻlgan ekan.



AVAYLA – (qirgʻizcha soʻz) feʼl, yasama feʼl, (abay +la =>avayla), abay soʻzi qirgʻiz tilida mustaqil ishlatilib, ehtiyotkorlik maʼnosini anglatuvchi abay otiga -la feʼl yasovchi qoʻshimchasining qoʻshilishidan hosil boʻlgan. Keyinchalik oʻzbek tilida ikki unli oraligʻidagi b undoshi v undoshiga aylangan. *Seni avaylab oʻstirdim.*(QRL, 17-bet)

Avaylamoq – ozor, zarar va zavol taʼsiridan ehtiyot qilmoq. *Nega oʻz jonimizni avaylaymiz –u, militsiyani duch kelgan ishga balo gardon qilamiz.*

(*Gazetadan*) (OʻTIL. I tom, 28 – bet)



AVGUST – (lotincha soʻz) ot, turdosh ot, yasama ot, birlik. Qadimgi slavyan tilidan oʻzlashgan avgustos lotincha augustus (oy nomi) asosida hosil boʻlgan.

Oy 1-Rim hukmdori Oktavian Avgust nomiga qo'yilgan.



AVTOBUS – (lotincha so‘z) turdosh ot, yasama ot, birlik. Rus tiliga XX asrning boshida nemis tilidan kirib kelgan. Avtobus lotin tilidagi omnibus “omnibus”ga monand tarzda yasalgan fransuzcha autobus asosida yasalgan. Avtobus so‘zma-so‘z: hamma (ko‘pchilik uchun).



AVTOMOBIL – (lotincha so‘z) > fransuzcha > rus, o‘zbek tilida avtobus.



AXLOQ – (arabcha so‘z), ot, turdosh ot, mavhum ot, jamlovchi ot, bosh kelishik, tub. Bu so‘z arabcha “xulq” so‘zining ko‘plik shakli bo‘lib, o‘zbek tilida uning ko‘plik shakli ekani o‘qilmaydi; xulq so‘zi anglatadigan ma’no bilan ishlatiladi. (ATG, 40)

Axloq – kishining tabiati. Muomala, xatti-harakat odobi. M: *Aslini olganda, axloq – ma’naviyatning o‘zagi.* (O‘TIL, 120)



AYRON – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, bilik, bosh kelishik, yasama (ayir + an = ayiran > ayran). Ayir fe’liga -an qo‘shimchasining qo‘shilishi natijasida yasalgan Qo‘shimcha qo‘shilishi bilan ikkinchi bo‘g‘indagi tor unli talaffuz qilinmay qo‘ygan. Bu ot qadimgi turkiy tilda qatiqqa suv aralashtirilib tayyorlanadigan ichimlik ma’nosini anglatgan. M: *Muzdek ayron ichdim.*

Ayron so‘zi aslida sutdan yog‘ ayirib olinganidan keyin qoladigan suyuqlikdir. (Sevortyan, 1, 111)

Ayron – qatiqning kuvida moyi ajratib olingandan keyin qolgan suyuq qismi, shuningdek, qatiq yoki suzmaga suv qo‘shib tayyorlangan ichimlik. M: *Ayron osh bo‘lmas, nodon bosh bo‘lmas. Har bir qozoqning o‘tovida qimizi, qimroni yoki ayroni doim osig‘liq turadi* (O‘TIL, 58).

Ayrani achimaydi – oyroni ochimoydi. Beparvo, tepsa-tebranmas odamga nisbatan ishlatiladi. M: *Ko‘payning ayroni achimaydi (shoshilmaydi, parvo qilmaydi)* (Zom t.q.).



AYSBERG – (nemischa soʻz) turdosh ot, yasama soʻz, birlik, bosh kelishik. XX asrda nemis tilidan rus tiliga, keyinchalik oʻzbek tiliga oʻzlashgan nemischa aisberg skand. Isberg ”ayberg”dan hosil qilingan. Aysberg “muz” va berg “togʻ” soʻzlarining qoʻshilishidan yasalgan. (Islandiya – “muz mamalakati”) Skand tilida isberg > nemischa eisberg > rus, oʻzbek ayberg.



AYIQ – (turkiycha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlikda, bosh kelishikda, ayi + gʻ qoʻshimchasi bilan yasalgan. Gʻ undoshi q undoshiga aylangan . Ayi feʻli qadimgi turkiy tilda besonaqay maʼnosini anglatish bilan birga tetik, uygʻoq, ehtiyotkor kabi maʼnolarni ham bildirgan (Sevortyan ESTYA, I tom 112-bet).

Ayiq – bu soʻz deyarli turkiy tillar tarixining barcha bosqichlarida isteʼmolda boʻlib kelgan. Hozirgi turkiy tillarning koʻpchiligida faol qoʻllanadi. Shuni taʼkidlash kerakki, soʻzning tuzilishida turli tovush oʻzgarishlari boʻlganidek, uning maʼnosida ayrim oʻzgarishlar qayd etilgan holatlar uchraydi. Oʻrxun-Enasoy yozma manbalarida adugʻ (Malov, 1951, 354-bet), anuk – yoʻlbarsning bolasi (Malov, 1951, 364-bet) Mahmud Qoshgʻariyning lugʻatida azigʻ, A.Navoiy asarlarida ayigʻ, oyigʻ kabi variantlari uchraydi:

Ayigʻ labidin jatqakim non erur,

Ani itga solmoq ne imkon erur (SI, 1270) (KST, B.Bafoyev 106-bet)

Ayiq – paxmoq yungli besoʻnaqay, katta sut emizuvchi yirtqich hayvon.

Masalan: *Ayirilganni ayiq yer, boʻlinganni boʻri yer.* (OʻTIL, 53 – bet)



AZON – (arabcha soʻz) bildirish, ot, turdosh ot, bosh kelishik, birlik. 1. Kundalik besh vaqt farz va juma nomozining vaqti boʻlganligini maxsus soʻzlar orqali baland ovoz bilan oʻziga xos yoqimli ohangda bildirish, eʼlon qilish. 2. Ibodatga daʼvat,

chorlov. *Alisher Navoiy bir o‘rinda muazzin chiroyli ovoz bilan azon aytishi lozimligini ta’kidlaydi, chunki bu nido yomon odamlarni ham masjid sari chorlaydi. Bu hol insonning yaxshi so‘z bilan ilonni inidan chiqarishiga o‘xshaydi, degan fikrni aytadi shoir* (Hidoyat.T., 2009/2, 30-b).



AZOT – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot, yasama ot, birlik, bosh kelishik. Rus tiliga XVIII asrda fransuz tilidan o‘zlashgan. Fransuzcha azote ximik olim Lavuazyening kashfiyoti nomi yunoncha a “emas” va zoos “jonli”. Azot sodda so‘z: hayot bermaydigan: yunoncha azoos > fransuzcha azote > rus, o‘zbek azot.



ACHIN – (turkiycha so‘z) fe‘l, holat fe‘li, bo‘lishli, o‘timsiz, o‘zlik nisbatda, buyruq mayli, tub fe‘l (achi +n = achin). Bu so‘z qadimgi turkiy tildagi ko‘p ma’noli achi fe‘lining “afsuslanib kuyinish holatida bo‘l” ma’nosidan o‘zlik ma’nosini ifodalovchi -n qo‘shimchasi bilan hosil qilingan (QTL, 5).

ACHINMOQ.1. Rahm, kuyunish hissini tuymoq; kuyunmoq. M: Ibrohim otaning bu qadar tez o‘zgarib, cho‘kib qolganiga Jumagul qattiq achindi.

3. Afsus aralash ranjimoq, xafa bo‘lmoq, o‘kinmoq. M: Bu gapni bekor boshlab qo‘yibman, - deb achindi Qudrat (O‘TIL, 121).



BADMINTON – (inglizcha so‘z) ot, birlik, bosh

kelishik. Rus tiliga XX asrning boshlarida ingliz tilidan o'tgan. Inglizcha badminton Badminton shahri nomini olgan. Inglizcha badminton > rus, o'zbek badminton.



BAYDARKA – (slovyancha so'z) ot, birlik. Baydarka bayza “qayiq”dan yasalgan baydara so'ziga kichraytiruvchi suffiks qo'shib hosil qilingan, bayza > baydara > o'zbekcha baydarka.



BAYTULLOH – (arabcha so'z) “Allohning uyi”. Ibrohim alayhissalom o'g'illari Ismoil alayhissalom bilan Alloh taoloning amriga muvofiq hozirgi Makkai mukarrama shahri joylashgan o'rinda qurgan Ka'ba binosi. Islom dini muqaddaslashtirilgandan so'ng berilgan nom.

M: Sizni deb qora bo'lgan bu yuzlarimni Baytullohga surkamay o'lsam, ro'zi qiyomatda qanday bosh ko'taraman.



BAKTERIYA – (yunoncha so'z) ot, birlik. Rus tiliga XIX asrda nemis tilidan kirib kelgan. Nemischa – bakterie lotincha bacterium “tayoqcha” so'zidan yasalgan. Lotincha bacterium yunoncha baktron “tayoq” kichraytiruvchi-erkalovchi suffiks qo'shish yo'li bilan paydo qilingan. Yunoncha baktron > lotincha bacterium > nemischa bakterie > rus, o'zbek > bakteriya.



BAL – (fransuzcha so'z) ot, birlik. Rus tiliga Pyotr I davrida fransuz tilidan olingan. Fransuzcha bal (so'zma-so'z: raqs, keyinchalik raqsli kecha) baller “raqs tushmoq, o'ynamoq” fe'lidan yasalgan: Fransuzcha baller > fransuzcha bal > rus, o'zbek tilida bal.



BALANS – (lotincha so'z) ot, birlik. Pyotr I davrida fransuz tilidan o'zlashgan. Fransuzcha balance “tenglik” lotin tilidagi bilanx “ikki kosali taroziga” borib taqaladigan balance “tenglashtirilgan tarozi kosalari” asosida yuzaga kelgan. Lotincha bilanx-bi(s) “ikki” va lanx “kosa” so'zlarining qo'shilishidan hosil

bo‘lgan: lotincha balanx > fransuzcha balance > fransuzcha balance > rus, o‘zbek tilida balans (buxgalteriya, bankdagi).



BALLADA – (provansalcha so‘z) ot, birlik. Rus tiliga XVIII asrda fransuz tilidan kirib kelgan. Fransuzcha ballade qadimgi provansal tilida “raqs” keyin “raqsga tushib aytiladigan she’r” ma’nosidagi balada, balada esa baler “raqs tushmoq” asosida yuzaga kelgan: qadimgi provansal > baler > qadimgi provansal balada > fransuzcha ballade > rus, o‘zbek tilida ballada.



BALIQ – (turkiycha so‘z), ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (bal + i = bali + q = baliq). Baliq oy quloqlari bilan nafas oladigan, suzgichli suv jonivori. M: *Bu yil baliq ovi erta boshlandi.* Bu ot qadimgi turkiy tildagi “namlik”, “suv” ma’nosini anglatgan bal otiga – i qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan fe’lga – q qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil bo‘lgan bo‘lib, asli suvda yashaydigan jonivor ma’nosini anglatgan. “Baliq” so‘zi dastavval “qal’a”, “devor”, “shahar” ma’nolarida izohlanib, so‘ng suv hayvoni ma’nolarida tushuntiriladi va “shahar”, “qal’a” ma’nosidagi “baliq” so‘zining tub ildizi “bal” – loy mazmunini ifodalashi ta’kidlanadi. M: Beshbaliq, Boybaliq, Bolosog‘un nomli joy va hududlar bo‘lgan (Sevortyan, II, 60).

Baliq. 1. Suzgichlari bo‘lgan, oy quloqlari orqali nafas oladigan, umurtqalilar kenja tipiga mansub suv jonivori. M: *Baliqning tirikligi suv bilan.*

2. Ushbu suv jonivorining go‘shiti. M: *Qovrilgan baliq. Tuzlangan baliq.*

3. Muchal yil hisobidagi beshinchi yil nomi. M: *Baliq yili* (O‘TIL, 148).

Baliq – M.Qoshg‘ariyning asarlarida “balchiq”, “loy” so‘zlariga taqaladi. A.Navoiy asarlarida ham bu so‘zlar izohiga mos tarzda qo‘llanadi: *“Gavhar balchiqqa tushgan bilan qiymati ushalmas...”*

(E.Shukur, “Bobo so‘z izidan”)



BANAN – (fransuzcha so‘z) ot, birlik. Rus tiliga XVIII asrda fransuz tilidan o‘tgan. Fransuzcha banane bakano tilidan o‘zlashgan. Fransuzcha banan > rus, o‘zbekcha banan.



BANK – (italyancha so‘z) ot, birlik. Rus tiliga Pyotr I davrida fransuz tili orqali italyan tilidan o‘zlashgan. Italyanacha: “bank” “sarrofxona” (pul almashtiruvchi) nemischa bank “stol, o‘rindiqlik” so‘ziga borib taqaladi: nemischa bank > italyanacha banco > fransuzcha banque > rus, o‘zbek tilida bank.



BANKROT – (nemischa so‘z) ot, birlik. Rus tiliga XVIII asrda nemis tilidan olingan. Nemischa bankrott > italyanacha bancorotto (banco “bank”varotto “sidirilgan”) asosida yasalgan: italyanacha bancorotto > nemischa bankerot.



BAR – (inglizcha so‘z) ot, birlik. Rus tiliga XX asr boshida ingliz tilidan kirib kelgan. Inglizcha bar “peshtaxta” “загородка to‘siq” ma’nosi barr esa o‘ziga borib taqaladi: fransuzcha barre > ingliz bar > rus, o‘zbek bar (turib ovqatlanadigan restoran).



BATON – (fransuzcha so‘z) ot, birlik. Rus tiliga XVIII asrda fransuz tilidan kirib kelgan: fransuzcha baton > rus, o‘zbek baton (o‘z shakli nomini olgan non mahsuloti).



BAYROQ – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (baz > bay + ir = bayir + a = bayiraq > bayraq>bayroq). Bu ot asli qadimgi turkiy tildagi yoyil ma’nosini anglatgan *baz* fe’lining *bay* shakliga – ir orttirma nisbat qo‘shimchasini va kuchaytirish ma’nosini ifodalovchi -a qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan shaklidan -“q” qo‘shimchasi bilan yasalgan (Sevortyan, II, 34; DTL, II, 239; III, 199).

Bayroq – 1. Yog‘och yoki metall dastaga, sim yoki chilvirga mahkamlangan, bir yoki bir necha rangli, davlat, tashkilot,

uyushma, harbiy qism va shu kabilarga qarashlilikni ifodalovchi gerb, emblema va boshqa ramziy belgilar, bezaklar tasviri tushirilgan muayyan o'lchamdagi mato, a'lam, yalov, tug'. M: Birdan uning ko'zi bayroq ko'tarib turgan bir to'da paranjili xotinlarning suratiga tushdi (O'TIL, 143).

2. Ko'chma ma'noda. Maqsad, g'oya, yo'l. M: *Tinchlik bayrog'i, ozodlik bayrog'i, mustaqillik bayrog'i. Yosh oybeklar bayrog'ini ko'taraylik balandga.*

3. Maxsus so'z, termin. O'zbek kulolchiligida keng qo'llanadigan, bayroqqa o'xshash bezak. Sopol idishlarning chetlaridagi hoshiyaning ba'zi turi ham bayroq deyiladi ("O'zME").



BAYRAM – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, yasama (baz - bay + ir =bayir +a = bayira +m = bayiram > bayram). Bu ot asli qadimgi turkiy tildagi yoyil – yayra ma'nosini anglatgan baz fe'lining bay shakliga -ir orttirma nisbat qo'shimchasini va kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi -a qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan shaklidan -m qo'shimchasi bilan yasalgan. Keyinchalik ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'ygan (Sevortyan, II,35). M.Qoshg'ariy bu so'zning asli bazram tarzida talaffuz qilinishini, o'gizlar z undoshini y undoshiga almashtirib, *bayram* deb talaffuz qilishini ta'kidlab o'tgan (M.Qoshg'ariy, DLT,I,447;III, 191).

Bayram. 1. Tarixiy, madaniy-ma'rifiy an'analarga ko'ra rasmiy yoki norasmiy ravishda uyushtiriladigan umumxalq shodiyonasi kuni, tantana kuni. M: *Navro'z bayrami barcha - barchaga yangi baxt, ulgan zafarlar keltiradi.*

2. Biror – bir munosabat bilan o'yin kulgi ishtirokida tantanali ravishda o'tkaziladigan tadbir. M: *Bolalar archa bayramidan uylariga xursand bo'lib qaytadilar.* 3. Ko'chma ma'noda. Vaqtichog'lik, xursandlik; baxt, omad. M: *Joni sog'ga kunda bayram, kunda to'y.*



BEGEMOT – (nemischa so'z) ot, birlik, bosh kelishik. Rus tiliga XVIII asrda nemis tilidan o'tgan. Nemis behemoth

qadimgi yahudiy tilidagi behemoth “Nil gippopotami” (so‘zma-so‘z: suv buqasi): qadimgi yahudiy behemah > qadimgi yahudiy behemoth > nemis behemoth > rus, o‘zbek begemot.



BEYSBOL – (inglizcha so‘z) ot, birlik, bosh kelishik. XX asrda ingliz tilidan rus tiliga kirib kelgan. Ingliz baseball base uy (o‘yinda), “to‘p” so‘zlaridan qurilishidan yasalgan: ingliz baseball > rus, o‘zbek beysbol.



BEOSTROGONOV – (fransuzcha so‘z) ot, birlik. XIX asrning 2-yarmida fransuzcha baf “mol go‘shiti” va strogonov familyasining birikishidan yasalgan. So‘zma-so‘z: “strogonov usuli bilan pishirilgan go‘shit”: rus beorstrogonov > o‘zbek beorstrogonov.



BEHI – (fors-tojikcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub (beh +i = behi). Bu ot izofa orqali yangi ma’no ifodalab, olmalar turkumiga kiruvchi meva nomini bildiradi. So‘zning asosi *beh* bo‘lib, yaxshi, yoqimli, ko‘rinishli, yaxshi hidli ma’nolarida kelib, *behi* hidli, yoqimli hidli meva demakdir.

Behi – olmasimon xushbo‘y meva. 1.Issiq mamlakatlarda o‘sadigan, atirgullar (ra’nodoshlar) oilasiga mansub, xushbo‘y mevali daraxt. M: *Mohidil qaytib hovliga tushayotganida, behi shoxi shitirlab ketdi.* 2.Shu daraxtning olmaga o‘xshash mevasi. M: *Xonani zira, dolchin, behi, zig‘ir moyining xushta‘m hidi qopladi*(O‘TIL, 250).



BELBOG‘– (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, qo‘shma so‘z (bel bag‘i > belbag‘i > belbag‘ > belbog‘). Belga bog‘lanadigan chorburchak mato, qiyiq. Bu qo‘shma ot qadimgi turkiy tilda *bel bag‘i* birikmasining bir so‘zga birlashuvi bilan yuzaga kelgan, keyinchalik egalik qo‘shimchasi talaffuz etilmay qo‘ygan.

Belbog‘. 1.Belga bog‘lanadigan, to‘rtburchak ro‘mol shaklidagi gulli yoki gulsiz, chetlari tikilgan mato parchasi; qiyiq,

qiyiqcha. M: *Nozim Zuhraning boshini asta silab, o'z ko'z yoshini belbog'i uchiga artdi.*

2. Umuman belga belbog' kabi bog'lanadigan narsa. M: *Eshigimizga uvada ton-u chilvir belbog'da kelgan eding.*

3. Har narsaning o'rta belidan o'tgan faraziy chiziq yoki halqa; ekvator. M: *Biz yerning belbog'idan o'tdik, Janubiy yarim sharga kirdik.*

4. Ko'chma ma'no. Quvvat, mador, ko'makdosh. M: *Oshnam – belbog'im.*



BIZ – (turkiycha so'z) olmosh, kishilik olmoshi, I shaxs ko'plik (bi + z = biz). Bu olmosh asli qadimgi turkiy tildagi “so'zlovchi” ma'nosini bildirgan *bi* so'ziga “ikki” (“ko'p”) ma'nosini ifodalovchi - z qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan (Sevortyan, II, 130).

Biz – kishilik olmoshi, I shaxs, ko'plik. 1. So'zlovchi va uning atrofida; so'zlovchi va u ko'zda tutayotganlar. M: Bizlar, bizlar biz edik, bizlar bir talay qiz edik. Bizlarni uzdilar, bir ipga tizdilar. 2. Birinchi shaxs “men” o'rnida ishlatilib, kamtarlik yoki, aksincha, maqtanish, g'ururlanish, pinhona g'urur ma'nolarini ifodalaydi. M: Kim talabgor? Mana, biz talabgor. 3. O'rin-payt kelishigi qo'shimchasini olib, “yurtimizda”, “elimizda”, “oramizda” kabi ma'nolarni anglatadi. M: *Surnaychining zo'rlari bizda bo'ladi* (O'TIL, 255).



BESHİK – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (be + shi = beshi + k = beshik). Bu ot qadimgi turkiy tilda mavjud bo'lib, “yo'rgak” ma'nosini anglatgan be otiga -shi qo'shimchasini qo'shib yasalgan fe'ldan -ki qo'shimchasi bilan yasalgan (Sevortyan, II, 123).

Beshik-1. Chaqaloqni belab va tebratib uxlatish uchun tol yoki tut yog'ochidan yasalgan yo'rg'a oyoqli maxsus moslama; tebratma belanchak. M: *Beshikdagi Uchqun uydagi harakatni sezib, ovozlarni eshitib, hadeganda uxlay bermadi.*

2. Ko'chma biror narasaning, voqea-hodisaning tug'ilgan yeri, makoni, manbai. M: *Baxt beshigin quchoqlab, bizni*

ulg'aytirdingiz.



BINAFSHA – (fors-tojikcha so‘z) ot, turdosh ot, birlik, aniq ot, bosh kelishik, yasama (bun + afsh +a). Bu so‘z ikki asos va bir yordamchi morfemadan yasalgan. Bundagi bun eski tojik tilida tag, past, ost, quyi, oxir ma‘nolarida qo‘llangan. Afsh so‘zi afshondan pastga qoqmoq, to‘kmoq ma‘nosidagi fe‘l bilan aloqador. Binafsh so‘zi bu gulning ko‘kligiga nisbat berib, ko‘k rang ma‘nosida qo‘llanadi. O‘zbek tilining ba‘zi shevalarida binafsha guli gunafsha sifatida ham qo‘llanadi (B.Bafojev, KST, 48).Binafsha, gunafsha bir nav, xushbo‘y giyoh.

1.Binafshadoshlar oilasiga mansub, ko‘p yillik o‘tsimon o‘simlik va uning bahorda ochiladigan to‘q safsarrang xushbo‘y guli. M:*Yaxshiboyev dimog‘ida binafsha hidini tuydi, yuragi orziqdi.*

2.Shu gul rangidagi safsarrang. M: *To‘rt burchagida ko‘k, binafsha, shaftolirang ipaklar bilan gullar tikilgan(O‘TIL, 265).*



BIBI MARYAM – (yahudiycha so‘z) Maryam ismi asosan qiz bolalarga qo‘yiladi va bu ism yahudiycha so‘z.1. Iso payg‘ambarning onasi. Maryamning otasining ismi Imron, onasining ismi esa Aqimadir. 2. Makkada nozil bo‘lgan to‘qson sakkiz oyatdan iborat bo‘lgan Qur‘oni karimning o‘n to‘qqizinchi surasining nomi.



BID‘AT – (arabcha so‘z) yangilik. Ilgari yo‘q bo‘lgan bir ishni, narsani paydo qilish. Shar‘iy bo‘lmagan amalni joriy qilish.U ikki xil bo‘ladi. 1. Bid‘ati hasana (yaxshilikka boshlovchi yangilik). 2. Bid‘ati sayyia (yomonlikka yetoklovchi yangilik). M: *Umar (r.a.) “Bu qandoq ham yaxshi bid‘at. Bu vaqtda uxlab yotganlaridan ko‘ra qoim (taroveh nomoziga) bo‘lganlari afzal”, - dedi.*

Ba‘zan bu so‘z xurofot, taassuf ma‘nosida ham ishlatiladi.

(Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Kifoya.T.2.T.:// Sharq, 2008, 389-b).



BILAKUZUK – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, birlik, qoshma ot, bosh kelishik (*bilak uzugi > bilaguzug > bilakuzuk*). Bu qo‘shma ot eski o‘zbek tilida *bilak uzugi* birikmasini bir so‘zga birlashtirib hosil qilingan, yaxlit talaffuz qilish natijasida *k* undoshi *g* undoshiga almashgan. So‘z oxiridagi *-i* egalik qo‘shimchasi talaffuz qilinmay qo‘ygan, shundan keyin *g* undoshi *k* undoshiga qaytgan (Sevortyan, II, 144).

Bilakuzuk ayollar bilakka taqadigan ziynat buyimi, taqinchoq.

M: Hammasini etagimga to‘kdi: bilaguzuk, tilla bargak, tillaqosh, maravarid – marjon, har xil uzuklar (O‘TIL, 257).



BODOM – (fors-tojikcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (*bad + oli –olu > bad + om > bodom*). Bu meva ham tashqi tomoni bilan olularga o‘xshaganligi uchun ham uni *oluyu, yomon olu*, ya’ni *bad – yomon, yaramas*, yaxshi emas; *olu* – mevalarning umumnomi bilan nomlangan. Bodom so‘zi Zamaxshariy lug‘atida *ba:da:m*, hozirgi forsiy va turkiy tillarda: tojik tilida – bodom; fors tilida badam; afg‘on tilida badam; kurd tilida badem; qirg‘iz tilida badam; turkman tilida badam.

A.Navoiy asarlarida: *Ne uchun bazmi visol ichinda ichmay bodakim,*

Ko‘ziyu og‘zi bukun bodomu shakkardur mango.
(Navoiy.G‘S.35) (B.Bafaye, KST, 22).

BODOM – 1. Atirgullar oilasiga mansub, semoy mag‘zi iste‘mol qilinadigan daraxt. *M: Olmadan bodom bo‘lmas, tagi past odam bo‘lmas.*

2. Shu daraxtning mevasi (danagi). *M: Odam odam bilan , pista bodom bilan* (O‘TIL, 295).



BOBO – (turkiycha so‘z) ot, aniq ot, turdosh ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (*baba > bava > buva*). Bu so‘z “otaning yoki onaning otasi”, “buva” kabi shakllarda ham qo‘llangan. Qadimgi turkiy tilda *ba:ba* talaffuz qilingan bu so‘z asli “onaning otasi” ma’nosini anglatgan. Keyinchalik ma’noda kengayish yuz

berib, “otaning otasi” ma’nosini ham anglata boshlagan. So‘zlashuv nutqida bu so‘z buva tarzida aytiladi (Sevortyan, II, 12).

Bobo – 1. Otaning yoki onaning otasi (nabiraga nisbatan). M: *Boboning tol ekkani – o‘ziga nom ekkani*. 2. (Faqat ko‘chma ma’noda). O‘tmishda yashab o‘tgan qarindosh kishilar, ajdodlar. M: Agar Bobur mirzo Samarqandni tezroq egallamasalar, bobolardan qolgan saltanat begona sulola ilkiga o‘tib ketgusidir.

3. Hurmat yuzasidan qariyalar nomiga qo‘shib ishlatiladi. M: *Murod darrov turib, Hoji bilan so‘rashdi va nazokat bilan unga joy ko‘rsatdi*:

- Keling ,Hoji bobo!

4. Aziz-avliyolar nomiga qo‘shib ishlatiladi. M: *Xizr bobo qo‘lingni baland qilsin*.

5. O‘tmishda Buxoroning katta dahalarini nazorat qiluvchi bosh mirshab unvoni.

6. Oqsoqol, otaxon. M: *Kambag‘allar Tog‘ayni bobo ko‘targan edi*.

7. Bobo (erkaklar ismi) (O‘TIL, 292).



BODRING – (fors-tojikcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (bad > bod + rang > ring = bodring). Bu so‘z tarixan qo‘shma ot bo‘lib, yomon, yaramas, yoqimli emas ma’nolarini anglatuvchi bad hamda ring so‘zlarining qo‘shilishidan paydo bo‘lib, yomon rangli, ko‘rinishli, ko‘rimsiz degan ma’nolarni anglatgan (B.Bafoyev, KST, 33).

Bodring – qovoqguldoshlar oilasiga mansub, bir yillik poliz o‘simligi va uning yeyiladigan hosili. M: *Bodringni yog‘liq, go‘shqli ovqatlar bilan yeyish katta ahamiyatga ega* (O‘TIL, 296).



BOLA – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (bala>bola). Bu ot qadimgi turkiy tilde qo‘llanib, “go‘dak”, “farzand” ma’nolarini anglatgan (Sevortyan, II, 48).

Bola – M.Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asarida bala tarzida qo‘llangan. Bu so‘z “qush bolasi” degan ma’noni

anglatgan. Demak, bu soʻzning goʻdak farzand maʼnosi keyinroq yuzaga kelgan (M.Q.DLT,III,250).

Bola – 1. Bola. 2. Yangalar uchun qaynilarining umumiy atalishi (Zominning til qomusi, 199).

Bola – 1. Yangi tugʻilgan, hali koʻkrakdan, ona bagʻridan ajratilmagan goʻdak; chaqaloq. M: *Bolani allalab uxlatmoq*.

2. Bola - hali yosh, voyaga yetmagan odam. M: *Bolani yoshdan asra, niholni boshdan*.

3. Farzand, oʻgʻil-qiz, zurriyot. M: *Odamning mevasi bola*.

4. Koʻchma maʼno. Yoshi ulugʻ, ammo goʻdaklarcha ish tutadigan, bolalarcha mulohaza yurgizadigan odam haqida . M: *Nega koʻnglinga olmay, men yosh bolamanmi! - dedi Kumush*.



BOGʻI ERAM – (arabcha soʻz) afsonaviy bogʻdirki, goʻyo arablarning zolim Shaddod ismli podshohi uni xuddi jannatga oʻxshatib qurgan.

Menki ayr-u yordin darmondamen,

Gar Eram bogʻidamen – zindodamen.



BOSHOQ – (turkiycha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (bash + aq = bashaq > boshq). Bu ot asli bash soʻzining “tik narsaning tepa qismi” maʼnosidan kichraytirish maʼnosini ifodalovchi -aq qoʻshimchasi bilan hosil qilingan boʻlib, dastlab “oʻq va nayza uchidagi temir” maʼnosini anglatgan (M.Q.DLT, I, 359). Boshq – 1. Bugʻdoy, arpa singari oʻsimliklarning poyasi uchidagi don hosil boʻladigan choʻzinchoq toʻp guli hamda don boʻlib yetilgan shunday toʻp gul, bosh. M: *Birgal yarimta boshqni sudrab ketayotgan chumolini koʻrganman*.

2. Eskirgan soʻz. Kamon oʻqining boshi, uch qismi (OʻTIL, 342).

Boshq – tilimizda “boshq soʻzining ukasi mashq” degan soʻz ham bor. Bugʻdoyni oʻrib, yigʻib olish paytida, oʻrimdan keyin yerga toʻkilib qolgan don va boshqlarni elimiz mashq deydi. Urush yillarida odamlar mashq terib kun koʻrishgan. Bu soʻz xalq tilida va adabiy asarlarimizda tez – tez uchrab turadi.

M: “O‘roqda yo‘q, mashoqda yo‘q, hirmonda hozir”, – degan maqolimiz ham bor (E.Shukur, Bobo so‘z izidan).



BUVI – (turkiycha so‘z), ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub (bibi > buvi). Qadimgi turkiy tilda buvi so‘zi bibi tarzida talaffuz qilingan va “ota-onaning onasi” ma’nosini anglatgan (Sevortyan, II, 127).

Buvi – 1. Otaning yoki onaning onasi. M: *Mungli ko‘zlari mehrga to‘la bu nozik kampir Shukurovga marhum buvisini eslatdi.*

2. Shevada ona, oyi. M: *Yig‘lamang, buvi, Xudoning irodasi,-dedi G‘ulomjon, bunday gaplar onasining qalbiga malham bo‘lmasligini bilsa ham.*

3. Tilga olinayotgan kishi ismidan keyin kelib, shaxsning keksaligini, unga yaqinlik, xurmatni ifodalaydi. M: *Gulsum opa idoradan chiqib, to‘g‘ri Moxira buvinikiga ketdi.*



BUG‘DOY – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (bu +g‘+day = bug‘doy). Bu so‘z qirg‘iz tilida buuday; turkman tilida bugday; qaraqolpoq tilida biyday, turk tilida bug‘doy; ozarboyjon tilida bug‘da, uyg‘ur tilida bog‘day; Xorazm shevsida bu :day; tatar tilida boday, oltoy tilida *buuday* shaklida qo‘llangan. (B.Bafoyev, KST).

Bug‘doy –1. G‘alladoshlar oilasiga mansub o‘tsimon o‘simlik va uning doni, g‘allasi. M: *Odam Atoning o‘zlari birinchi marta yer haydab, bug‘doy sochganlar* (O‘ZTIL, 393).



BUYRAK – (turkiycha so‘z), turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelish, yasama so‘z (bovir + ak = bovirak > buvrak > buyrak). Bu so‘z qadimgi turkiy tildagi bovir otining “jigar” ma’nosidan -ak qo‘shimchasi bilan hosil qilingan bo‘lib, asli kichik jigar ma’nosini anglatgan, siydik ajratuvchi a‘zo ma’nosi keyin yuzaga kelgan (Sevortyan, II, 207).

Buyrak. 1.Odam va umrtqali hayvonlarda siydik hosil qiluvchi va uni ajratuvchi, loviya shaklidagi juft a‘zo. M: *O‘ng buyrak, chap buyrak.*

2. Ba'zi hayvonlarning shunday a'zosini pishirib tayyorlangan taom nomi.

M: *Qovurilgan buyrak*. (O'TIL, 366).



BUYUK – (turkiycha so'z), sifat, asliy sifat, oddiy daraja yasama (buy +u =buyu +k >buyuk). Bu so'z qadimgi turkiy tildagi yirik ma'nosini anglatuvchi biy sifatining buy shaklidan y qo'shimchasi bilan yasalgan fe'lga -k sifat yasovchisini qo'shib yasalgan (Sevortyan, II,288).

Buyuk – 1. Hajm-o'lchov odatdagidan ortiq, katta; ulkan.M: *Ahmad o'zini buyuk koinot qarshisida zarraning milliarddan bir zarrachasidek his etdi*.

2. Ulug'vor, yuksak, tengsiz, mislsiz. M: *Buyuk yetuk odamlar nihoyatda kamtar, kamsuqum, dilbar – u mehribon bo'lishini bu dono qiz yaxshi bilardi*.

3. Aziz, mo'tabar, muqaddas. Dunyoda hech so'z bormi ona so'zidan buyuk.

4. Buyuk – erkaklar ismi (O'TIL, 390).



BUROQ – (arabcha so'z) barq, chaqmoq, yashin.Ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik. Muhammad (s.a.v)ning Me'roj (Isro)kechasida minganlari rivoyat qilingan ulovning nomi. Rangining sof va yorqinligi, juda tez harakatlanishi sababidan shunday nom olgan. Manbalarda bu ulovning rangi oq, o'zi favqulodda tez sur'atli ekani, shaklan xachir va eshak o'rtalig'idagi hayvonligi keltirilgan.

M: Bundan keyin Rasullulohni yana Buroqqa mindirib, Jabroil alayhissalom jilovlarida, nosut olamidan lohut jonibiga, ya'ni yer ustidan osmonga ko'tarildilar (Alixonto'ra Sog'uniy. Tarixi Muhammadiy.T.:/ Movarounnahr, 1997,87-b).



BO'RON – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot (bora + n = boran > bo'ron). Bu ot qadimgi turkiy tildagi "shamol aralash kuchli yog'in yog'" ma'nosini anglatgan bora fe'lidan -n qo'shimchasi bilan yasalgan (Sevortyan,II,191).

Bo'ron. 1. To'zon yoki qor yomg'ir aralash esadigan shiddatli

shamol.M: *Bo‘ri bo‘ronda qutirar.*

2. Ko‘chma ma‘no. To‘xtamasdan yog‘ilayotgan narsa. M: *To‘plarning o‘q bo‘roni avvalgi kuch va g‘azab, qahr bilan samoda hukmron edi.*

3. Ko‘chma ma‘no. Shiddatli, davomli harakat, oqim; to‘fon. M: Xalqning qudratiga, bo‘roniga tog‘dosh kelolmas! – dedi-da Sultonmurod chiqib ketdi (O‘TIL, 417).



BO‘RI – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (bo‘r + i = bo‘ri). Bu ot qadimgi turkiy tilda “kulrang”, “ko‘kintir” ma‘nosini anglatgan bo‘r shaklidan + i qo‘shimchasi bilan yasalgan (Sevortyan, II, 221).

Bo‘ri. 1.Sut emizuvchilarning itsimonlar oilasiga mansub yirtqich hayvon; qashqir. M: *Ayrlganni ayiq yer, bo‘linganni bo‘ri yer.*

2. Ko‘chma ma‘noda. Yovuz, qonxo‘r, shafqatsiz odam haqida. M: *Ahmad Husayn oqarib ketdi – yu, lekin indamadi, chunki bo‘rilar orasida ekanligini yaxshi bilardi.*

3. Bo‘ri erkaklar ismi.

Bo‘ri – Astr. Osmonda joylashgan yulduzlar turkumi.



DADA – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, shaxs oti, birlik, aniq ot, bosh kelishik, tub. Qadimgi turkiy tilda bu ot “dada” tarzida talaffuz qilingan. Qadimgi turkiy tildagi ko‘p ma‘noli bu

soʻzning ushbu shakli oʻzbek tilida ota maʼnosini anglatadi (OʻTEL, 89).

Dada. 1. Ota, padar. Gulnor ikki haftadan buyon dadasi va onasi bilan birga har kuni bogʻda ishlaydi (OʻTIL, 542).



DAHA – (tojikcha soʻz) ot, turdosh ot, yasama ot. Bu ot tojikcha “oʻn” maʼnosini anglatadigan sanoq soniga -a qoʻshimchasini qoʻshib hosil qilingan. Shahar tarkibiga kiradigan mahallalar majmui. Masalan: *Ibn Sino dahasi*. Ipak qurtining uyquga kirish pallasi maʼnosini anglatadi. Masalan: Ipak qurtining birinchi, ikkinchi, uchinchi uykusi kichik daha, toʻrtinchi, beshinchi uykusi katta daha deyiladi. 1. Roʻza hamda Qurbon hayitlaridan oʻn kun avvalgi va oʻn kun keyingi kunlar shunday nomlanadi. Bu kunlarda daraxt kesilmaydi, ovga borilmaydi, odamlarga xushmuomalada boʻlinadi. 2. Eshonlarning xonoqohlarida boʻlib oʻtadigan oʻn kunlik toat ibodat.



DAHRIY – (arabcha soʻz) sifat, nisbiy sifat, yasama sifat, oddiy daraja. Dahr – vaqt, taqdir, falak degan maʼnolarni anglatadi. Dahriylik islom paydo boʻlmasdan ilgari arab jamiyatida keng tarqalgan aqida. Johiliya arablarida narigi dunyo borligiga, bu dunyoda zahmat chekkanga u dunyoda ajr, gunoh ishlar qilganlarga azob berilishiga ishonch yoʻq edi. Borliq egasi, oliy hokimi sifatida muayyan bir xudo emas, qandaydir "dahr", taqdiri falak, inson irodasi bilan hisoblashmaydigan va undan yuqori turadigan tasodifiy oʻzgarishlar jarayoni tasavvur qilinardi. Ularning eʼtiqodicha, oʻlimdan soʻng hamma narsa tugaydi, shuning uchun bugungi kun bilan yashab qolish kerak. Bunday hissiyot Qurʼonda quyidagi soʻzlar bilan ifodalangan: "Ular deydilar: faqat bitta - bu dunyodagi hayotimiz bor — yashaymiz va oʻlamiz; bizni dahr (vaqt, takdir) xalok qiladi" (Josiya surasi, 24-oyat). Keyinchalik, islom adabiyotida "dahriy" soʻzi "moʻmin" soʻzining aksi sifatida ishlatila boshlandi. Oʻrta asrlarda bir qancha olim, mutafakkir va shoirlar Masalan: Mansur Halloj dahriylikda ayblanib, shafqatsiz jazolangan. Hozir ham musulmon dunyosida dahriylik qoralanadi dahriylik va ateizm atamaları bir maʼnoni anglatmasada, shoʻrolar davrida ularni

sinonim soʻz sifatida ishlatish rasm boʻlib qolgan edi. 1.Qadimiy, Abadiy. 2. Olamni abadiy va azaliy, deb biladigan va uning Alloh tarafidan yaratilganligiga ishonmaydigan kishi. Dinsiz va xudosiz. 3. Allohning borligiga ishonmaslik.

Eng yomoni, bu jamiyatlarda dahriylik hukmron boʻlgan. Shu bois, ularni yuksalish emas, yoʻqotishlar davri demoq ayni haqiqatdir (Hidoyat.T., 2004/3,30 –b.).



DAJJOL – (arabcha soʻz) aldamchi, firibgar. Ot, atoqli ot, mavhum ot. Islom diniga koʻra, qiyomat oldidan paydo boʻladigan va dindorlarni Xudo koʻrsatgan toʻgʻri yoʻldan ozdiradigan odamsimon bir koʻzli maxluq.

Ey aziz, maʼlum boʻlsinki, xuruj Dajjoldin ilgari odamlar uch yili qahatchilikka muhtalo boʻlurlar

(Domullo qori Muhiyuddin. Sharhi qasidai Amoliy Sirojiddin Oʻshiy.T.://Tipograf Ilʼina, 1326 h.).



DANAK – (fors-tojikcha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub soʻz. Qattiq poʻchoq va magʻizdan iborat urugʻ maʼnosini anglatgan “danak” soʻzi boshhoqli oʻsimlik hosili mazmunini bildiradigan “don” soʻziga borib taqaladi. Danak soʻzi dona soʻziga yaqin, chunki dona soʻzi ham danak soʻzi bilan bitta ildizga ega boʻlib, don soʻzidan paydo boʻlgan (E.Shukur, Bobo soʻz izidan,242).

Danak – 1. Baʼzi etli mevalar ichidagi qattiq poʻchoq va magʻizdan iborat urugʻ. M: Qarshida oriklar allaqachon danak qotirib qolgan, buyoqlarda boʻlsa endi gullayapti.

2. Koʻchma maʼno. Bola, farzand. M:Danagi shirin, danagidan magʻzi shirin (OʻTIL, 554).



DARS – (arabcha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub. Bu soʻz oʻqitti, oʻrgatti maʼnosini anglatuvchi “darasa” feʼlidan olingan boʻlib, arab tilida “oʻrganish”, “saboq”, ”maʼruza” maʼnolarini; oʻzbek tilida esa “oʻquv mashgʻuloti”, “saboq” maʼnolarini anglatadi (OʻTEL, Sh.Raxmatullayev, 104).

Dars – 1.Ta’lim muassasalarida ilm, ma’lumot berish maqsadida o‘tkaziladigan o‘quv mashg‘ulotlari, saboq. M: Yaqinda sinfdan tashqari dars o‘tamiz. 2.Ko‘chma ma’no. Hayotiy tajribadan kelajak uchun chiqarilgan foydali natija, ibrat, saboq. M: Bu unga yaxshi dars bo‘ldi (O‘TIL,569).



DARVESH – (fors-tojikcha so‘z, turkcha - dervis) ot, turdosh ot, shaxs oti, tub ot. Darvesh - kambag‘al qalandar - qashshoq degan ma’nolarni anglatadi. O‘zini Alloh yo‘lida xizmat qilishga bag‘ishlagan va o‘zini o‘zi kamolotga yetishtirish yo‘liga kirgan inson. „So‘fiy“ so‘ziga sinonim. Darvishlik ta’limotining asosini zikr tushish orqali xudo bilan „yaqinlashish“ va, hatto, u bilan „qo‘shilib ketish“ mumkin, degan g‘oya tashkil qiladi.

1.O‘zini Alloh yo‘lida xizmat qilishga bag‘ishlagan va o‘zini o‘zi kamolotga yetishtirish yo‘liga kirgan inson.

2.Qalandar, zohid, bir burchakda o‘tirguvchi obid.

3.Benavo, qashshoq, faqir, gado.

...chun madrasa va xonoqoh binolari tamom bo‘ldi. Ersa ular ichra muqim o‘lg‘on tolibi ilmlar va darveshlar vazifalarin dog‘i tayin qilmoq kerak (Husayn Voiz Koshifiy. Axloqi muhsiniy. Litografiya Porseva, 1910).



DARYO – (fors-tojikcha so‘z), ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tarixan yasama so‘z (dar + ob > daryo). Daryo so‘zi dar daromadan – kirmoq fe’li va ob - suv so‘zlarining qo‘shilishidan paydo bo‘lgan. Bu so‘z dar va ob, ya’ni suv yo‘li ma’nosini anglatgan (B.Bafoyev, KST, 84).

Daryo. 1. Manbaidan quyilish joyi tomon tabiiy o‘zandan doimiy ravishda oqib turadigan katta suv. M:*Tomchi toshib bo‘lguncha daryo oqib bo‘lar.*

2.Ko‘chma ma’no. Ko‘p miqdordagi narsalar haqida.

M: *Odamlar daryosi yangi shahar tomonga oqardi.*

3.Ko‘chma ma’no. Bitmas-tuganmas; boy,keng.

M: *Taqsimning ilmlari juda daryo, o‘zlari Buxorodan xatmi*

kitob qilganlar!

4. Ko‘chma ma’no. Boylik, xazina. M: *San’atkor xalq tili daryosidan o‘rinli foydalana olsa, bir qatrasini bilan serzavq, ancha baquvvat gullar ko‘kartira oladi* (O‘TIL, 565).



DAVLAT – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z. Bu arabcha so‘z dala fe‘lidan o‘sib chiqqan bo‘lib, “o‘tdi”, “mavjud bo‘lmay qoldi”, “almashdi”, “boshlandi” kabi ma’nolarni anglatgan. Davlat so‘zi dastlab “qisqa muddatga saylangan, belgilangan boshqaruv organi ma’nosini anglatgan” (O‘TEL, Sh.Raxmatullayev, 99).

Davlat. 1. Boylik, mol-dunyo, mol-mulk. M: Yaxshi niyat – yarim davlat. Ko‘chma ma’no. Ma’naviy boylik, baxt, omad. M: *Sog‘lig‘ing – davlating*. Davlat (erkaklar va ayollar ismi) (O‘TIL, 536).



DIYONAT – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, yasama (diyanat > diyonat). Bu so‘z arab tilida “ilohiy kuchga sig‘indi” ma’nosini anglatuvchi *dana* fe‘liga - at so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi bilan hosil qilingan. Diyonat so‘zi vijdon, vijdonlilik, insof kabi ma’nolarni anglatdi (O‘TEL, Sh Raxmatullayev, 108).

Diyonat. 1. Vijdon, vijdonlilik, insof. M: Boy deganda diyonat bo‘larmidi.

2. Diniy qonun-qoidalarga qattiq rioya etish, dindorlik, taqvodorlik. M: *Islom dini – bu ota – bobolarimizning dini, u biz uchun ham imon, ham axloq, ham diyonat, ham ma’rifat ekanligini unutmaylik* (O‘TIL, 608).



DEHQON – (fors-tojikcha so‘z) ot, turdosh ot, shaxs oti, birlik, bosh kelishik, tarixan yasalgan qo‘shma so‘z (deh + xon > xoon > qoon > qon). Bu so‘zning dastlabki shakli deh + xoon – xon bo‘lib “qishloq xoni”, “qishloq shohi” degan ma’noni anglatgan (B.Bafoyev, KST, 85).

Dehqon – asosiy kasbi yerga ishlov berish, ekin ekishdan iborat bo‘lgan kishi. M: *Dehqon bo‘lsang shudgor qil, mullo bo‘lsang takror qil* (O‘TIL, 603).



DEFIS – (nemischa so‘z) ot, turdosh ot, birlik. Rus tiliga XIX asrning oxirida nemis tilidan tipografik termin sifatida kirib kelgan (1861). Nemischa difes – “tire, bog‘lovchi belgi; ajratish belgi” rus tiliga defies shaklida o‘zlashgan. Lotincha defisio > nemischa divis, ruscha, o‘zbekcha defis.

Defis (ma‘nodoshi chiziqcha) orfografik termin sifatida rus tilida faqat XX asrning 30-yillarida qo‘llana boshlagan.



DENGIZ – (turkiycha so‘z), ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (ten + iz = teniz > tengiz > dengiz). Bu ot qadimgi turkiy tilda tingiz, teniz tarzida talaffuz qilingan. “Devoni lug‘atit turk” asarida *teng* so‘zi “ko‘l” ma‘nosini anglatishi aytilgan. Shunga ko‘ra, tengiz so‘zi ten so‘ziga “ko‘p”, “mo‘l” ma‘nosini ifodalovchi *-iz* qo‘shimchasining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Keyinchalik boshlanishidagi t undoshi d undoshiga almashgan (DLT,III, 374).

Dengiz. 1. Okeanning quruqlikka tutashgan yoki quruqlikka yorib kirgan bo‘lagi, okeanning quruqlik, yoki orol, yoki yarim orollar bilan ajralgan qismi.

M: *Orol va yarimorollar okeanni ayrim qismlarga bo‘lib yuborgan, bu qismlar dengizlar, deb ataladi.*

2. Keng maydonni egallagan va dengizga qiyos qilingan sun‘iy suv havzasi.

M: *Chorvoq dengizi xuddi uzukka qo‘yilgan moviy ko‘zga o‘xshab, yashnab ko‘rinadi.*

3. Ko‘chma ma‘no. Juda katta uyum, to‘da, oqim; biror narsa bilan qoplangan keng maydon. M: *Ko‘m-ko‘k paxta dengizida qizg‘in ish borar edi* (O‘TIL, 597).



DEKABR – (yunoncha so‘z) ot, turdosh ot, birlik, bosh kelishik. Birinchi marta Ostromir Yevangeliyasida qayd etilgan

(1056 – 1057). Dekabr lotin tilidagi desember “o‘n” asosida yasalgan. Yunoncha dexembertos “dekabr”ga taqaladi va rim kalendaridagi o‘ninchi oyni ifodalaydi.



DEKAN – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot, shaxs oti, birlik, bosh kelishik. Fakultet rahbari ma’nosini ifodalovchi bu so‘z XVIII asr boshida nemis tilidagi “o‘n kishi yo‘lboshchisi”, “o‘n raqibning kattasi” ma’nolarini ifodalovchi lotincha desanus so‘zidan o‘zlashgan. Kaputula rahbari > fakultet rahbari; deset “o‘n” so‘zining yasamasi



DEKLAMATSIYA – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot, birlik, bosh kelishik XVIII asrning oxirida fransuz tilidan o‘zlashgan. Lotincha deklamare > declamation > declamation > deklamasiya “baland ovozda yoddan aytib berish” ma’nosini anglatadi.



DEKLARATSIYA – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot, birlik, bosh kelishik. Pyotr I davrida polyak tilidan rus tiliga o‘zlashgan. “Tushuntirish, e’lon qilish” ma’nosini ifodalovchi bu so‘z lotincha “clarus” “aniq” sifatiga de old qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilingan.



DELEGAT – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot, shaxs oti, tub ot. Biror tashkilot, jamoa tomonidan vakolatli qilib saylab yoki tayinlab yuborilgan vakil. *Delegat saylamoq*. XIX asrning boshlarida polyak tilidan o‘zlashgan. Birinchi marta Tatishchevning lug‘atida “deputat, delegat” ma’nolari bilan qayd etilgan. Lotincha delegare “jo‘natmoq, tayinlamoq” > delekatus > fransuzcha delegue > polyakcha delegat. Delegatsiya so‘zi ham shu asosda hosil qilingan.



DELFIN – (nemischa soʻz) ot, turdosh ot, birlik, bosh kelishik. Nemis tilidan olingan. Birinchi marta delfin – dengiz jonivori shaklida rus Azbukovnikida qayd etilgan (XVI).



DESANT – (fransuzcha soʻz) ot, turdosh ot, shaxs oti, yasama ot, bosh kelishik. Pyotr I davrida rus tiliga fransuz tilidan oʻzlashgan. Dushman egallagan hududda jangovar harakat qilishga moʻljallab samolyot, vertalyot va dengiz, daryo orqali tushirilgan yoki shu maqsadda tuzilgan qoʻshin.



DESIMETR – (fransuzcha soʻz) ot, turdosh ot, birlik, bosh kelishik. Rus tiliga XVIII asrning oxirida fransuz tilidan kirib kelgan. Birinchi marta Yanovkiyning lugʻatida uchraydi(1803). Fransuzcha decimeter deci + metre “metr” soʻzlarining birikishidan yasalgan.



DETERMINATIV – (lotincha soʻz) tilshunoslik termini, ot, turdosh ot, yasama, birlik, bosh kelishik. Bu soʻz rus tiliga ingliz tili orqali lotin tilidan oʻzlashgan. U oʻzakning koʻrsatkichi, oʻzak suffiksi maʼnosi bilan HEMP lugʻatining ruscha tarjimasida “ieroglif kaliti” maʼnosida Marrning “Yazik I pisma”(“Til va yozuv”) kitobida (1930) uchraydi. Inglizcha determinative – “aniqlovchi” otlashgan sifatlar determine “aniqlamoq” feʼlidan yasalgan. Determine > determinative > determinativ. Bu termin oʻzbek tilida ommalashmagan.



DIABET – (lotincha soʻz) ot, turdosh ot, yasama ot, birlik. XVIII asr oxirida, ehtimol, nemis tili orqali kirib kelgan lotincha termin. Yakovskiyning lugʻatida diabetes (qarang: nemischa Diabites) (1863), Berezinning lugʻatida esa diabet shakllarida qayd etilgan. Lotin tilida paydo boʻlgan diabet aslida yunoncha diabetes “oʻtuvchi” soʻzining oʻzlashmasi. Diabetes nomi kishi tomonidan katta miqdordagi kimyoviy moddalarning

ajralib chiqishi bilan bog‘liq kasalliklarga berilgan: yunoncha diabetes > diabaivw > nemischa diabetes > rus tilida diabetes > rus, o‘zbek tilida diabet (qand kasalligi nomi).



DIAKRITIK – (yunoncha so‘z) sifat, nisbiy sifat, yasama sifat. XIX asrning o‘rtalarida G‘arbiy Yevropa tilshunosligidan o‘zlashgan va 1-marta *Talning* lug‘atida qayd etilgan (1863). Fransuzcha diacritique (signe) lotin tili orqali yunon tilidan o‘zlashgan va “farqlovchi” ma’nosini ifodalagan: yunoncha diakritikos > diakpivw > fransuzcha diacritique > rus, o‘zbek tilida diakritik(belgi).



DIALEKT– (lotincha so‘z) otlashgan ot, turdosh ot. XVII asrda rus tiliga lotin tilidan kirib kelgan, dastlab Smotritskiyning lug‘atida qayd etilgan (1648). XIX asrda “til” ma’nosida qo‘llangan. Uning hozirgi ma’nosi “lahja; sheva” fransuzcha dialecte so‘zi ta’sirida paydo bo‘lgan va shu ma’no bilan Dalning lug‘atida qayd etilgan (1880). Bu so‘z fransuz tiliga lotin tilidan, lotin tiliga yunon tilidan kirib kelgan: yunoncha dialektos “suhbat, til, sheva” > yunoncha dialeyw “farqlayman, tanlayman” (Dia-orasida, o‘rtasida va leyeiv” farqlamoq, tanlamoq” > yunoncha “dialeiyomal” gapiryapman > lotincha dialectus > fransuzcha dialect > rus, o‘zbek tilida dialect.



DIALOG – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot, birlik, bosh kelishik. Rus tiliga XVIII asrning oxirida o‘tgan, dastlab “Moskovskiy jurnali”da qayd etilgan (1791). Fransuzcha dialogue “ so‘zlashuv, ikki yoki undan ortiq kishilarning suhbat” lotin tilidagi dialogus (falsafaga oid suhbat) ga borib taqaladi. Lotincha dialogus yunoncha dialoyocs “so‘zlashuv, falsafiy suhbat” asosida yuzaga kelgan: yunoncha dialoyos > lotincha dialogus > fransuzcha dialogue > rus, o‘zbek tilida dialog.



DIDAKTIKA – (yunoncha so‘z) ot, turdosh ot, yasama ot, birlik, bosh kelishik. Bu so‘z rus tiliga nemis yoki fransuz tilidan XIX asrning boshida kirib kelgan. Dastlab, I.Tateshchivning lug‘atida qayd etilgan. Fransuzcha didaktique, nemischa didaktik, yunoncha didaktikos “qabul qiluvchi” ma’nolarini anglatgan. Shu tildagi didioka “o‘qitmoq” fe’lidan affiksial yo‘l bilan yasalgan.



DIKTANT – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, yasama ot, birlik. Ruscha birinchi marta Burdon va Mixelsonlarning lug‘atida qayd etilgan (1866). Ruscha diktavant fe’li o‘zagiga – ant qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan bo‘lib, “imloga o‘rgatish usuli” ma’nosini anglatadi.



DIPLOM – (yunoncha so‘z) ot, turdosh ot, tub ot, birlik, bosh kelishik. Rus tiliga XVIII asrda fransuz tilidan kirib kelgan. Dastlab buyuk Pyotrning noma va ish qog‘ozlarida uchraydi. Fransuzcha diplome.



DIKTATOR – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot, birlik, bosh kelishik, yasama. Eski slavyan tili orqali lotin tiliga o‘tgan. Lotincha dictator, diktare “buyruq bermoq”, “amr qilmoq” fe’lidan suffiksial yo‘l bilan hosil qilingan. Birinchi marta Klimet Smolyantichning asarlarida uchraydi (XV asr)”. Alfavit inostrannix pechey” lug‘atida (XVII arsdan) “Diktator edinovlastes” shaklida qayd etilgan: lotincha dictare > lotincha dictator > rus, o‘zbek dictator. Diktatura ham shu usul bilan yasalgan.



DIKTOR – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot, yasama ot, birlik, bosh kelishik. Ilk marta Utakavning lug‘atida qayd etilgan (1935). “Dictor” – “gapiruvchi, so‘zlovchi” fe’li asosida yasalgan.

Lotincha dicere “gapirmoq” > lotincha dictor > ruscha, o‘zbekcha diktor (suxandon).



DINOZAVR – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot, yasama ot, birlik. Rus tiliga XIX asrda lotin tilidan kirib kelgan. Berezinning etimologik lug‘atida (1874) dinosaur; Brokgauz va Efronlarning ensiklopedik lug‘atlarida (1893) dinazavr ingliz olimi P.Ouen tomonidan 1841 yilda termin sifatida ishlatilgan. Bu termin yunoncha deivos “qo‘rqinchli, dahshatli, ulkan” va dabros “kaltakesak” asosida yasalgan.



DIREKTOR – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot, yasama ot, birlik, bosh kelishik. Bu so‘z rus tiliga XVII asrda nemis yoki polyak tilidan o‘zlashgan (1702). Polyakcha “dyrektor” ham, nemischa “director” ham lotin tilidan kirib kelgan va dirigere “tartibga keltirmoq, boshqarmoq” fe’lidan hosil qilingan: lotincha dirigeri > lotincha director > fransuzcha directour > nemischa director > ruscha, o‘zbekcha direktor. Direksiya, direktoriya, dirijyorlik qilmoq, direktiva va boshqa so‘zlar shu lotincha fe’l asosida yuzaga kelgan. Lotincha dirijere> lotincha director > fransuzcha directour > nemischa director (boshqaruvchi).



DIRIJABL – (fransuzcha so‘z) ot, turdosh ot, narsa oti, bosh kelishik, birlik. Rus tiliga XIX asrning oxirida kirib kelgan, Brezen va Efronning ensiklopedik lug‘atida qayd etilgan (1893). Fransuzcha dirigeable “dirijabl” < boshqariladigan ballon dirigeable “boshqariladigan aerostat” so‘z birikmasining qisqartma shakli: fransuzcha diriger “boshqarmoq” > fransuzcha dirigeable > ruscha, o‘zbekcha dirijabl.



DIRIJYOR – (fransuzcha so‘z) ot, turdosh ot, yasama ot, birlik. Rus tiliga nemis tili orqali lotin tilidan o‘zlashgan. Birinchi marta Yanovkiyning “Noviy slovotolkovatel” lug‘atida

qayd etilgan (1803). Lotincha dirigere “boshqarmoq”, lotincha dirigens “boshqaruvchi”, ruscha, o‘zbekcha dirijyor.



DIPRESSIYA – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot. XIX asrning oxirida rus tiliga o‘zlashgan. 1891-yilda FA lug‘atida meteorologik termin sifatida qayd etilgan. Ko‘chma ma’noda uni birinchi bo‘lib, Lexanov o‘zining “Za chto nam yego blagodarit” maqolasida (1898) qo‘llagan. Bu so‘z lotincha diprimere “yuqoridan pastga cho‘kkan, bosilgan” > fransuzcha depression “ruhiy buzilish”.



DISPANSER – (fransuzcha so‘z) ot, turdosh ot, yasama ot, birlik, bosh kelishik. XX asrning birinchi yarmida fransuz tilidan rus tiliga o‘zlashgan. Dastlab, “Slovar nauchnix i texnicheskix terminov” da uchraydi.

Fransuzcha dispensaire (1835) “dipanser” ingliz tilidagi dorixona (kambag‘allar uchun bepul) ma’noli dispensary so‘ziga borib taqaladi. Inglizcha to dispense “pozdavat, vidavat, taqsimlamoq” > inglizcha dispensary > fransuzcha dispensaire > o‘zbekcha, ruscha dispenser.



DISPETCHER – (inglizcha so‘z) ot, turdosh ot, birlik. XX asrning birinchi yarmida rus tiliga ingliz tilidan kirib kelgan. Birinchi marta Aseevning “Semen Proskakov” poemasida qayd etilgan. Inglizcha dispatcher “dispetcher, jo‘natuvchi” dispatch “jo‘natmoq” fe’lidan suffiksial yo‘l bilan hosil qilingan. Bu fe’l italyan tilidagi dispaccier “jo‘natmoq”, u ham, o‘z navbatida, lotincha dispactiare jo‘natmoq (dis + pactiare), lotincha pactum “kelishuv, bitim”+ yasalgan pactare fe’liga borib taqalgan. Lotincha dispactiare > lotincha pactum > lotincha pactare > inglizcha dispatcher > o‘zbekcha, ruscha dispetcher.



DISSERTATSIYA – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot, yasama ot, birlik, bosh kelishik. Rus tiliga XVIII asrda polyak

yoki nemis tilidan kirib kelgan, Birinchi marta Sumarakovning “Chudovitsa” poemasida qayd etilgan. Nemis tiliga borib taqaladi. Dissertation ham, polyakcha dysertacja ham lotincha “tadqiqot, muhokama” soʻzlaridan yasalgan. Lotincha dissertare “tushuntirmoq”, “muhokama qilmoq” > lotincha dissertation “tadqiqot, muhokama” > nemischa dissertation > polyakcha dysertacja > oʻzbekcha, ruscha dissertatsiya.



DIFTONG – (lotincha soʻz) ot, turdosh ot, yasama ot, birlik, bosh kelishik. Rus tiliga XVI asrda lotin tilidan kirib kelgan. Dastlab Maksim Grekning yunon alifbosi haqidagi maqolasida qayd etilgan. Diffong (a) shakli yunon tilidan olingan degan fikr ham bor (ESRYA 1973, 139). Lotincha dihfongus “diftong” yunoncha difvoyyos – soʻzma-soʻz, ikki xil jaranglash. Bu soʻz dis “ikki marta” ravishi va dvoyyos “tovush, ovoz” dan yasalgan. Yunoncha difvoyyos > lotincha diphtongus > oʻzbekcha, ruscha diftong.



DIYOR – (arabcha soʻz), ot, turdosh ot, oʻrin-joy oti, birlik, bosh kelishik, yasama (dara > dar > diyar > diyor). Bu ot yashash joyi maʼnosini anglatuvchi “dar” soʻzining koʻpligidan yasalgan. Diyor soʻzi “tugʻilib oʻsgan yurt, mamlakat” kabi maʼnoni anglatadi (OʻTEL, Sh. Raxmatullayev, 108).

DIYOR. 1. Mamlakat, yurt, oʻlka. M: *Diyorimizda bir – biridan goʻzal, orombaxsh va shifobaxsh maskanlar juda koʻp.*

2. Yashash joyi, maskan. M: *Choʻponlar diyorida odamning qadri nihoyatda baland ekanini hirotliklar payqab oʻtirishardi.*

3. Koʻchma maʼno. Biror narsa koʻp boʻlgan, koʻp yetishtiriladigan joy. M: *Tilda doston Fargʻona – ipak paxta diyori* (OʻTIL, 608).



DOLLAR – (nemischa soʻz) ot, turdosh ot, birlik, bosh kelishik. XIX asrda ingliz tilidan rus tiliga oʻtgan va birinchi marta “Ensiklopedicheskiy leksikon”da qayd etilgan (1835). Inglizcha dollar nemischa taler “taler” ga borib taqaladi. Taler

Joachim staler (Joachim – Bogemiya (Joachimstal) vodiysi nomining qisqartma shakli: Bogemiya shaxtalarida taler – tanga uchun kumush qazib olingan.



DONOR – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot, yasama ot, birlik, bosh kelishik. XX asrning boshida rus tiliga ingliz tilidan o‘tgan. Dastlab, BSE da qayd etilgan (1931). Inglizcha donor “sadaqa qiluvchi”, lotincha donare “bermoq, in‘om etmoq” fe‘lidan yasalgan. Fransuzcha donneur “beruvchi”. Bu so‘z qon beruvchiga nisbatan ishlatiladi. Fransuzcha donnour > inglizcha donor > o‘zbekcha, ruscha donor “qon beruvchi kishi”.



DOVON – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, birlik, bosh kelishik, aniq ot, yasama (daba +n =daban > davan > dovon). Bu ot eski o‘zbek tilida “tog‘dan oshib o‘t” ma‘nosini anglatgan daba fe‘liga -n qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan. Keyinchalik b undoshi v undoshiga, a unlisi o unlisiga aylangan (Sevortyan, III, 112).

Dovon. 1.Tog‘ yoki tepalikning baland, ammo oshib o‘tsa bo‘ladigan qulay joyi, oshuv. M: *Arpasiz ot dovon osholmas.*

2.Ko‘chma ma‘noda. Keyingi ish va yutuqlarga yo‘l ochib beradigan ulkan ish; erishilgan yoki erishilajak qiyin marra. M: *Oila qurish naqadar yuksak dovon ekanini Mahkam endi birinchi marta his qilmoqda edi.*

3. Ko‘chma ma‘no. Xayoliy, ruhiy marra, maqsad, intilish. M: *Ey ko‘nglim, olamdan suyunchi so‘ra, Dovonlar, tog‘lardan yelday uchib o‘t.*

Dovon – to‘quvchilarning ishxonasida ikki ustunning tepa oralig‘iga o‘rnatilgan va ustidan uchiga tosh bog‘langan tanda oshirib qo‘shiladigan yog‘och g‘altak (O‘TIL, 633).



DOVUD – (yahudiycha so‘z) ot, atoqli ot, shaxs nomi. Qur‘onda nomi zikr qilingan, “Bani Isroil” qavmidan chiqqan payg‘ambarlardan biri. Miloddan avvalgi ikkinchi asrda Isroil va Iudeyani birlashtirib, yagona yahudiy davlatini tuzgan podsho.

Dovud mahal so‘z eshitti ersa, sabr qilmadi.

(Rabg‘uziy. “Qisasul – anbiyo”. T.:// Yozuvchi, 1991, 29-b)



DRAMA – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot, yasama ot, birlik, bosh kelishik. XVII asr oxirida lotin tilidan rus tiliga o‘tgan (1697). Lotincha drama yunoncha drama “sahna asari”ga borib taqaladi. U ham o‘z navbatida yunoncha drav “qilmoq, harakat qilmoq” fe‘liga borib taqaladi. Yunoncha drav > yunoncha drama > fransuzcha drame > o‘zbekcha, ruscha drama.



DUXI – (fransuzcha so‘z) ot, turdosh ot, narsa oti, birlik, bosh kelishik. Fransuzcha parfum so‘zining kalka yo‘li bilan qilingan semantik tarjimasi: duxi. Rus tilida XVIII asr oxirida paydo bo‘lgan. Birinchi marta Bogdamovichning “Dushenka” hikoyasida qo‘llangan (1775).



DUEL – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot, birlik, bosh kelishik. Nemis yoki Pyotr I davrida bevosita lotin tilidan o‘zlashgan. Birinchi marta “Deystvie o knyaze Pyotre zlatix klyuchevga duel (XVIII asr boshi) Kurchanovga duel (1769) shakllarida uchraydi. Nemischa duell “yakkama yakka kurash, ikki kishining jangi” duel asosida yuzaga kelgan. Ikkalasi ham lotincha duellum “kurash”, lotincha bellum “ikki kishining kurashi”, keyin “urush, jang” ning arxaik shakli: lotincha duo “ikki” > bellum > duellum > fransuzcha duel > nemischa duell > o‘zbekcha, ruscha duel.



DUO – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik. Iltijo, chaqirish, so‘rash. Xudodan orzu-umidlarining amalga oshishi, mushkullarning oson bo‘lishini so‘ramoq. M: “Duo” so‘zi arabcha bo‘lib, o‘zbekchada so‘rash ma’nosida qo‘llanadi, atama sifatida esa kishining barcha hojatlarni yaratgan zotdan so‘rashdir (Hidoyat. T., 2009/10, 28-b).



EGA – (turkiycha soʻz), ot, turdosh ot, birlik, aniq ot, bosh kelishik, yasama (iya > iga > ega). Bu ot qadimgi turkiy tilda iya tarzida talaffuz qilingan. Iya soʻzi “egalik qil” maʼnosini bildirgan “iy” feʼliga -a qoʻshimchasini qoʻshish bilan yasalgan (Sevortyan, I, 240).

Ega. 1. Uy-joy, mol-mulk va shu kabilar qarashli boʻlgan shaxs. M: Itning feʼli egasiga maʼlum. 2. Yurt, el kabi soʻzlar bilan qoʻllanib, shu soʻzlar anglatgan joyning boshqaruvchisi, boshligʻi maʼnosini bildiradi. M: *Otajon, sendirsan yurtning egasi*. 3. Shaxs yoki narsada oʻzi birikib kelgan soʻz anglatgan narsaning bor, mavjud ekanini bildiradi. M: *Barcha qulayliklarga ega boʻlgan binolar qad rostladi* (OʻTIL, 18).



EGRI – (turkiycha soʻz), sifat, asliy sifat, xususiyat bildiruvchi sifat, oddiy daraja, yasama (en > eg + ir = egir +i = egiri > egri). Bu sifat qadimgi turkiy tildagi “yuqoridan pastga qayir” maʼnosini anglatgan “en” feʼlining “eg” shakliga -ir orttirma nisbat qoʻshimchasining qoʻshilishidan hosil boʻlgan soʻzga -i qoʻshimchasi qoʻshilib yasalgan. “Devoni lugʻoti turk”da aytilishicha, keyinchalik -i qoʻshimchasi qoʻshilganidan keyin ikkinchi boʻgindagi tor unli talaffuz qilinmay qoʻygan (Sevortyan, I, 332).

Egri. 1. To‘g‘ri chiziq bo‘ylab yo‘nalmagan; *qiyshiq, qing‘ir*. M: *Azim tollarning egri shoxlaridagi shokila-shokila popuklar yo‘lovchilarni salqinga chaqira boshladi*.

2. Haqiqatga zid; noto‘g‘ri. M: *Endi to‘g‘ri tanqiddan egri xulosa chiqarish odatingizni tashlang*.

3. Xatti-harakat, gap-so‘z va sh.k jihatdan axloq-odob, qonun-qoida me‘yoriy talablariga zid bo‘lgan, shunday ish tutadigan; nomaqbul, nojo‘ya, chakki. M: *O‘zi to‘g‘ri bo‘lmagan odam boshqalarga ham egri ko‘z bilan qaraydi* (O‘TIL, V, 21).



EHSON – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot. Alloh roziligi yo‘lida va Allohdan savob umidida qilingan yaxshi, xayrli ishlar. Ehsan ikki xil: moddiy va ma‘naviy bo‘ladi. Muhtojlarga qilingan xayr-sadaqalar, ularga berilgan narsalar moddiy, o‘zgalarga yaxshi munosabatda, xushmuomalada, shirinso‘z bo‘lish esa ma‘naviy ehsondir.

Payg‘ambarimiz (s.a.v.) marhamat qilganlar: “Quyosh balqigan har bir kunda ikki kishining orasini isloh etishingiz ehsondir. Bir kishiga ulovga minishda yordam qilishingiz ehsondir (Mutafaqun alayh. Hidoyat. 2009/1,1-b).



EKIN – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, narsa oti, bosh kelishik, yasama ot (ek +in = ekin). Bu ot qadimgi turkiy tilda “o‘stirish uchun urug‘ sep” ma‘nosini anglatgan “ek” fe‘liga -“in” qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan (Sevortyan, I, 252).

Ekin – 1. Hosil olish uchun ekilgan har qanday unib-o‘sgan o‘simlik.

M: *Ekinlarni sug‘ormoq*.

2. Dala va bog‘larda bitadigan o‘simliklarning turi, xili. M: *G‘alla ekinlari. Poliz ekinlari* (O‘TIL, 25).



EL – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, jamlovchi ot, birlik, bosh kelishik, tub (i:l>il >el). Bu ot qadimgi turkiy tilda

qo‘llanib, “ma’lum yurtda birgalikda yashovchi aholi”, “yurt” ma’nosini anglatgan (Sevortyan, I, 340).

El. 1. Bir joyning odamlari, aholisi, xalqi; umuman ko‘pchilik odam xaloyiq, hamma. M: *U erining qilmishidan el oldida boshini xam qilib yurardi.*

2. Bir yurtga, qabilaga mansub odamlar; millat xalq. M: *Shifokorlik kasbini ulug‘lash, elga sidqidildan xizmat qilish, kishilarning dardiga davo topish oliyjanob ishdir.*

3. Yurt, diyoy, mamlakat. M: *Har kim elida, o‘rdak ko‘lida* (O‘TIL, 29).



ELAT – (turkiycha so‘z), ot, turdosh ot, jamlovchi ot, birlik, bosh kelishik, yasama (el +at = elat). Bu so‘z “el” otiga jamlik ma’nosini ifodalovchi -“at” qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil bo‘lgan. Bu so‘z “bir urug‘ – qabilaga mansub kishilar”, “qabilalar birlashmasi” degan ma’nolarni ifodalaydi. M: *O‘zbek elati XI asrda shakllangan* (Sevortyan, I, 343).

Elat. 1. Kishilarning millat shakliga kelmasdan oldingi tarixiy birligi.

M: *Ko‘pdir mamlakatda ellar, elatlar.*

2. El, el – xalq, qabila. M: *Qabila boshlig‘i Oltinoy o‘z elatining to‘q, tinch bo‘lishi uchun hamisha qayg‘urarkan.*

3. Bir joyli yoki bir qabilaga, uruqqa mansub kishilar (bir-biriga nisbatan). M: *Bu kishi mening elatim.*

4. Yurt, diyoy; mamlakat. M: *El sevgan kishi elatga oqsoqol bo‘ladi* (O‘TIL, V,31).



ENCHI – (turkiycha so‘z), ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, narsa oti, yasama (i:n > en +chi = enchi). Bu so‘z qadimgi turkiy tildagi “taqsimlashda tekkan ulush” ma’nosini anglatgan “i:n” otining “en” shakliga kuchaytirish ma’nosini ifodalovchi -chi qo‘shimchasi bilan yasalgan. Enchi so‘zi “ota turmushga chiqqan qiziga farzandli bo‘lganda beradigan ulushi” (Sevortyan, I, 362).

Enchi – ota tomonidan farzandiga ajratib berilgan jonivor,

bosh mol.

M: *Uning Alpomishga enchi bir tarlon biyasi bor edi* (O‘TIL, V, 42).



ERKA – (turkiycha so‘z) sifat, asliy sifat, oddiy daraja, yasama (erk + a = erka). Bu sifat qadimgi turkiy tilda “ozodlik, huquq” ma’nosini anglatuvchi “erk” otiga -“a” qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan (Sevortyan, I, 297).

Erka. 1. Mehr, suyish hissi bilan munosabatda bo‘linadigan; suyukli. M: *Erka qizcha bilan mehribon otaning o‘rtasiga rahna solish johillik.*

2. Ko‘ngliga kelgan ishni qilish uchun ixtiyor berib qo‘yilgan, taltaytirib yuborilgan, tantiq. M: *Munis tengqurlariga o‘xshamasdi: juda erka edi, serjahl edi.*

3. Erkalik, suyimlilik, ifodalovchi. M: *Yolg‘onchi ekansiz - dedi u yana erka tovushda.*

4. Erka – erkaklar va xotin-qizlar ismi (O‘TIL, 48).



ERTAK – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, narsa oti, yasama (ert + ak = ertak). Bu so‘z qadimgi turkiy tildagi “o‘t”, “kech” ma’nosini anglatgan ert fe‘liga -ak qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan (Sh.Raxmatullayev, O‘TEL, 469).

ERTAK. 1. Xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri to‘qima va uydurmaga asoslangan, sehrli sarguzasht va maishiy mazmundagi epik badiiy asar. M: *Ertak aytmoq.* 2. Hikoya, qissa, voqea. M: *Unsin hamma voqeani akasi bilan Gulorning sevgi ertagini kampiridan to‘la eshitdi* (O‘TIL, V, 52).



ESKI – (turkiycha so‘z) sifat, asliy sifat, oddiy daraja, tarixan yasama (eg + si = egsi >eksi >eski). Bu so‘z qadimgi turkiy tilda qo‘llangan “nuqson, kamchilik” ma’nosini anglatgan “eg” otiga o‘xshash ma’nosini ifodalovchi -“si” qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan (DS, 168).

Eski. 1. Yangilik sifati ketgan, yaroqlilik darajasini ma'lum darajada yo'qotgan. M: *Yangini eski saqlar.*

2. Ko'hna, ko'p vaqtlardan beri ma'lum bo'lgan, ko'p vaqtdan beri turgan. M: *Toshkentning eski va yangi shaharlarida to'plab sotuvchi ikki gazlama do'koni unga qaraydi.*

3. O'tgan vaqtga oid, avvaldan ma'lum, o'tgan. M: *Hozir eski zamon emas, bunaqa narsalarning unchalik ahamiyati yo'q.*

4. Avval ham bo'lgan, eskidan ma'lum. M: Avazning eski qadrtoni Hasan qayg'ichi xon amaldorlari haqida ichakuzdi hangomalar aytardi.

5. Eski usuldagi; eskicha. M: *Eski to'yga borgani nomus qilaman.*

6. Iste'moldan chiqqan, eskirgan yoki bekor qilingan. M: *Eski alifbo. Eski pul.*

7. Kopni ko'rgan, hayot tajribalariga ega bo'lgan, ko'pdan ma'lum bo'lgan. M: *Yurgan joyi necha tog' –u dasht ekan, Eski kishi ko'p odamga bosh ekan (O'TIL, V, 55).*



ETIK – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (et + uk = etuk >etik). Bu ot qadimgi turkiy tildagi “kiy” ma'nosini anglatgan “et” fe'liga “-uk” qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan. Bu ot datslab “yumshoq charmdan tikilgan oyoq kiyim” ma'nosini anglatgan, keyinchalik oyoq kiyimining ma'lum bir turini bildiradi boshlagan (Sevortyan, I, 321); (DLT, I,98).

Etik. 1. Boldirni bekitib turadigan uzun, qo'njli, poshnali poyabzal.

M: *Amirkon etik. Ag'darma etik. Kirza etik (O'TIL, 61).*



EZGU – (turkiycha so'z) sifat, nisbiy sifat, oddiy daraja, yasama (ez + go' = ezgo' >ezgu). Bu sifat qadimgi turkiy tildagi “yaroqli bo'l”, “munosib bo'l” ma'nosini anglatgan “es” fe'liga – “go'” qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan (Sevortyan, I, 247).

Ezgu – yaxshilik baxsh etuvchi; ezgulik keltiruvchi, xayrli.

*M: Ozodlik haykali qoshiga bu on,
Ezgu o'ylarimni olib keldim men (O'TIL,20).*



ESHON – (fors-tojikcha so‘z) so‘fiylik oqimlarida diniy rahnamolar unvoni.Ot, turdosh ot, shaxs oti. Sofiylik tariqatlaridan biriga mansub kishilarga “eshon”, “pir” so‘zlari qo‘shib ishlatiladi. Eshonlar o‘z muridlarini so‘fiylikka o‘rgatuvchi murshidlardir.

M: Jahongir eshonning valiyligini sinash uchun qo‘shni qishloqdan bir guruh odamlar uning huzuriga borishmoqchi bo‘ladilar (B.Eraliyev va boshqalar., O‘zbekiston ziyoratgohlari va qadamjolari. T.:// Turon Zamin Ziyo, 2014, 156-b.).



ESHIK – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (i:sh+ik=i:shik >eshik). Bu ot qadimgi turkiy tildagi “i:sh” fe‘lining “bog‘la” ma’nosidan -ik qo‘shimchasi bilan yasalgan (Sevortyan, I,396).

Eshik. 1.Uy, xona, bino yoki hovlining kiraverishida o‘rnatiladigan, ochib-yopib turiladigan qurilish buyumi.M:*Eshikni taqillatmoq.*

2.Umuman, odam, jonivor, narsalar joylashadigan qurilma, moslamalarning kirib-chiqiladigan, ochilib-yopiladigan qismi.

M: Mashinaning eshigi. Samalyotning eshigi.

3. Shevaga xos so‘z. Hovli, uy-joy; xonadon. M: *Eshigimda juda ko‘p odamlar ishlagan.*

4. Tashqari, tashqi maydon, ko‘cha. M: Eshik sovuq.

5. Ko‘chma ma’noda. Bir maqsadga, yerga yetishish, erishish yo‘li, imkoniyat yo‘li. M:Baxt eshigi ko‘rinib turibdi (O‘TIL,64).



ECHKI – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (echko‘< echki). Qadimgi turkiy tilda qo‘llangan bu so‘z asli echko‘ tarzida talaffuz qilingan (DLT, I,149).

Echki – 1.Quvur shoxlilar oilasiga mansub, kavsh qaytaruvchi

juft tuyoqli sut emizuvchi hayvon. M: *Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko‘r* (O‘TIL, 63).



E‘TIQOD – (arabcha so‘z) dunyoqarash, ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik. Biror dinga e‘tiqod qilish, uni haq, deb bilib, uning ta‘limotini tan olish. Allohning kalomi haqiqiy ekanligiga astoydil ishonish, iymonning uch unsurlaridan biri. Eng yaqin turadigan tasdiq bo‘lib, Alloh va Uning Qur‘on orqali yetkazgan so‘zlari haqiqiy ekanini chin qalbdan e‘tirof etish.

M: *“Iymon keltirish vojib narsalar bayoni”*, - *“Islom arkonlari”*, *“Islomda e‘tiqod qilinadigan narsalar”* boblarida bayon etilgan fikrlar har bir mo‘min-musulmon uchun dasturilamal bo‘lgan aqidaviy masalalarga bag‘ishlangan (Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Aqoid ilmi.T.:// Sharq, 2011,341-b.).



FAN – (arabcha so‘z) ot, mavhum ot, turdosh ot, birlik, bosh kelishik, (fann<fan). Bu so‘z ko‘p ma‘noli fannana fe‘lining “tasnifladi” ma‘nosi asosida hosil qilingan bo‘lib, arab tilida “san‘at”, “mahorat”, “kasb”, “ilm”, “texnika”, “soha” ma‘nolarini anglatadi (ARS,610).

Fan. 1. Tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib beruvchi hamda o‘zi erishgan natijalar bilan atrof muhitga ta‘sir ko‘rsatuvchi bilimlar tizimi. M: Har bir fanning o‘ziga xos siri va sehrlilari bo‘ladi.

2.Shunday bilimlar tizimining alohida tarmog‘i, yo‘nalishlari, sohalari.

M: Aniq fanlar, ijtimoiy fanlar, tabiiy fanlar (O‘TIL, 324).



FAOL – (arabcha so‘z) sifat, asliy sifat, oddiy daraja, yasama, (fa’al < faal < faol). Bu sifat “biror ish, amalni bajardi” ma’nosini anglatuvchi fa’ala fe’lidan yasalgan (UAYA,499).

Faol. 1. Biror g‘oyaviy harakat yoki ishga g‘ayrat bilan astoydil kirishadigan, ishchan. M: *Normurod faol bir ishchi bo‘lsa ham, soddagina bir odam, undan har sirni olish mumkin.*

2.Biror jamoaning ijtimoiy hayotida, faoliyatida astoydil, berilib ishlaydigan shaxs, jamoatchi. M: *Qishloq faollari katta to‘ylardagi singari gurs-gurs yer bosib, yelib yurishibdi.*

3.Harakatchan, ko‘p harakat qiladigan. M:*Nutqning faol a‘zolari.*



FASL – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub (faslun<fasl). Bu ot “qismlarga ajratdi” ma’nosini anglatuvchi “fasala” fe’lidan kelib chiqqan (ARS,598).

Fasl. 1. Bir yilni tashkil etadigan to‘rt mavsumning biri (qish, bahor, yoz,kuz). M: *Har faslning o‘z xislati bor.*

2.Eski tilda.Asarning biror bobi, qismi. M: *Kitob to‘rt fasldan iborat.*

3.Ko‘chma ma’no. Vaqt, muddat, davr.

M: *O‘t solasan qalbinga, ey gul,*

Sevgi fasl tanlamas ekan.



FAQIR – (arabcha so‘z) sifat, asliy sifat, oddiy daraja, yasama, (faqara < faqir). Bu sifat arab tilida”qashshoq holatga keltirdi” ma’nosini bildiruvchi faqara fe’lidan yasalgan. Bu so‘z o‘zbek tilida “qashshoq” ma’nosini anglatadi (ARS, 604).

Faqir – 1.Moddiy jihatdan nochor, kambag‘al, qashshoq; muhtoj.

M: *Amirning oshidan faqirning mushti yaxshi.*

2.Birinchi shaxs o‘rnida yoki “men”, “biz” olmoshlari bilan birgalikda ishlatilib, so‘zlovchining kamtarlik qilayotganini

ifodalaydi. M: *Faqiringiz vijdonim buyurgan gapni aytdim.*

3.Ko'chma ma'noda. Nochor, bechora, chorasiz. M: *Kichik, faqir bir uy* (O'TIL, 337).



FARZ – (arabcha so'z) majburiyat, ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik. Farzni ado etmoq bandalar uchun shart. Qur'on oyati bilan sobit bo'lgan amal. Farz amalini qilgan odamga savob beriladi, qilmagan kishiga iqob – azob beriladi. Farzligini inkor qilgan odam, agar inkorida qat'iy tursa, kofir bo'ladi. 1.Farzi ayn – har bir musulmon bajarishi shart bo'lgan farz.2. Farzi kifoya – bir yoki bir necha kishining ado etishi bilan boshqalardan soqit bo'ladigan farz.

Tayammum farzi ul bo'ldi niyat,

Ilik tufroqqa urmak ikki navbat

(Alisher Navoiy. Sirojul – muslimiyn. T.://Minhoj, 1992, 18-b).



FARISHTA – (arabcha so'z) malak, maloika. Ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik. Nurdan yaratilgan, nafs va xohishga ega bo'lmagan, faqatgina unga xudo tomonidan buyurilgan muayyan vazifalarni og'ishmay bajaradigan, insonlar ko'ziga ko'rinmaydigan maxluq.

M: *Alloh taolo farishtalarni nurdan yaratib, ularga aql berdi. Lekin nafs-u havo hamda shahvoniy his-tuyg'u bermadi*

(Abdulaziz Mansur. Tavba// Islom nuri, 1997, 2-son).



FE'L – (arabcha so'z) ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, yasama (fa'ala < fi'l < fe'l).

Bu so'z arab tilida “biror ish, amalni bajardi” ma'nosini anglatuvchi “fa'ala” fe'lidan hosil qilingan. Arab tilida fe'l so'zi “ish”, “amal”, “nojo'ya xatti-harakat” ma'nolarini anglatadi (ARS,603; ARG, 142).

Fe'l. 1.Kishi xarakterini tashkil etuvchi ruhiy xususiyatlar va undan yuzaga keluvchi xatti harakatlar majmui; xulq, xarakter, xulq-atvor. M: *Har kim fe'liga yarasha olar.*

2.Insonning ma'lum paytdagi ruhiy holati, kayfiyati, avzoyi. M:*Shunday fe'li buzildiki, xudodan ham xafa bo'lib ketdi* (O'TIL,

341).



FIKR – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, tub (fikr -un < fikr). Bu arabcha so‘z fikrladi ma’nosini anglatuvchi fakara fe’lidan o‘sib chiqqan. Arab tilida fikr so‘zi “fikrlash jarayoning mahsuli” ma’nosini anglatadi (ARS,606; ATG, 142).

Fikr – 1.Biror narsa yoki kimsa haqida o‘y – xayol. M: *Fikri ravshanning, so‘zi ravshan.*

2.Fikr – taklif, maslahat, niyat kabi ma’nolarni anglatadi. M: Fikr tarbiyasi – eng oliy tarbiya (O‘TIL, IV, 344).



FIRAVN – (misrcha so‘z) bu so‘z misrcha “pero” so‘zidan olingan bo‘lib, “Shoh saroyi” (“Ulut uyi”) ma’nolarini anglatgan. Ot, atoqli ot. 1. Muso davrlarida Misr podshohi Ramzes Ikkinchining nomi. U nihoyatda zolim hukmdor bo‘lgan, xudolikni da’vo qilgan. Allohning g‘azabiga uchrab, butun qo‘shini bilan dengiz qa’riga g‘arq bo‘lgan. 2.Qadimgi misr podshohlari mansabi.

M: *Muso va Horun farmoni ilohiyga labbay, deb itoat etib, zolim Fir’avnni hidoyatga da’vat qilish uchun uning huzuriga keldilar*

(Shayx Zohidxon Qodir Otaxon o‘g‘li. Payg‘ambarlar qissasi. T.://Qomuslar bosh tahririyati, 1993, 62-b.).



FITR-SADAQA – (arabcha so‘z) og‘iz ochish sadaqasi. Ot, turdosh ot, mavhum ot, juft ot. Fitr sadaqasi ramazon oyi yakuni bilan bog‘langan sadaqa bo‘lib, u oy davomida tutilgan ro‘zaning Alloh taolo dargohida qabul bo‘lmog‘i uchun, ana shu davrda bilib-bilmay yo‘l qo‘yilgan xato-nuqsonlardan poklanish uchun beriladi. Ikki kg. bug‘doy yoki shuning qiymatiga teng narsa bilan belgilanadi va yilda bir marta amalga oshiriladi.M:*Fitr sadaqasi ham moliyaviy ibodatdir. Fitr sadaqasining vojib bo‘lishi vaqti ramazon hayiti kunining tongidir* (Hidoyat. T., 2009/9, 4-b).



FOTIHA – (arabcha so‘z) – ochmoq, boshlamoq. Ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik. 1. Qur’oni karimning birinchi surasi nomi. Makka va Madinada ikki marta nozil bo‘lgan, yetti oyatdan iborat. 2. Qur’onning qisqa suralaridan birini tilovat qilib o‘qiladigan duo.



FOSIQ – (arabcha so‘z) yo‘ldan adashgan, axloqsiz. Sifat, asliy sifat, oddiy daraja, tub sifat. Ilohiy amrlarga itoat qilmay, Islom dini majburiyatlarini ado etmaydigan, din va shariat qoidalarini bajarmaydigan kishi.

Fosiqdan hayo tilama, zolimdan vafo.

(Alisher. Navoiy. Mahbubul – qulub. T.://G‘.G‘ulom nashriyoti. 1983, 91 –b.)



FOIZ – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik (fa’iz – un < fa’iz < foiz). Foiz so‘zi arab tilidagi faza fe’lining “o‘ldirdi” ma’nosi asosida hosil qilingan bo‘lib, asli “me’yordan ortiqcha bo‘lgan ma’nosini anglatadi, keyinchalik bu so‘z “prosent” ma’nosini anglatish uchun ishlatilgan (ARS, 616).

Foiz. 1. Biror son yoki miqdorning yuzdan bir hissasi, ulushi (% belgisi bilan ifodalanadi). M: *Korxonamizdagi xizmatchilarning ellik foizi- xotin-qizlar.*

2. Qarzga olgan puldan foydalanganlik uchun pul egasiga to‘lab turiladigan haq, foyda. M: *Yaqinda bir million sakkiz yuz ming so‘m pulini olti foiz foydasi bilan bankdan oldi.*

3. Daromadga qarab to‘lanadigan yoki olinadigan hissa (O‘TIL, IV, 353).



FOYDA – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, yasama (fa’idat < foyda). Bu so‘z arab tilida “foydali bo‘ldi ma’nosini anglatuvchi fada fe’lidan yasalgan asliy sifat fa’id(un) so‘ziga -at (un) qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan (UAYA, 500).

Foyda. 1. Biror kimsa yoki narsa uchun bo‘ladigan naf, manfaat; ijobiy natija. M: *Yolg‘on aytib, foyda ko‘rsang, oxiri*

zarar toparsan. 2. Qilingan xarj bilan olingan daromad o‘rtasidagi farqdan tashkil topgan mablag‘; daromad. M: *Menimcha, tijorat paydo bo‘lgan zamondan boshlab bunday mo‘l foydani hech kim ko‘rgan emas* (O‘TIL, IV, 353).



FURSAT – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik (fursat (un) < fursat). Bu arabcha so‘z “qulay paytdan foydalandi” ma’nosini anglatuvchi farasa fe’lidan o‘sib chiqqan (ARS, 590).

Fursat - Biror ishni bajarish uchun eng qulay vaqt, payt. M: *Hasratlashishga qulay fursat tug‘ildi* (O‘TIL,IV,367).



FUQARO – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik (fuqaro‘u < fuqaro). Bu so‘z asli faqir so‘zining ko‘plik shakli bo‘lib, arab tilida “qashshoqlar” ma’nosini bildiradi (ARS,605).

Fuqaro. 1. Biror mamlakatning doimiy muayyan yuridik huquqlarga ega bo‘lgan aholisi. M: *O‘zbekiston fuqarosi.*

2.Umuman, oddiy xalq, omma. M: *Kelgan mahsulotning narxi esa oddiy fuqaro hamyonini chaqadi.*

3. Oddiy, qashshoq qora xalq vakili. Fuqaro bosh egib kiradigan qiyshiq eshik, guvala devorini eplab olsa ham katta gap (O‘TIL, IV,369).



GAZETA – (italyancha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlikda, bosh kelishikda (gazza>gazetta>gazette>gazeta). Gazeta so‘zi Pyotr I davrida fransuz tilidan kirib kelgan. Fransuz tilida gazette, italyan tilida gazetta, ya‘ni “ikki soldi miqdoridagi chaqa (moneta) ma‘nosini anglatgan. Bu so‘z Venetsiyada 1563-yilda paydo bo‘lgan. Italyanча gazetta so‘zi “gazza”-“hakka” so‘zining suffiks yo‘li bilan yasalgan shakli. Italyanча gazza > italyanча gazetta > fransuzча gazette > rus, o‘zbek tilida gazeta.

Gazeta – 1. Hayotning turli sohalariga oid voqea-hodisalarni yoritadigan, shuningdek, siyosiy-ijtimoiy va ilmiy-ommabop maqolalar bosiladigan vaqtlı nashr. M: *Kundalik gazeta* (O‘TIL, I, 476).



GALSTUK – (nemischa so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik (hals + tuch = halstuch). Bu so‘z nemis tilida “boyin” ma‘nosini anglatuvchi “hals” va ro‘mol ma‘nosini anglatuvchi “tuch” so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Dastlab, “bo‘yinga bog‘lab yuriladigan ro‘mol” ma‘nosini ifodalagan (Manba).

Galstuk – Ko‘ylak yoqasi ostidan o‘tkazib, oldini tugun yoki bant qilib taqiladigan mato; bo‘yinbog‘).M: *Qodirning ko‘ylagi oq, galstugi ko‘k ekan.*

Galstuk – ot, birlik. Pyotr I davrida nemis tilidan o‘zlashgan. Nemischa halstuch > rus, o‘zbek tilida galstuk(bo‘yinbog‘).



GAVDA – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik (govde < govda < gavda). Bu so‘z turkiy tilda “jussa”, ”tana” ma’nosini anglatgan “go‘gde” so‘zidan o‘sib chiqqan (Sevortyan, III, 53).

Gavda – 1.Inson yoki hayvon tanasining umumiy ko‘rinishi; jussa, qad. M:*Qiz semiz gavdasiga yarashmagan epchillik bilan lip etib oldinga o‘tdi* (O‘TIL,472).



GERB – (polyakcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (herb <erbe <gerb). Bu so‘z polyak tilida “herb”, nemis tilida “erbe” – “me’ros” so‘zidan olingan (Ziyo net).

Gerb – biron bir mamlakat yoki hududning siyosiy va tarixiy harakterdagi g‘oyalari majmuasini, o‘ziga xos tabiiy va xo‘jalik xususiyatlari, tabaqaviy tafovutlarini, shaxs, urug‘ shajaralarini ifodalovchi ramziy belgi.

M: *O‘zbekistonning davlat gerbi.*

Gerb – davlat, shahar, tabaqa, urug‘ va sh.k.ning bayroq, pul, muhr kabilarda tasvirlangan alohida farqli belgisi (O‘TIL, 495).



GUMROH – (tojikcha so‘z) sifat, asliy sifat, oddiy daraja. Bu sifat yo‘qolgan ma’nosini anglatadigan tojikcha gum sifatiga “yo‘l” ma’nosini anglatadigan tojikcha roh otini qo‘shib tuzilgan bo‘lib, “yo‘ldan adashgan” ma’nosini anglatadi.

Yetar rahmat suvi ko‘k kavkabiyna,

Yetushmas qatrae gumroh labiyna

(So‘fi Olloyor. Sabotul – ojizin. T.:Mehnat, 1991, 8-b).



GUNOH – (forscha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, tub ot. Gunoh, ayb degan ma’nolarni anglatadi, asli shu ma’nodagi arabcha “junoh” so‘zidan olingan. Diniy tushuncha. Diniy aqidalarga xilof ish yoki xatti-harakatni bildiradi. Gunoh tushunchasi qadimda turli taqiqlarni buzuvchi,

axloqsiz odamning harakati ma'nosida qo'llanilgan. Gunoh tushunchasi barcha dinlarga xos. Ularning hammasida gunoh ishlar qoralanadi. 1. Diniy tasavvurlarga ko'ra, yovuz kuchlar va yovuz niyat ta'sirida insonning ilohiy ko'rsatmalarni bajarmasligi yoki buzib, chala bajarishi, din va diniy marosimlarni buzishga qaratilgan harakat.

2. Jinoyat, ayb. Shariat qoidalariga yoki diniy aqidalarga xilof amallar.

M: *Maningdek osiy bo'lg'aymu jahonda,
Gunohim zohirimdin ko'p nihonda*

(S.Olloyor.Sobotul – ojizin. T.://Mehnat, 1991,23-b.).



GO'DAK – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (ko't +ak = ko'tak < go'dak). Bu ot qadimgi turkiy tildagi "ko't", ya'ni kalta bo'l ma'nosini anglatgan fe'lga -ak qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan (Sevortyan, III,106).

Go'dak – 1. Emadigan, ko'krakdan ajratilmagan, odatda bir yoshgacha bo'lgan bola, chaqaloq. M: Oilada tug'lsa go'dak, unga suyib qo'yilar ism.

2. Voyaga yetmagan, ona suti og'zidan ketmagan yosh bola. M: O'qituvchi yolg'iz bilim bermaydi. U go'dakni odam qiladi.

3. Yetarli turmush tajribasiga ega bo'lmagan, xom, g'o'r odam. M: Baring go'dak, hali nodon bolasan, har ish qilsang ham bitmagan, chalasan

(O'TIL, I,530).



GO'ZAL – (turkiycha so'z) sifat, asliy sifat, oddiy daraja, yasama (ko's +al =ko'sal < go'zal). Bu sifat asli qadimgi turkiy tildagi "nazar sol" ma'nosini anglatgan ko's fe'lga -al qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan (Sevortyan, III, 63).

Go'zal. 1. Juda ham go'zal, chiroyli, husndor. M: *O'ttiz besh yoshlarda ko'ringan bu go'zal xotin haram xodimalaridan Gulshanbonu edi.*

2. Kishi ko'zini quvontiradigan, kishini maftun etadigan, zavqlantiradigan. M: *Gozal tabiat bag'rida dam olmoq.*

3.Zavq, shavqqa boy, serzavq, unitilmas. M: *U qorli, sovuq kun Yo'lchi uchun umrining eng mazmunli, eng rangli, eng go'zal kuni edi.*

4.Go'zal (xotin-qizlar ismi).



HABIB – (arabcha so‘z) Allohning do‘sti. Bu sifat Alloh taoloning sevimli do‘sti va tanlagan elchisi Muhammad (s.a.v.) ga nisbatan qo‘llaniladi.

(Xilvatiy. Mavludun – nabiy.T.://Matbaai G‘ulomiya, 1330 h., 15-b.)



HADIS – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (hadis (un) < hadis). Bu so‘z arab tilida “gaplashdi”, “hikoya qildi” ma’nosini ifodalovchi “hadasa” fe’lidan hosil bo‘lgan. Hadis so‘zi arab tilida “suhbat”, “hikoya”, “Muhammad payg‘ambarimiz aytgan gaplar, amalga oshirgan ishlari” haqidagi hikoyalar ma’nosini anglatadi.

Hadis. 1. Din.Islom dinida Qur‘ondan keyingi muqaddas manba, Muhamamad payg‘ambarimizning faoliyati va ko‘rsatmalari haqida rivoyatlar majmui. M: *Bir qancha mo‘tabar kitob, oyat va hadislarni qarab chiqdim.*

2. Biror kimsaning aytgan so‘zlari yoki gaplari; rivoyat, hikoya. M: *Senga balki ayon, balki noayon, Bir hayot hadisni aylayin bayon* (O‘TIL,V, 474).



HADYA – (arabcha soʻz) sovgʻa, tuhfa. Ot, turdosh ot, birlik, bosh kelishikda, tub ot. Bir kishining boshqa bir odamga hech qanday evazsiz, begʻaraz tarzda beradigan moliyaviy narsasi “hadya” deyiladi.



HALOL – (arabcha soʻz) sifat, asliy sifat, oddiy daraja, yasama soʻz (halal>halol). Bu soʻz arab tilidagi “qoidaga rioya qilindi”, “qonuniy boʻldi” maʼnosini anglatuvchi “halla” feʼlidan hosil qilingan (ARS, 189).

Halol. 1.Din. Shariat hukmiga muvofiq yesa, ichsa va foydalansa boʻladigan; harom emas. M: *Pulni olmadim, ming marta roziman, sizga ona sutiday halol boʻlsin.*

2.Koʻchma maʼno. Kishining oʻziga qarashli oʻz mehnati bilan, peshona teri toʻkib topilgan; xiyonat, gʻirromlik kabilardan xoli. M: *Jon dilidan halol ishlaydigan odamlar bilan inoq.*

3.Sport.Oʻzbek kurashida sof gʻalabaga beriladigan baho.

4. Nikohlab olingan qonuniy xotin haqida. M: *Birovning haloliga koʻzingni olaytirma*(OʻTIL,V,494).



HAROM – (arabcha soʻz) sifat, asliy sifat, oddiy daraja (haram<harom). Bu soʻz arab tilida “taqiqladi” maʼnosini anglatuvchi “haruma” feʼlidan hosil qilingan (ARS,168).

Harom. 1. Din. Shariat hukmiga muvofiq yeyish, ichishga, foydalanishga yaramaydigan, halol emas. M: *Eshakning kuchi halol, goʻshti harom deganlaridek.*

2.Shariat boʻyicha, anʼana yoki tartib qoidalarga koʻra man etilgan ish xatti-harakat; shu yoʻl bilan topilgan narsa; hayotda shunday yoʻl tutuvchi kimsa. M: *Shunaqa harom odamlar oʻz egalariga yaxshi xizmat qiladilar* (OʻTIL,510).



HANDASA – (arabcha soʻz) ot, atoqli ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik (handasat>handasa). Bu soʻz arab tilida “oʻlchadi” maʼnosini anglatuvchi handasa feʼlidan hosil

qilingan(ARS,861).

Hahdasa - geometriya. M: Madrasada diniy ilmlardan tashqari dunyoviy ilmlardan hisob, handasa, tarix o‘qitiladi (O‘TIL, V, 504).



HARF – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub (harf (un) < harf). Bu so‘z arab tilidagi “harafa” fe’lidan hosil qilingan bo‘lib, arab tilida “tovush (undosh tovush) ifodalovchi shakl”, so‘z ma’nolarini anglatadi (ARS,166).

Harf – tovushning yozma nutq uchun qabul qilingan shakli, belgisi. Har bir tovush, odatda, bir belgi bilan ifodalanadi (O‘TIL, V, 512).



HAYIT – (arabcha so‘z) iyd, bayram, tantana. Ot, turdosh ot, birlik, bosh kelishik, tub ot, mavhum ot. Islomda ikkita hayit bor: birinchisi, Iyd – al – fitr – Ramazon hayiti. Ikkinchisi, Iyd – al – adho – Qurbon hayiti.



HAYOT – (arabcha so‘z), ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, yasama (hayat(un) < hayat). Bu so‘z arab tilida “yashadi” ma’nosini anglatadigan “haiya” fe’lidan hosil qilingan bo‘lib, “yashash”, “fiziologik mavjudlik” ma’nosini anglatadi (ARS,205).

Hayot. 1. Materiyaning o‘z rivojlanishining muayyan bir davrdagi harakatlanish shakli. M: *Yerda hayotning paydo bo‘lishi.*

2. Inson, hayvon, o‘simliklarning tug‘ilgandan o‘lgunga qadar bo‘lgan fiziologik holati. M: *Ko‘z juda murakkab optic sistema bo‘lib, kishi hayotida ko‘zning yaxshi ko‘rishi muhimdir.*

3. Yashash muddati; umr. M: *To‘y – kishi hayotidagi eng yaxshi orzu – umidlarning ushalishi.*

4. Ko‘chma ma’no. Hayot bag‘ishlovchi, hayotni ta’minlovchi narsa.

M: Elektr simlardan hayot oqadi.

5. Sifat. Yashab turgan, tirik. M: *Kim biladi balki hayotdir va ehtimol hayotga yotdir* (O‘TIL, V,476).



HAYVON – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama, (hayvan (un) < hayvan < hayvon). Bu so‘z arab tilidagi “yashadi”, “mavjud bo‘ldi” ma’nosini anglatuvchi “haiya” fe’lidan hosil qilingan (ARS,205).

Hayvon – 1.Zoologiya. Harakat qilish va sezish qobiliyatiga ega bo‘lgan har bir tirik mavjudot; jonivor. M: Umrtqali hayvon.

2.Insondan boshqa har qanday jonivor. M: Hayvonot bog‘ida hayvonlarning turlari ham, soni ham ko‘p.

3. Ko‘chma ma’no. Odati, qilig‘i, xatti-harakatlaridan hayvonga o‘xshashlikni, hayvonga nisbatli haqoratni bildiradi. M: *Odamning hayvoni kishi haqqidan qo‘rqmaydi* (O‘TIL, 482).



HID – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub (yid < hid). Qadimgi turkiy tilda bu ot asli yiz, yit tarzida talaffuz qilingan bo‘lib, *is,bo‘y* ma’nolarini anglatgan (DS,264 – 265).

Hid – 1. Har bir narsa va moddaning kishilarning is bilish sezgilariga ta’sir etadigan xossasi; bo‘y, is. M: *Har gulning hidi boshqa.*

2.Ko‘chma ma’no. Biror narsa, hodisa yoki xolatning belgisi, sharpasi. M: *Janjalning hidini sezgan Sarvi xola g‘udranib, stol ustiga dasturxon yoza boshladi* (O‘TIL, V, 525).



HIKOYA – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, (hiyat<hikaya<hikoya).Bu so‘z arab tilidagi “haka” fe’lining “gapirib berdi” ma’nosi bilan hosil qilingan bo‘lib, arab tilida “og‘zaki bayon qilib berilgan voqelik” ma’nosini anglatadi (ARS, 188).

Hikoya. 1.Kimsa, narsa va u bilan bog‘liq voqea hodisalarning og‘zaki tafsiliy bayoni. M: *Mulla Fazliddin yosh Boburga Navoiy haqida juda ko‘p ajoyib hikoyalar aytib bergan edi.*

2.Epik turga mansub kichik hajmli janr; shu janrda yozilgan asar.M: *Hikoya yozmoq* (O‘TIL, V, 528).



HILOL – (arabcha so‘z) yangi oy, ko‘rinish. M: ...
Ya’ni ro‘zani boshlash yoki tugatish haqidagi hilol ko‘rishda kun bulutsiz, ochiq bo‘lsa, ko‘p sonli kishilarning guvohlik berishlari shart.

(Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Kifoya. T.2.T.://Sharq, 2008, 145 –b)



HOVUCH – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (avuch < hovuch). Bu ot qadimgi turkiy tilde “ol” ma’nosini anglatgan “abu” fe’liga “-chi” qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan. Aslida “abu” fe’li “ol” ma’nosini emas, balki “ikki qo‘l shapalog‘i” bilan “ol” ma’nosini anglatgan (Sevortyan, I, 409).

Hovuch – bu so‘z “Devoni lugatit turk”da avut, hatto azit shaklida keltiriladi (DLT, I, 111).

Hovuch – 1. Bir qo‘l barmoqlarini bukib, shuningdek, ikki qo‘lning kaft va barmoqlarini yonma – yon birlashtirib, barmoqlarni bukib, chuqurcha qilingan holati. M: *Radio karnayi ostida hovuchini qulog‘iga qo‘yib tinglaydi.*

2. Hovuchga sig‘arli miqdorni bildiradi. M: *Ikki hovuch suv* (O‘TIL, 543).



HO‘KIZ – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik (oko‘z < hoko‘ < hokiz < ho‘kiz). Bu ot qadimgi turkiy tilda oko‘z tarzida talaffuz qilingan va erkak qoramol ma’nosini anglatgan (DS, 383).

Ho‘kiz. 1. Ikki yoshdan oshib, qo‘shga yaraydigan holga kelgan, bichilgan erkak qoramol. M: *U qo‘sh hokizi bilan o‘z yerini haydamoqda edi.*

2. Ko‘chma ma’noda shu molga nisbatli haqoratni bildiradi. M: *Anavi hokizni qarang – u, manavi parini!* (O‘TIL, 570).



IDISH – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (idi+sh = idish). Bu ot qadimgi turkiy tildagi “yig‘” ma’nosini anglatgan “idi” fe’liga -sh qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan va “narsalarni yig‘ishtirib solish buyumi” ma’nosini bildirgan (PDP, 397;DLT,I, 92; DS, 203).

Idish-Narsa solish uchun ishlatiladigan uy-ro‘zg‘or yoki xo‘jalik buyumi. M:*Don idish, suv idish* (O‘TIL, II, 174).



IEROGLIF – (yunoncha so‘z) ot, atoqli ot, aniq ot, tub so‘z (hieros-“muqaddas”+glyphikos -“o‘yib yozilgan”). Bu so‘z rus tiliga XVII asrning oxirida Fransuz tilidan o‘zlashgan. Fransuz tilida “*hieroglyphe*”, yunon tilida “*hieroglyphika grammata*” rus va o‘zbek tillarida esa “*ieroglif*” tarzida qo‘llanadi (Manba).

Ieroglif-Qadimgi misrliklar va ba’zi xalqlar yozuvida butun bir tushuncha, ibora, so‘z, bo‘g‘in yoki tovushni ifodalagan, hayvon, odam, har-xil buyum, asbob va sh.k. tasviridan iborat belgi (hozirgi kunda xitoy yozuvidagi va undan yapon, koreys yozuvlariga o‘tgan belgilar ham ierogliflar, deb ataladi) (O‘TIL, II, 175).



IGNA – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, narsa oti, aniq

ot, yasama ot (yigi+na=yigna). Bu ot qadimgi turkiy tildagi “yopishtirib zich tikilgan” ma’nosini anglatgan “yig”i sifatiga

-“na” qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilingan (DLT, I, 381).

Igna. 1. Bir tomoni nayzasimon, ikkinchi tomoni teshik bo‘lib, teshigidan ip o‘tkazib, narsa tikishga mo‘ljallangan ingichka metall asbob. M: *Ignaga ip o‘tkazmoq*.

2. Turli asboblarning ignasimon qismi. M: *Patefon ignasi*.

3. Tibb. Tibbiy texnikada: ingichka sim yoki uchi o‘tkir naycha ko‘rinishidagi sanchiluvchi yoki sanchiluvchi-kesuvchi asboblarning umumiy nomi. M: *1982-yil sentabr oyining oxirlarida igna bilan davolovchi olim va shifokorlarning anjumani bo‘lib o‘tdi*.

4. Ba’zi o‘simlik va jonivorlarning ignasimon a’zosi, nayzasi, tikani. M: *Daraxt ignasi*.



IKKI – (turkiycha so‘z) son, sanoq son, tub son, yasama so‘z (ik+i=iki>ikki). Bu son qadimgi turkiy tildagi “ket”, “yon” ma’nosini anglatgan “ik” otiga – i qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan (Sevortyan, I, 339).

Ikki qadimgi turkiy tilda bu so‘z iki va ikki shakllarida mavjud bo‘lgan. Dastlab, bu so‘z “ketidagi” ma’nosini anglatuvchi sifat bo‘lgan, keyinchalik o‘zi miqdor ma’nosini anglatib, sanoq songa aylangan (DLT, I, 237; DS, 207).



ILDIZ – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (yil+diz=yildiz>ildiz). Bu so‘z qadimgi turkiy tilde “qimirlash”, “jilish” ma’nosini anglatgan “yil” otiga

-“diz” qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan (Sevortyan, I, 358).

Ildiz. 1. O‘simlikning yerdan suv va o‘g‘it moddalar olib beradigan yer osti qismi; tomir. M: *Ildizdan ko‘kargan daraxt*.

2. Tish, soch, tirnoq kabilarning teri yoki et orasida joylashgan qismi, tomiri.

M: *Kampirning bir tutam oppoq sochi ildizi bilan yulib*

olingan.

3.Ko‘chma ma’no. Asos, negiz, manba. M: ... *qadimiy me’rosimiz ildizlariga qaytib, o‘tmishimizdagi boy an’analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog‘imiz kerak*(O‘TIL, II, 191).



ILON – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, bosh kelishik, birlik, yasama (yil +an = yilan < ilan < ilon). Bu so‘z qadimgi turkiy tildagi “qimirla”, “jil” ma’nosini anglatgan “yil” fe’liga -an qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilingan (DLT,III,36; DS,266).

Ilon. 1. Sudralib yuruvchi, oyoqsiz, tanasi ingichka va uzun, ko‘zlari shaffov qovoqlar bilan qoplangan jonivor. M: *Ko‘z oynakli ilon.*

2.Muchal yili hisobida oltinchi yil nomi;mor. M: *Ilon yili muchal yil hisobida oltinchi yil* (O‘TIL, II,198).



IMPERATOR – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot, shaxs oti, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama. Imperator so‘zi rus tiliga XVI asrda polyak tilidan kirib kelgan. Bu so‘z lotincha imperari “idora qilmoq”, “hukmronlik qilmoq” so‘ziga qo‘shimcha qo‘shish orqali hosil qilingan. Imperator so‘zi lotin tilidagi “pario” - “qo‘lga kiritmoq”, “bosib olmoq” so‘zlariga borib taqaladi. (Manba)

Imperator – 1. Tar.Rim respublikasi va imperiyasida podsho, sarkarda, qo‘mondonning faxriy unvoni.

2.Ayrim yirik ko‘p millatli davlatlarda podshohlarga berilgan unvon va shu unvonga ega bo‘lgan shaxs. M: *Xitoy imperatorlari* (O‘TIL, II, 204).



IMLO – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik ,tub (imla < imlo). Bu so‘z arab tilida “aytib turib yozdirdi” ma’nosini anglatuvchi “amla” fe’lidan hosil qilingan. Imlo so‘zi arab tilida “diktant”,“to‘g‘ri yozish” ma’nolarini bildiradi (ARS, 767; ATG, 223).

1. Yozuv. M: *Eski imlo. Yangi imlo.* 2. To‘g‘ri yozuv. M: *Imlo qoidalari.* 3. Yozuvga, to‘g‘ri yozuvga oid; imloviy. M: *Imlo xatosiz yozishni o‘rganib oling* (O‘TIL, II, 202).



IMON – (arabcha so‘z), ot, turdosh ot, mavhum ot, bosh kelishik, tub so‘z (iman <imon).

Bu so‘z arabcha “sodiq bo‘ldi”, “ishonchli bo‘ldi” kabi ma‘nolarni anglatuvchi “*amana*” fe‘lidan hosil bo‘lgan. Imon so‘zi ishonch, e‘tiqod ma‘nosini anglatgan; keyinchalik bu so‘z diniy mundarija bilan ishlatilib, “Allohga ishonish”, “diniy e‘tiqod” ma‘nosini anglatgan (ATG, 247).

Imon – 1. Diniy. Xudoga bo‘lgan ishonch, e‘tiqod; ko‘ngilda ishonish va tilda iqror bo‘lish. M: *Imoniga, diniga mustahkam pokiza odam bor joydan ajina yuz chaqirim nariga qocharmish.*

2. Umuman ishonch. M: *Uning “sof millatchi” muhojir ekaniga imon hosil qildi* (O‘TIL, II, 203).



IMTIHON – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik (imtihan>imtihon). Bu so‘z arab tilida “tekshirdi”, “sinadi” ma‘nosini anglatuvchi “mahana” fe‘lining VIII bob shakli “imtahana” so‘zidan hosil qilingan (ARS, 744).

Imtihon. 1. O‘quv muassasalarida talabalarning o‘quv dasturlarida belgilangan bilimni qanchalik o‘zlashtirganligini tekshirish, so‘rab sinab ko‘rish va baholash. M: *Institutga kirish imtihoni.*

2. Umuman, sinov, tekshirish. M: *Bu savol o‘ziga ishonarli javob talab qilish bilan birga, asrlar bo‘yi targ‘ib va tatbiq qilib kelinayotgan bir asos mantiqiga imtihon ham edi.*



INSON – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (insan<inson). Bu so‘z arabcha “bir-biriga yaqinlashdi”, “tanishdi” ma‘nosini anglatuvchi *anisa* fe‘lidan hosil bo‘lgan (UAYA, 568).

Inson. 1. Odamzod, bashar. M: *Inson- bu dunyoning azizizu*

mukarram xilqati, mavjudotlar ichida sarvaridir.


2. Har bir yakka shaxs; odam. M: *Basharti Musulmonqul chin inson bo'lsa, insondan vaxshiy tug'ilganini hech kim eshitgan chiqmas.*

3. Kimsaga (odatda salbiy munosabatli) murojaat shakli. M: *Ho'o' inson bu nima noma'qulchilik, tilsiz jonivorda nima qasdingiz bor* (O'TIL, II, 212).



IYAK – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniqot, birlik, bosh kelishik, yasama (eng+ak=engak>ingak>iyak). Bu ot qadimgi turkiy tilda “yuz” ma'nosini anglatgan “eng” otiga kichraytirish ma'nosini ifodalovchi -(a)k qo'shimchasini qo'shish bilan hosil bo'ladi (Sevortyan, I, 285; DLT, I, 154).

Iyak-pastki jag'ning har ikki tomoni quyilib kelib birlashgan joyi. M: *Iyagi cho'zinchoq odam.*



JABDUQ – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so'z (jabdi+q=jabdiq>jabduq). Bu ot qadimgi turkiy tildagi “jihozla”, “hozirla” ma'nosini anglatgan “jabdi” fe'liga -q qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan (Sevortyan, IV, 9).

Jabduq. 1. Ot yoki eshak abzali. M: *Arava ham ertasi kuni keltirilib, Xolmirza aka otga jabduqlar olish, aravaga temir*

qoqtirish uchun shaharga tushib ketdi.

2. Kerakli narsalar, kerak yarog‘, anjom. M: *Safar jabdug‘i hozirlansin* (O‘TIL, II, 60).



JADVAL – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (jadval(un)>jadval). Bu so‘z arabcha “chiziqalar chizdi”, “chiziqalar bilan bo‘limlarga ajratdi” kabi ma‘nolarni anglatuvchi “jadvala” fe‘lidan hosil bo‘lgan (ARS, 121).

Jadval. 1. Ma‘lum tartibda satr, katak va ustunlarga, grafalarga joylashtirib berilgan ma‘lumotlar. M: *Ko‘paytirish jadvali*.

2. Mashg‘ulot, dars, ish, harakat, tadbir-chora va sh.k.ning o‘rni va payti ko‘rsatilgan grafik. M: *Dars jadvali*.



JADID – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, shaxs oti, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (jadid(un)>jadid). Bu so‘z arabcha “yangi bo‘ldi” ma‘nosini anglatuvchi “jadda” fe‘lidan asliy sifat bo‘lib, arab tilida “yangi”, “yaqinda paydo bo‘lgan” kabi ma‘nolarni anglatadi (ARS, 119; ATG, 43).

Jadid-Yangilik tarafdori, jadidchilik harakatining qatnashchisi. M: Jadidlar, ulamolar, yana Hakim akamning obro‘li bir necha do‘stlari bo‘ldi (O‘TIL, II, 64).



JANNAT – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (jannat(un)>jannat). Bu so‘z arab tilidagi “yashirdi” ma‘nosini anglatuvchi “janna” fe‘lidan hosil qilinib, “bog‘” ma‘nosini anglatuvchi jann(un) so‘ziga yakka, bir dona ma‘nosini ifodalovchi -t qo‘shimchasi qo‘shish bilan hosil qilingan.

Arab tilida “al-jannatu” tarzida “al” aniqlik artikili bilan ishlatilib, “begunoh kishilarning ruhi narigi dunyoda rohat-farog‘atda yashaydigan makon”, “bihisht” ma‘nosini anglatadi (O‘TEL, II, 120).

Jannat. 1. Begunoh, taqvodor kishilar u dunyoda yashaydigan rohat-farog‘atli joy, behisht. M: Qoshing bilan ko‘zing sho‘x, ilohi o‘lmagaysan, Jannatdagi hurlarning birovi bo‘lmagaysan.

2.Ko‘chma ma’no. Hamma narsa muhayya bo‘lgan, obod, rohatbaxsh, xushmanzara joy.M:*Bo‘lsin deymiz jahon bo‘ylab insonlar yeri jannat.*

3.Jannat(xotin-qizlar ismi).



JANUB – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, o‘rin-joy oti, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (janub(un)>janub). Bu so‘z arabcha so‘z bo‘lib, “chetga surib qo‘ydi” ma’nosini anglatuvchi “janaba” fe’lidan hosil qilingan (O‘TEL, II, 120).

Janub-dunyoning to‘rt asosiy tomonlaridan biri; zid.Shimol. M: *Derazalari janubga qaragan uy* (O‘TIL, II, 72).



JAR – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (ya:r>jar).

Bu so‘z qadimgi turkiy tilda “suv yuvib hosil bo‘gan tik chuqurlik” ma’nosini anglatuvchi “ya:r” so‘zidan hosil qilingan (Sevortyan, IV, 17).

Jar. 1.Yerning chuqur, o‘yiq joyi, chetlari o‘pirilgan chuqur soylik. M: *Azizbek sipohlari ila jarga tushdi* (O‘TIL, II, 72).



JILDIRA – (turkiycha so‘z) fe‘l, holat fe‘li, aniq nisbat, o‘timsiz fe‘l, bo‘lishli fe‘l, yasama so‘z(yil>jil+dir=jildir+a=jildira). Bu fe‘l eski o‘zbek tilida “oz miqdorda oqib tur” ma’nosini anglatuvchi “yil” fe‘lining jil shakliga –dir orttirma nisbat qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilingan (KRS, 280).

Jildira. Oz miqdorda oqmoq, jildirab tushmoq. M: *Ariqchalardan jildirab oqqan suv tarnov orqali hovuzga tushadi* (O‘TIL, II, 87).



JARIMA – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, (jarimat(un) < jarima). Bu so‘z arabcha “gunoh qildi”, “jinoyat qildi” ma’nosini anglatuvchi “jarama” fe‘lining “to‘lov to‘latdi” ma’nosidan hosil bo‘lgan (ARS, 126).

Jarima. Qonun – qoidani buzganlik, qonun – qoidaga xilof

xatti-harakat yoki yetkazilgan moddiy zarar uchun undiriladigan, to‘lanadigan pul. M: *Befarzandlik alamin fuqarodan olarkan, Kim farzand ko‘rsa, unga xon jarima solarkan* (O‘TIL, II, 74).



JAROHAT – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub, (jirahat < jarahat < jarohat). Bu so‘z asli arabcha “jismoniy shikast yetkazdi” ma’nosini anglatuvchi jaraha fe’lidan hosil qilingan (ARS,124).

Jarohat. 1.Shikastlangan, singan, chiqqan, yaralangan joy; yara – chaqa. M: *Og‘ir jarohat. Yengil jarohat.*

2.Ko‘chma ma’no. Katta zarar, ziyon – zahmat. M: *Biz misli ko‘rilmagan qisqa muddat ichida urushning og‘ir jarohatlarini tuzatib oldik.*

3. Ko‘chma ma’no. Alam, iztirob. M: *Bu voqea Elmurodning dilida og‘ir jarohat qoldirdi* (O‘TIL, II, 75).



JASUR – (arabcha so‘z) sifat, asliy sifat, oddiy daraja, tub sifat, (jasur(un) < jasur). Bu arabcha so‘z “jasur bo‘ldi” ma’nosini anglatgan jasara fe’lidan hosil bo‘lgan (ARS,130).

Jasur – g‘oyat mard, qo‘rqmas, jasoratli. M: *Mardlik maydonida bel sinash uchun, Jasur o‘zbek xalqin o‘g‘li otlandi* (O‘TIL, II, 76).



JAHOLAT – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z,(jahalat(un) < jahalat < jaholat). Bu so‘z arabcha “nodon bo‘ldi” ma’nosini anglatuvchi “jahila” so‘zidan hosil bo‘lgan (ARS,145).

Jaholat – ilmsizlik, qoloqlik, madaniytsizlik, nodonlik.

M:*Ayollar o‘tmishda hammadan ko‘p zulm ko‘rgan, hammadan ko‘p jaholatda qolgan* (O‘TIL, II,78).



JIHOD – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub, (jihad (un) < jihad < jihod). Bu so‘z arabcha “kurashdi” ma’nosini anglatgan “jahada” fe’lidan hosil bo‘lgan (ARS,144).

Jihad – harakat qilish, kurash, olishuv. Musulmonlarning Islom dinining tarqalishi yo‘lidagi g‘ovlarni bartaraf etish, uni har taraflama muhofaza qilish yo‘lida g‘ayridinlarga qarshi muqaddas urushi; g‘azofat (O‘TIL, II, 97).



JUMA – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik (jumat(un) < juma). Bu so‘z asli arab tilida ko‘p ma’noli so‘z bo‘lib, “to‘pladi”, “jamladi” ma’nolarini anglatuvchi “jama’a” fe’lidan hosil qilingan. Juma so‘zi arab tilida “hafta”, “haftaning oxirgi kuni” kabi ma’nolarni anglatadi (UAYa, 568; ARS, 138).

Juma. 1. Haftaning dushanbadan hisoblaganda beshinchi kuni.
M: *Bugun juma.*

2. Bir qator musulmon mamlakatlarida haftaning oltinchi, dam olish kuni. M: *Vaqt-soat, juma, bayram, hayit nima ekanini bilmasdan ishlaydi* (O‘TIL, II, 112).



JOUL – (inglizcha so‘z) ot, turdosh ot, shaxs oti, birlik. Rus tiliga XIX asrda ingliz tilidan kirib kelgan va 1-marta texnika ensiklopediyasida qayd etilgan (1896). “Elektr toki, vatt-sekundning ishlash birligi” ma’nosini ifodalab, bu termin (joule) ingliz olimi Joul(Joule) sharafiga qo‘yilan, fransuz va ingliz tillarida asliyatdan uzoqroq “jul” shaklida yoziladi va talaffuz qilinadi.



KABUTAR – (fors-tojikcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, narsa oti, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (kabud+tar = kabutar). Bu so‘z fors-tojik tilidagi kabud – ko‘k va tar sifatning orttirma darajasini bildiruvchi -tar qo‘shimchasining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Kabutar so‘zi qirg‘iz tilida: keptar, turkman tilida keptere; qozoq tilida kepter; o‘zbek tilida kabutar tarzida qo‘llangan (B.Bafoyev, KST, 112).



KABOB – (fors-tojikcha) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tarixan qo‘shma so‘z, (kam + ob = kamob < kabob). Fors-tojik tili leksikasi bo‘lgan bu so‘z eski o‘zbek tiliga o‘tib o‘zlashgan. Hozirgi turkiy tillardan o‘zbek tilida kabob; Samarqand, Buxoro shevalarida kabob, kavob, kovob; qirg‘iz tilida kebep, uyg‘ur tilida kavab; ozorboyjon tilida kabab tarzida qo‘llangan (B.Bafayev, KST,289).

Kabob – qo‘rada pishirilgan go‘sht. Asosan, go‘shtni sixga tortib, qo‘raga terib, cho‘g‘ damida pishiriladigan, shuningdek, tandirda yoki qozonda tayyorlanadigan taom. M: *Jigar kabob* (O‘TIL, 289).



KADI – (fors-tojikcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (kad +u = kadi). Bu so‘z qadimgi fors, eski tojik tilida qo‘llangan kad, ya‘ni uy ma‘nosini bildirgan

soʻzga -u qoʻshimchasini qoʻshish bilan yasalgan. Tojik tilida – kadu; turkman tilida – kadi; ozorbayjon tilida kudu; oʻzbek tilining Samarqand, Buxoro shevasida kadi, Xorazm shevalarida ked, turk tilida kadak tarzida qoʻllanadi (B.Bafoyev, KST,34).

Kadi – qovoq, osh qovoq; ularning poʻstloq qismidan tayyorlangan idish. M: *qimiz kadi* (OʻTIL, II, 291).



KALENDAR – (lotincha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (calendae +rium = calendarium = calendar). Calendae – har bir oyning birinchi kuni, degan maʼnoni anglatgan. Calendarium soʻzi esa “qarz kitobi” degan maʼnoni anglatgan. Bu soʻz rus tiliga XVII asrning boshida polyak yoki nemis tili orqali kirib kelgan. Lotincha – kalendae; nemis tilida – calendar; rus va oʻzbek tillarida kalendar(yil, oy, kun). (Manba)

Kalendar – 1. Yilning barcha oy-kunlari tartibi bilan koʻrasatilib, boshqa maʼlumotlar ham berilgan jadval yoki kitobcha; taqvim. M: *Stol kalendari*.

2.Hayot yoki ilmning biror sohasidan maʼlumot beruvchi shunday jadval yoki kitobcha.M: *Astronomiya kalendari*.

3. Uzoq davrlarni, yilning oy-kunlarini hisoblash tizimi.
M: *Kalendarni isloh qilish*.

4. Qilinadigan ish yoki mashgʻulotlarning bajarilish muddatlari (oy kunlari) koʻrsatilgan maʼlumot, jadval. M: *Mashgʻulot kalendari* (OʻTIL, II, 297).



KALIMA – (arabcha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama, (kalamat < kalmia). Bu soʻz arab tilida “soʻzladi” maʼnosini anglatuvchi “kalama” feʼlidan yasalgan ismga - atun qoʻshimchasini qoʻshish orqali yasalgan (ARS,697).

Kalima – soʻz, jumla, qisqa. M: *Sidiqjon “unsur” kalimasini hukumatga qarshi degan maʼnoda ishlatar edi* (OʻTIL,298).



KAPALAK – (turkiycha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, bosh kelishik, birlik (koʻp +al =koʻpal + ak = koʻpalak < kapalak). Bu soʻz asli qadimgi turkiy tildagi “yuqoriga koʻtaril” maʼnosini

anglatgan “ko‘p” fe‘liga +al qo‘shimchasi qo‘shilgan va kichraytirish ma‘nosini ifodalovchi -ak qo‘shimchasini qo‘shib, hosil qilingan (Sevortyan, III, 52).

Kapalak – ikki juft oq, kulrang yoki rang-barang qanotli nozik hashorat. M: *Kapalak gulni sog‘inar, bulbul – kuyni* (O‘TIL, II,316).



KEKIRDAK – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, bosh kelishik, birlik (kekir +dak = kekirdak). Bu ot qadimgi turkiy tilda “oshqozonda to‘plangan havoni qizil o‘ngach orqali chiqar” ma‘nosini anglatuvchi “kekir” fe‘liga -dak qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan (DLT, II, 88).

Kekirdak – 1.Odam va umurtqali hayvonlar nafas yo‘lining yuqorigi qismi. M: *Kekirdaklari uzilib ketmaydimi bu xo‘rozlarning.*

2. Bo‘yinning old qismi; tomoq. Bo‘ynini cho‘zib, qo‘llarini arra qilib gapirarkan lablari do‘rdayib, ko‘zlari ola – kula bo‘lib, kekirdagidagi tomirlari bo‘rtib chiqib ketgan edi (O‘TIL, II, 343).



KELIN – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik (kel +in =kelin).

Bu so‘z asli qadimgi turkiy tilda “boshqa joydan yaqinlashish tomonga harakatlan “ma‘nosini anglatuvchi “kel” fe‘liga -in qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan (Sevortyan, III,17).

Kelin – 1. Yangi turmushga chiqqan yoki chiqayotgan qiz.

M: *Yangi kelinlarning uyi odatda bezatilgan bo‘ladi.*

2.O‘g‘ilning xotini (qaynota yoki qaynonaga nisbatan).

M: *Qaynana – kelin bir daqiqa chamasi ko‘rishib qoldilar.*

3. Ukaning xotini (aka yoki opaga nisbatan).

M: *Ziyodillaning o‘z oilasida shu vaqtgacha sodir bo‘lgan ko‘ngilsiz hodisalarni ham, o‘z kelinining bebosh bo‘lib ketganini ham hazm qilib olmasligi turgan gap edi.*

4. O‘zidan yosh bo‘lgan qarindosh yoki yaqin kishining xotini va shu xotinga murojaat. M: *Haydar ota aralashdi: - kelin rost aytadilar* (O‘TIL, II, 346).



KEMA – (turkiycha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, narsa oti, birlik, bosh kelishik, yasama, (kem + a =kema). Bu soʻz qadimgi turkiy tildagi “gʻajil”, “kemiril” maʼnosini anglatgan “kem” feʼliga -a qoʻshimchasini qoʻshish bilan hosil qilingan (Sevortyan, III, 19).

Kema – suvda suzadigan yuk va yoʻlovchilarni tashish, baliq ovlash, ilmiy tadqiqot, sport, sayohlik va harbiy maqsadlar uchun moʻljallangan qurilma. M: *Baliqchilar kemasi* (OʻTIL, II, 350).



KETMON – (turkiycha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (kir – ker + it = kerit < kert +man = kertman < ketman < ketmon). Bu soʻz turkiy tilda qoʻllanadigan “bir-biriga ajrat” maʼnosini bildiradigan “ker” feʼliga -it qoʻshimchasini qoʻshish bilan hosil qilingan (DLT, II, 15).

Ketmon – yuzi katta orqa tomonida dasta suqib qoʻyadigan zoʻgʻatasi bor, yer chopish, loy qilish va boshqa ishlarda ishlatiladiga dastaki asbob.

M: *Katta kundalarning tevaragini ketmon bilan chopishni boshladi* (OʻTIL, II, 358).



KINDIK – (turkiycha soʻz), ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama, (kin +di =kindi +k = kindik). Bu ot qadimgi turkiy tilda mavjud boʻlib, keyin isteʼmoldan chiqqan “tutashtir”, “birlashtir” maʼnosini anglatgan kin feʼlidan – di qoʻshimchasi bilan ot yasalgan va kichraytirish maʼnosini ifodalovchi – k qoʻshimchasi bilan yasalgan (DS,308).

Kindik – 1. Qorindagi bolani yoʻldosh orqali ona tanasi bilan birlashtiruvchi, bolani oziq moddalari bilan taʼminlash uchun xizmat qiluvchi ichak – nay. M: *Uchqunning kindigini kesganda, Tozagul koʻzlarini yumib, qalt – qalt titrab turdi.*

2. Bola tugʻilgach, shu ichak nayni kesib tashlash natijasida qorin oʻrtasida hosil boʻlgan kichik chuqurcha; qorinning oʻrta qismi. M: *Azim uning kindigiga oʻxshatib tepdi.*

3. Koʻchma maʼno. Markaz, oʻrta. M: *Dashtning kindigi mana*

shu yer , - dedi O'ktam (O'TIL, II, 367).



KIPRIK – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik , yasama,(kirpi +k = kirpik < kiprik). Bu so‘z qadimgi turkiy tilda “ko‘p tikan” ma’nosini anglatgan kirpi otiga -k qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilingan (DLT,I,443; DS, 309).

Kiprik – ko‘z qovoqlari chetida qator joylashgan tuklar. M: *Kuchli kulgidan Ra’noning ko‘zi yoshlanib, o‘siq kiprigi juftlandi (O‘TIL,370).*



KIYIK – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub (kadik < kazik < kezik < keyik < kiyik). Qadimgi turkiy tilda qo‘llangan keyik so‘zi “ohu” ma’nosini anglatgan. Bundan tashqari kayak so‘zi “yovvoyi” ma’nosida qo‘llangan (PDP, 394).

Kiyik – qo‘sh shoxli, sut emizuvchilar oilasining “ohu”, “bug‘u” v.h.lar kabi katta bir guruhning umumiy nomi. M: *Tog‘ cho‘qqisida o‘tlab yurgan kiyik birdan ko‘zdan yo‘qoldi (O‘TIL, 364).*



KUMUSH – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik,tub (ko‘mo‘sh < kumush).

Qadimgi turkiy tilda ham bu so‘z oq – ko‘kish rangli qimmatbaho ma’dan ma’nosini anglatgan va ko‘mo‘sh tarzida talaffuz qilingan (PDP, 397; DLT, I, 351; DS, 326).

Kumush. 1. Mendeleev davriy sistemasining birinchi guruhiga mansub kimyoviy element, oq – ko‘kish rangli yaltiroq, asl metall. M:*Analitik ishlarning talaygina qismi ruda materiallaridan oltin, kumush, rux va boshqa nodir elementlarni aniqlash bilan bog‘liqdir.*

2.Kumushdan ishlangan, kumush ishlatilgan. M: *Kumush tanga.*

3. Ko‘chma ma’no. Kumushga nisbat bildiradi.M: *Suv mayda kumush tomchilarini sachratib, guvullab otiladi.*

4.Kumush. Xotin – qizlar ismi (O‘TIL, 429).



KUN – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, (ko‘n < kun). Qadimgi turkiy tilde kun so‘zi yerga issiqlik va nur taratib turuvchi planeta, quyosh kabi ma’nomlarni anglatgan (Sevortyan, III,101).

Kun – 1. Quyosh, oftob. M: *Mana kun ham terak bo‘yi ko‘tarilib qoldi.*

2.Sutkaning quyosh chiqqandan quyosh botgungacha bo‘lgan qismi. M: *Bo‘lmasa, men qaytay, kun ham kech bo‘layapti.*

3. Bir kecha – kunduzga – yigirma to‘rt soatga teng vaqt; sutka. M: *Bir yil 365 kun.*

4. Oy yoki haftaning ma’lum bir calendar sanasi; ma’lum bir xodisaga bag‘ishlangan kun, sana. M: *Shanba kuni siz keling, yakshanba kuni men boray.*

5. Kunlar bilan belgilanuvchi vaqt, payt, kez, davr. M: *Bolalik kunlarimda, uyqusiz tunlarimda, ko‘p ertak eshitgandim.*

6. Ob-havo, ob-havo sharoiti. M: *Mayning o‘rtalari bo‘lsada, kun issiq edi.*

7. Ayrim so‘zlar bilan qo‘llanib, ahvol, sharoit ma’nosini bildiradi. M: *Boshingga og‘ir kun tushdi.*



KUZ – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub, (ko‘:z > ko‘z > kuz). Bu so‘z qadimgi turkiy tilda ham yoz bilan qish oralig‘idagi fasl ma’nosini anglatgan va ko‘:z tarzida talaffuz qilingan (Sevortyan, III, 95).

Kuz. 1. Tirik mavjudotning ko‘rish a‘zosi. M: *Ko‘z kosasi.*

2. Nazar, nigoh; qarash. M: *Mansur hamon indamas, ko‘zlarini bir nuqtadan uzmas edi.*

3. Ko‘rish qobiliyati. M: *Ko‘zi xira, ko‘zi o‘tkir.*

4. Ko‘chma ma’no. Ba’zi narsalarning biror belgi bilan ajralib, ko‘zga o‘xshab ketadigan qismi, bo‘lagi. M: *Derazaning ko‘zi* (O‘TIL, II, 446).



KO‘KLAM – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot,

birlik, bosh kelishik, yasama,(ko‘kla +m = ko‘klam). Bu ot turkiy tilda unib o‘s, ko‘kar ma’nosini anglatuvchi “ko‘kla” fe’liga -m qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan (Sh.Raxmatullayev, O‘TEL,225).

Ko‘klam – yilning qish bilan yoz oralig‘idagi fasli; bahor. M: *Ko‘klam kelishi bilan dala ishlari qizib ketdi* (O‘TIL, 451).



KO‘CHMANCHI – (turkiycha so‘z), sifat, nisbiy sifat, oddiy daraja, yasama (ko‘ch+ma = ko‘chma +n =ko‘chman +chi). Bu sifat turkiy tilda “takror” ma’nosini ifodalovchi “ko‘ch” fe’liga “-ma” qo‘shimchasini va o‘zlik ma’nosini ifodalovchi -n qo‘shimchasini olgan shaklidan -chi qo‘shimchasi bilan yasalgan (Sh.Raxmatullayev, O‘TEL, 233).

Ko‘chmanchi. 1.O‘troq bo‘lmagan holda ko‘chib yurib, hayot kechiradigan. M: *Ko‘chmanchi qabila*.

2.Ko‘chma ma’no. *Saksovul o‘rmonzorlari ko‘chmanchi qumlar yo‘lini to‘sdi* (O‘TIL,II,478).



LAGAN – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, tub ot (lag‘un < lagun < lagan). Bu so‘z qadimgi turkiy tilda “yog‘ochni o‘yib yasalgan idish” ma’nosini anglatgan “lag‘un” so‘zidan hosil bo‘lgan (DLT, I,389).

Lagan. 1.Quyuq taomlar solish uchun mo‘ljallangan, tarelkadan katta yassi idish. M: *Mis lagan. Sopol lagan*.

2. Shevada. Kosadan katta, ichi chuqur sopol idish; tovoq. M: *Boshlarida qatiq ivitiladigan lagan bilan lyang oyoq, kir, juldur kiyimli bolalar shippillab o'tadi* (O'TIL, 483).



LAHJA – (arabcha soʻz) ot, turdosh ot, atama, birlik, bosh kelishik, tub (lahjat < lahja). Bu soʻz oʻzbek tiliga soʻz oxiridagi t tovushini tashlab qabul qilingan. Lahja soʻzi arab tilidagi “muntazam talaffuz qildi” maʼnosini bildiradigan “lahija” feʼlidan hosil qilingan (Sh. Raxmatullayev, II, 199).

Lahja – mahalliy dialektning bir necha shevadan iborat guruhi. M: *Oʻzbek tilining qipchoq lahjasi* (O'TIL, II, 493).



LAKLUK – (turkiycha soʻz) ot, turdosh ot, nutq aʼzosi, birlik, bosh kelishik, (lok < luk, lak < luk). Bu ot asli loʻk – loʻk holatga taqlid soʻzining maʼno taraqqiyoti bilan yuzaga kelgan, keyinchalik, takror soʻz bir soʻzga yaxlitlangan. Ogʻiz boʻshligʻidagi bu nom uning harakatchanligi asosida yuzaga kelgan.

Lakluk – ogʻiz boʻshligʻidagi kichik tilcha (O'TIL, II, 485).



LAVA – (lotincha soʻz) ot, aniq ot, turdosh ot, tub soʻz, birlik, bosh kelishik (ital. lava < lotincha < labes). Bu soʻz lotin tilidagi labes “oʻpirilish”, “yiqilish”, “koʻchki” degan maʼnolarni anglatuvchi soʻzdan hosil boʻlgan. M: *Vulqondan otilib chiqadigan, erigan yoki juda yopishqoq togʻ jinsi*. M: *Lavalar otilar. Cheksiz harorat* (O'TIL, 482).



LAVASH – (turkiycha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik (lav + osh = lavosh < lavash). Bu soʻz “lav” hamda “osh” soʻzlaridan hosil boʻlgan. Lavash soʻzi qadimgi tilimizda “qozon” maʼnosida kelganligi ham taʼkidlab oʻtilgan (Sevortyan, VII).



LAYLAK – (arabcha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub (laq – laq < laylak). Bu soʻz - arab tilidagi

tumshug‘ini bir-biriga urib tovush chiqardi degan ma‘noni anglatuvchi “laq-laq” so‘zidan hosil bo‘lgan (E.Shukur, “Bobo so‘z izidan”, 95).

Laylak. 1. Uzun oyoqli qushlar turkumiga mansub, tumshug‘i va oyog‘i uzun, parlari ola katta qush. M: *Laylakning ketishiga boqma, kelishiga boq.*

2. Atama. Balandga yuk chiqarish uchun qurilgan, tayanchig‘i o‘rtasida bo‘lgan richakka o‘xshagan moslama. M: *Razzoq saroy etagida laylak bo‘lib tikkaygan aravani ko‘zdan deb kechirdida: - Qo‘shsa bo‘ladimi? - deb so‘radi (O‘TIL, 484).*



LOCHIN – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub (lachun < lachin < lochin). Qadimgi turkiy tilda ham lochin so‘zi “ov qilishga o‘rgatiladigan yirtqich qush” ma‘nosini anglatgan va dastlab “lachun” tarzida talaffuz qilingan (PDP, 398).

Lochin. 1. Yirtqich qushlar turkumining chaqqon harakatli bir turi; ovchilar uni qo‘lga o‘rgatib, qush ovlaydilar. M: *Porillab uchadi cho‘lning lochini*

2. Ko‘chma ma‘no. Shu qushga nisbatli belgini bildiradi; epchil, chaqqon; shijoatli. M: *Mamajon lochin yigit, serharakat, betinim (O‘TIL, II, 510).*



LO‘NDA – (fors-tojikcha so‘z) sifat, asliy sifat, oddiy daraja, tub sifat. Lo‘nda so‘zining tub ma‘nosi hozirgi mazmuniga mutlaqo teskari bo‘lgan, forsiydagi bu so‘z asl ildizi “javrash”, “vaysash”, “ming‘irlash” kabi ma‘nolarni anglatgan (E.Shukur, “Bobo so‘z izidan”, 228). Lo‘nda – qisqa, ixcham va aniq.

M: *Xalq iborasi lo‘nda bo‘ladi (O‘TIL, 514).*



LA‘L – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik (la‘l (un) < la‘l). Bu arabcha ot qizil rangli tosh ma‘nosini anglatuvchi la‘l so‘zidan hosil bo‘lgan (Sh. Raxmatullayev, O‘TEL, 199).

La‘l. 1. Qizil qimmatbaho tosh; qizil yoqut. M: *La‘l yoqutga nisbatan yumaloqroq, qizil, tiniq va ravshan (O‘TIL, 491).*



MAHALLA – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, (mahalat (un) < mahalla). Bu so‘z arab tilidagi “istiqomat qildi” ma’nosini anglatuvchi “halla” fe’lidan hosil bo‘lgan (ARS, 188).

Mahalla. 1. Shaharning ma’lum bir hududni o‘z ichiga olgan va aholisi bir jamoaga birlashgan, o‘zini-o‘zi boshqarishga asoslangan ijtimoiy hududiy bo‘lagi. M: *Mahalla aholisi. Mahalla jamg‘armasi.*

2. Ayni bir hudud, mahallada yashovchilar; mahalla oqsoqollari. M: *To‘y masalasida mahalla nima desa shu bo‘ladi.*

3. Mahalla kengashi va u o‘rnashgan bino; mahalla guzari.

M: *Men mahallaga bir chiqib kelay-chi, nima yangilik bor ekan*(O‘TIL,II, 572).



MAKTAB – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (maktab (un) < maktab). Bu so‘z arab tilida “yozdi” ma’nosini anglatuvchi “kataba” fe’lidan yasalgan o‘rin otidir (ATG,152).

Maktab. 1. O‘qituvchi rahbarligida yosh avlodga savod o‘rgatib, uni ma’lumotli qiluvchi ta’lim-tarbiya muassasasi.

M: *Boshlang‘ich maktab. O‘rta maktab.*



MANGU – (turkiycha so‘z) sifat, nisbiy sifat, oddiy daraja, yasama (mang + i = mangi + gu = mangigu < mangu). Bu so‘z qadimgi turkiy tilda “abadiyat” ma’nosini anglatgan “bang” otining “mang” shaklidan -i qo‘shimchasi bilan yasalgan fe’lga -gu qo‘shimchasini qo‘shib yasalgan (Sevortyan, II,114).

Mangu – abadiy, umrbod. M: *U to so‘nggi nafasigacha mehnat, mashaqqat, azob ichida kechirgan bu dunyodan ko‘zlarini mangu yumguncha uni, Yo‘lchini eslagandir* (O‘TIL, II, 536).



MANFIY – (arabcha so‘z) sifat, nisbiy sifat, oddiy daraja, yasama (manfiy < manfiy). Bu so‘z arab tilidagi “inkor qildi” ma’nosini anglatuvchi “nafa” fe’lidan hosil qilingan otga -iy qo‘shimchasini qo‘shish bilan nisbiy sifat yasalgan (ARS,821-822).

Manfiy. 1. Mat.oid noldan kichik. M: *Manfiy son.*

2. Fizika zarrachalari elektrondan iborat bo‘lgan. M: *Manfiy zaryad.*

3. Kam qo‘llanadi. Yomon belgili; salbiy. M: *Unga musbat voqea ham manfiy voqea ham tez ta’sir qiladi* (O‘TIL, 540).



MASAL – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub (masal (un) < masal). Bu ot arab tilidagi “ko‘zga ko‘rindi” ma’nosini anglatuvchi “masala” fe’lidan hosil qilingan (ARS, 742).

Masal. 1. Kishilarga o‘git bo‘ladigan, xulosali, kichik majoziy hikoya. M: *O‘zbek xalq masallari.*

2. Eski kitobiy tilda. matal, maqol. M: *Ko‘yida men tosh boshimni urmagan ostona yo‘q. Elda bor shunday masal: jon chekmasang jonona yo‘q* (O‘TIL, II, 549).



MASHQ – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub, (mashaqa < mashq). Bu so‘z arab tilidagi

“taradi” ma’nosini anglatuvchi “mashaqa” fe’lidan hosil qilingan va arab tilidan “chiroyli yozuv”, “suvrat chizish uchun namunalari” ma’nosini anglatadi (ARS, 756).

Mashq. 1. Cholg‘u kuyi va uning ijrosi. M: *Yo‘ldosh otaga chalib bergan mashqingiz hali ham qulog‘imdan ketmaydi.*

2. Ko‘chma ma’noda. Kishining kayfiyati, shaxdi.

M: *Dadavoyga qizining mashqi past, ruhan ezilganroq tuyildi* (O‘TIL, II, 562).



MIYA – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (minga > miya). Bu so‘z qadimgi turkiy tilda mingi, mengiladi, menga tarzida talaffuz qilinib, “asab tizimining bosh kosasida joylashgan qismi”, “fikrlash a’zosi” degan ma’nolarni bildirgan (DLT, III, 413; DS, 340, 341, 342, 345).

Miya. 1. Odam va ba’zi hayvonlar asab tizimining markaziy bo‘limi; odamda tafakkur a’zosi. M: *Bosh miya, orqa miya.*

2. Odam va umurtqali hayvonlar suyagi bo‘shliqlarini to‘ldirib turuvchi to‘qima (ko‘mik).

3. Ko‘chma ma’no. Aql, ong. M: *Miyasi bor kishi, miyasi butun odam.*

4. Boshning qoq tepasi; bosh, kalla. M: *Miyasiga mushtlamoq* (O‘TIL, II, 604).



MUALLIM – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (muallim (un) > muallim). Bu so‘z asli “alima” fe’lining “o‘qitdi”, “o‘rgatdi” ma’nosini anglatuvchi “aleama” shaklidan hosil qilingan aniq nisbat sifatdoshi bo‘lib, arab tilidan “o‘qituvchi” ma’nosi bilan olingan (UAYA, 567).

Muallim. 1. Dars beruvchi kishi; o‘qituvchi, pedagog.

M: *Matematika muallimi, musiqa muallimi.*

2. Ta’lim beruvchi, birovga biror narsa o‘rgatuvchi kishi; ustod, ustoz (O‘TIL, II, 622).



MUSULMON – (arabcha so‘z) sifat, nisbiy sifat, oddiy

daraja, tub soʻz (muslimon>musulmon). Bu soʻz tojik tilidan olingan boʻlib, asli arabcha muslim soʻziga tojikcha koʻplik qoʻshimchasi -on qoʻshimchasini qoʻshish orqali hosil qilingan (TjRS, 536).

Musulmon. 1.Islom dinidagi kishi. M:*Sen bir moʻmin musulmonsan.*

2.Musulmon, Muslim (erkaklar ismi).



MUSICHA – (fors-tojikcha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama soʻz (mus+i+cha=musicha). Bu soʻzning asosi boʻlgan mus aslida *moʻs* qora rangli jonivor nomidir. I elementi esa izofa, soʻz oxiridagi -cha qoʻshimchasi sifat darajasini yasovchi qoʻshimchadir (B.Bafojev K.S.T).

Musicha-kaptarsimonlar oilasi gʻuraklar urugʻiga mansub, odamga yaqin yashaydigan, beozor, yuvosh qush.

M: *...boʻgʻotlardan chakillab suv tomadi, deraza raxlarida ku-kulab musichalar sayraydi* (OʻTIL, II, 648).



NABOTAT – (arabcha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, koʻplikda, bosh kelishikda, tub soʻz (nabot+ot > nabotot). Bu soʻz “oʻsimliklar olami” maʼnosini anglatadi. Nabotot soʻzi arab tilidagi “oʻsimlik” maʼnosini anglatuvchi “nabot” soʻzidan hosil

bo‘lgan (E.SH. Bobo so‘z izidan).



NARSA – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (ne ersa = ne ersa > ne:rsa > nersa > narsa). Qadimgi turkiy tilda “norso” tarzida talaffuz qilingan bu so‘z asli “nimadir” ma’nosini bildirgan; “ashyo, hodisa” ma’nosi keyin paydo bo‘lgan (PDP, 402).



NAVBATCHI – (ruscha so‘z) ot, turdosh ot, shaxs oti, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (navbat+chi). Bu so‘z asli arabcha “navbat” so‘ziga -chi qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan.



NAZM – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (nazm(un)>nazm). Bu arab tilidagi “durni ipga tizdi”, “tartibga soldi” kabi ma’nolarni anglatuvchi “nazama” fe’lidan hosil qilingan bo‘lib, arab tilida “durni ipga terish”, “she’riyat” ma’nolarini, O‘zbek tilida esa “she’r”, “she’riyat” ma’nolarini anglatadi (ARS, 812).



NAZORAT – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (nizarat > nazarat). Bu so‘z asli arabcha so‘z bo‘lib, “kuzatdi” ma’nosini bildiruvshi “nazara” fe’lidan hosil qilingan (UAYa, 568).



NASIHAAT – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (nasihat (un) > nasihat). Bu so‘z asli arabcha so‘z bo‘lib, “yaxshilikka da’vat qildi” ma’nosini anglatuvchi nasaha fe’lidan hosil qilngan (APS, 800).



NASR – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (nasr (un) > nasr). Bu so‘z asli arabcha so‘z bo‘lib, “sochdi” ma’nosini anglatuvchi “nasara”

fe'lining "prozada yozdi" ma'nosidan hosil qilingan (ARS, 784).



NAFS – (arabcha soʻz) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, tub soʻz (nafs (un) > nafs). Bu soʻz asli arabcha soʻz boʻlib, "intilish", "gʻurur" "hirs" kabi maʼnolarni anglatadi (ARS, 819).



NECHTA – (turkiycha soʻz) olmosh, soʻroq olmoshi, tub soʻz (necha+ta=nechata > nechta). Bu soʻz qadimgi turkiy tilda necha olmoshidan "dona" maʼnosini ifodalovchi -ta qoʻshimchasini qoʻshish bilan hosil boʻladi (DS, 356).



NE'MAT – (arabcha soʻz) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, tub soʻz (niʼmat > neʼmat). Bu soʻz asli arabcha soʻz boʻlib, "toʻkinlik bilan, mamnunlik bilan hayot kechirdi" maʼnosini anglatuvchi "naʼima" feʼlidan hosil boʻlgan (ARS, 814).



NOMUS – (arabcha soʻz) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, tub soʻz (namus > nomus). Bu ot asli arabcha soʻz boʻlib, "qonun", "vijdon", "oriyat" maʼnolarini anglatadi (ATS, 778).



NOTIQ – (arabcha soʻz) ot, shaxs oti, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub soʻz (natiq (un) > notiq). Bu soʻz asli arabcha soʻz boʻlib, "gapirdi", "bayon qildi" maʼnosini anglatuvchi "nataqa" feʼlidan hosil qilingan (ATG, 147).



NUTQ – (arabcha soʻz) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, tub soʻz (nutq(un)>nutq). Bu soʻz arabcha "gapirdi", "bayon qildi" maʼnosini anglatuvchi nataqa feʼlidan hosil boʻlgan aniq nisbat sifatdoshidir (UAYA, 568).



ODAM – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (adam < odam). Bu so‘z arab tilida “birinchi paydo bo‘lgan kishi” ma’nosini anglatadi (Sh.Raxmatullayev, II, 335).

Odam. 1. Fikrlash, so‘zlash va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan, shu tufayli boshqa hamma maxluqotdan ustun turuvchi jonli zot, kishi, inson. M: *Ibtidoiy odam.*

2. Kishilik jamiyatining ayrim bir a‘zosi, shaxs. M: *Yaxshi odam. Halol odam.*

3. Jamoa xo‘jaligi, oila a‘zolarining har bir turi; jon.
M: *Odam boshiga besh so‘mdan.*

4. Biror boy – badavlat yoki amaldor kishining hizmatkori yoki tarafdori.

M: *Keyingi yillarda xon odamlari qishloqma qishloq yurib ko‘proq paxta ekishni talab qilishayapti.*

5. O‘zga jamoa yoki oila vakili. M: *Lekin qizlaridan yashirincha kuyovnikidan odam kelib qolar, deb kutdilar (O‘TIL, III,84).*



OILA – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik (ailat < aila < oila). Bu so‘z arab tilida “qaramog‘idagi kishilarni boqdi” ma’nosini anglatuvchi “ala” fe‘lining ail(un) aniq nisbat sifatdoshidan –at (un) qo‘shimchasi

bilan yasalgan otdir (Sh. Raxmatullayev, II, 338).

Oila – 1. Er –xotin, ularning bola chaqalari va eng yaqin tug‘ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui; xonadon. M: *Ahil oila. San’atkorlar oilasi*.

2.Ko‘chma ma’noda. Bir maqsad, maslak bilan birlshgan ko‘p kishilar, xalqlar, mamlakatlar. M: *O‘zbekistonda turli millat vakillari bir oila bo‘lib yashamoqdalar*.

3. O‘simliklar bilan hayvonlar tizimida tuzilish jihatidan bir – biriga o‘xshash, kelib chiqish jihatidan ham o‘zaro yaqin bir necha urug‘ni o‘z ichiga olgan guruh. M: *Dukkaklilar oilasi*.

4. Qardosh tillar guruhi. M: *Oltoy tillar oilasi*.

5.Rafiqa, xotin. M:*Oilam maktabda o‘qituvchi* (O‘TIL,III,97).



OLMOSH – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, ilmiy atama, (al +ma = alma +sh = almash < olmosh). Bu so‘z asli “qo‘lga ol”, “o‘ziniki qil” ma’nosini anglatuvchi “al” fe’lining “takror” ma’nosini ifodalovchi -ma qo‘shimchasi qo‘shilgan “alma” shaklidan -“sh” harakat nomi qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilingan (Sevortyan, I,38).

Olmosh – ot, sifat, son o‘rnida qo‘llanadigan so‘z turkumi. M: *Kishilik olmoshi, ko‘rsatish olmoshi* (O‘TIL, III,115).



OLTI – (turkiycha so‘z) son, sanoq son, sodda son (alti < olti). Bu so‘z qadimda alt otiga sifat yasovchi – i qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan (Sevortyan, I, 142).

Olti – olti raqami va shu raqam bilan ifodalangan son, miqdor. M: *Olti kun*.

(O‘TIL, III, 118).

OLIM – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z(alim>olim). Bu so‘z asli arabcha so‘z bo‘lib, “bildi”, “bilimli bo‘ldi” ma’nosini anglatuvchi alima fe’lidan yasalgan asliy sifatdir (ATG, 43).

Olim. 1.Fanning biror sohasi bo‘yicha maxsus bilimga ega bo‘lgan kishi. M:*O‘zbekiston olimlari*.

2.Umuman bilimli kishi. M: *Olim bo‘lsang, olam seniki*.

3. Olim (erkaklar ismi) (O‘TIL, III, 113).



OLMA – (fors – tojikcha) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama, (olu < oli +ma = olima < olma). Bu so‘z yasama so‘z bo‘lib, turkiy tillardagi asosi al – ol bo‘lib, qadimgi qo‘llanilishida i unlisi ham asos qismida bo‘lgan (ali) yasovchi qo‘shimcha –“ma” turkiy tillar uchun umumiy bo‘lgan inkor ma’nosini ifodalaydi. Shuning uchun ham olma so‘zi olular (ular bir katta danakli: shaftoli, zardoli, olcha, oluboli,olxo‘rilardir) turiga kirmaydigan meva ma’nosini anglatadi (B.Bafoyev, KST, 14).

Olma. 1. Atirgullilar oilasiga mansub ko‘p yillik mevali daraxt. M: *Olma ko‘chati*.

2.Shu daraxtning mevasi. M: *Oq olma, qizil olma*.



ONA – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, birlik, bosh kelishik (ana < ona). Qadimgi turkiy tilda ham xotin kishiga o‘zi tuqqan bolasi shunday murojaat qilgan va bu so‘z ana tarzida talaffuz qilingan (Sevortyan, I, 279).

Ona. 1. Farzandi yoki farzandlari bo‘lgan xotin; bolali xotin. M: *Ko‘p bolali ona*.

2.Oila boshlig‘i, tarbiyachisi. M: *Siz hammasining onasi, u kishi ota*.

3. Keksa ayollarga xurmat yuzasidan ularning nomiga qo‘shib ishlatiladi.

M: *Tojixon ona, Norjon ona*.

4.Ko‘chma ma’no. Yaratuvchi, vujudga keltiruvchi. M: *Yer – hayotning onasi* (O‘TIL, III, 125).



ONG – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (a:ng >ang >ong). Qadimgi turkiy tilda “kishining fikrlash qobilyati” ma’nosini anglatgan bu ot a:ng tarzida talaffuz qilingan (Sevortyan, I,153).

Ong – 1. Odam ruxiy faoliyatining oliy shakli; kishining fikrlash qobilyati; aql, idrok.M: Bolaning ongini o‘stirish.

2. Odamning yoki odamlar guruhining ijtimoiy hayotni tushunishi, sezishi, unga munosabati. M: Siyosiy ong.

3. Voqelikning kishi miyasida uning butun ruhiy faoliyatini o‘z ichiga olgan va ma’lum maqsadga yo‘nalgan holda aks etishi. M: Ong miyaning funksiyasidir (O‘TIL, III, 126).



OPA – (turkiycha so‘z) ot, shaxs oti, turdosh ot, birlik, bosh kelishik, yasama (ab + a = aba >apa > opa). Bu so‘z qadimgi turkiy tildagi “yoshi katta bo‘l” ma’nosini anglatgan “ab” fe’liga – “a” qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan (Sevortyan, I,56).

Opa – 1. Bir ota – onadan tug‘ilgan farzandlar ichida o‘zidan kichiklarga (ukalarga, singillarga) nisbatan katta qiz.

M: *Nizomjon opasiga ko‘rinmay, yong‘oq orqasidan aylanib o‘tib ketdi.*

2. O‘zidan katta, ba‘zan kichik ayollarga hurmat yuzasidan ularning ismiga qo‘shib ishlatiladi. M: *Mastura opa, Malika opa* (O‘TIL,III,128).



OTA – (turkiycha so‘z) turdosh ot, shaxs oti, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (ata < ota). Qadimgi turkiy tilda ham farzand o‘z otasiga nisbatan shu so‘zni qo‘llagan va bu so‘z “ata” tarzida talaffuz qilingan (Sevortyan, I, 200).

Ota. 1. Farzandli, bola –chaqali er kishi. M: *Ota bo‘lmay, ota qadrini bilmas.*

2. Yoshi katta kishilarga murojaat qilishda yoki ularni hurmatlash uchun ishlatiladi. M: *Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi.*

3. O‘g‘il bolani erkalatish uchun ishlatiladi.

4. Ko‘chma ma’noda. Biror ish yoki harakatni boshlab bergan, unga asos slogan kishi haqida. M: *Abdulla Qodiriy o‘zbek romanchiligining otasidir.*

5. El – yurtga boshchilik qiluvchi, yoshi yoki mansabi ulug‘ zot haqida.

M: *Tayyorlan qizim, Senga yurt otasi, ellikboshimiz gapiradilar*(O‘TIL, III, 151).



OV – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, faoliyat-jarayon oti, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (a:g >a:v >ov). Bu ot qadimgi turkiy tilda dastlab “qush, baliq, hayvonni tutish quroli”

ma'nosini bildirgan, keyinchalik "tutish jarayoni"ni anglata boshlagan (Sevortyan, I, 63).

Ov. 1. Yovvoyi hayvon, baliq, qush va sh.k.ni turli yo'llar bilan tutish, ovlash yoki otish. M: *Baliq ovi*.

2. Ov qilinadigan, ovlanadigan jonivor; ilvasin. M: *Shu kunlarda Oloy tog'ida ov kam*.

3. Ko'chma. Qo'lga tushirilishi mo'ljallangan kimsa yoki narsa. M: *Yumaloq, qoragina odam qo'lidagi to'pponchani mahkam ushlagani holda gandraklab, so'kinib, "ovini"qidira boshladi*.

4. Ovchining o'ljasi. M: *Arslon og'zidan ov olinmas* (O'TIL, III, 78).



OVUL – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so'z (a:v+ul=a:vul>ovul). Bu ot qadimgi turkiy tilda "to'pla" ma'nosini anglatgan "a:g" fe'lining "a:v" shakliga "joy" ma'nosini ifodalovchi - (u)l qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilingan (Sevortyan, I, 65).

Ovul - ko'chmanchi chorvadorlar o'rnashgan joy; qishloq. M: Hasan qayiqchini Xivaning katta-kichigi, olis ovullardan keluvchilar ham taniydi (O'TIL, III, 81).



OY – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so'z (a:y>ay>oy).

Qadimgi turkiy tilda ham bu so'z "yerning yo'ldoshi", "yilning o'n ikkidan bir qismi" degan ma'nolarni anglatgan va bu so'z a:y tarzida talaffuz qilingan (Sevortyan, I, 98).

Oy. 1. Quyoshdan nur olib, yog'du sochuvchi samoviy jism, Yerning tabiiy yo'ldoshi. M: *O'n to'rt kunlik oy*.

2. Astronomik yilning o'n ikkidan biriga - Oyning quyosh atrofidan bir marta aylanib chiqish muddatiga yaqin vaqt oralig'I; o'lchov birligi: 28, 29, 30 yoki 31 kunlik davr. M: *Oy boshi. May oyi*.

3. Uch – to'rt kunlik oy shaklidagi bezak yoki belgi.

M: *Mezana ustidagi oy*.

4. Ayollar ismi tarkibiga kiradi yoki ayollar nomiga qo'shib,

erkalash, hurmatni bildiradi. M: *Oyposhsha, Oyoqiz, Qunduzoy* (O‘TIL,98).



OYOQ – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z(ay+aq=ayaq>oyoq). Bu ot qadimgi turkiy tildagi “qadamla” ma’nosini anglatgan “a:d” fe’lining ay shakliga –(a)q qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan (Sevortyan, I,103; PDP, 356; DLT,I, 112;DS, 27).

Oyoq – 1. Odam, hayvon, qush va umuman jonli organizmlar gavdasining tayanib turishi va yurishi yoki o‘rmlashi uchun xizmat qiladigan a’zo. M: *O‘ng oyoq, chap oyoq.*

2.Stol, stul, so‘ri, krovat kabi buyimlarning yerga tayanib turadigan qismi, poyasi. M: *Dadam suvog‘i ko‘chgan devorlarga, eski shkaf, oyog‘i maymoq stullarga bir qarab qo‘ydi.*

3. Oxir, odoq. M: *Ko‘chaning boshidan oyog‘igacha tosh terilgan.*


4. Fasl, davr va shu kabilarning oxiri, tugayotgan vaqti.

M: *Kuz kunlarining oyog‘i va qish kunlarining boshi edi.*

5. Chet, chekka; quyi tomon; etak. M: *Ekinzorning oyog‘i.*

6. Uyning, xonaning, eshikka yaqin o‘rni; poygak.

M: *Asalxon bir to‘da qizlar bilan oyoqroqda g‘uj bo‘lib turganini ko‘rgan Soraxon o‘rtaga tushib, yigitlarni chaqib oldi* (O‘TIL, III, 90).



PATIR – (arabcha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub (fatir (un) < fatir). Bu soʻz asli arabcha soʻz boʻlib, “nonushta qildi” maʼnosini anglatuvchi “fatara” feʼlidan yasalgan asliy sifatdir (ATG,43).

Patir – oshirilmagan, koʻpshitilmagan non. M:*Shoʻrvaga patir toʻgʻramoq* (OʻT/IL, 237).



PARTIYA – (lotincha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub soʻz(partiri>parties>partiya). Bu soʻz asli lotincha soʻz boʻlib, partiri “boʻlmoq” feʼlidan yasalgan partis “qism”, boʻlak” asosida paydo boʻlgan: lotincha partiri > lotincha, partis > fransuzcha, parties > ruscha, oʻzbekcha > partiya. Partiya soʻzi rus tiliga Pyotr I davrida fransuz tilidan kirib kelgan.

Partiya.1.Gʻoyaviy jihatdan maslakdosh, manfaatlari mushtarak boʻlgan kishilar guruhidan iborat, muayyan ijtimoiy guruh yoki qatlamlarning manfaatlarini ifodalovchi va himoya qiluvchi siyosiy tashkilot. M: *Xalq demokratik partiyasi*.

2. Biror maqsadda muayyan ishni bajarish uchun birlashtirilgan kishilar guruhi. M: *Geologiya-qidiruv partiyasi*.

3. Bir davra, bir qur oʻyin (boshdan oxirigacha). M: *Shaxmat partiyasi*.

4. Koʻp ovozli musiqa asarining (orkestr, xor yoki operaning) yakka sozanda yoki xonanda ijro etadigan tarkibiy qismi va unung

notasi. M: *“Layli va Majnun” musiqali dramasi*dagi *Qays partiyasi* (O‘TIL, III, 229).



PASPORT – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (passer+portus=pasport). Bu so‘z asli lotincha so‘z bo‘lib, passer “o‘tmoq” va portus “port” so‘zlarining qo‘shilishidan yasalgan: lotin. Passe +portus > fr. Passé port > ital; passa porto; nem. Pabport > rus, ozbek: passport (Shanskiy, SHES).



PAQIR – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub (baqir < paqir). Bu so‘z qadimgi turkiy tildagi “mis” ma’nosini anglatgan baqir so‘zidan ma’no taraqqiyoti natijasida o‘tib chiqqan bo‘lib, “misdan yasalgan idish” degan ma’noni anglatadi (Sevortyan, II, 46).

Paqir. 1. Suv va boshqa suyuqliklarni tashish va asrash uchun ishlatiladigan, bandli, silindrsimon idish; chelak. M: *Shunday xursandlikdan bir-ikki marta bo‘lsa, mening yonimda bir paqir ham qolmas ekan.*

2. Eski turkiy tilda. Ikki tiyinlik chaqa. M: *So‘zimga ishon, boshqa bir paqir ham pulim yo‘q* (O‘TIL, III, 244).



PICHAN – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (bich+an=bichan>pichan). Bu ot qadimgi turkiy tilda “kes”, “o‘r” ma’nolarini anglatgan “bich” fe’liga -an qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan (Sevortyan, II, 161).

Pichan-hayvonlarga ozuqa bo‘ladigan o‘t; o‘rib quritilgan o‘t; xashak. M: *Bir bog‘ pichan* (O‘TIL, III, 268).



PICHOQ – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (bich+aq=bichaq>bichoq>pichoq). Bu so‘z qadimgi turkiy tilda “kes” ma’nosini anglatgan “bich” fe’liga -aq qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan (Sevortyan, II, 160).

Pichoq. 1. Dastaga o‘rnatilgan yassi va uzun tig‘li ro‘zg‘or

asbobi. M: *Yo 'qolgan pichoqning sopi oltin.*

2. Turli asboblarning kesuvchi qismi. M: *Go'sht qiymalagich pichog'i* (O'TIL, III, 269).



POYGA – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, faoliyat-jaroyon oti, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (bay +ga = bayga < payga < poyga). Bu ot asli qadimgi turkiy tildagi “otda kim o'zdiga yugur” ma'nosini anglatgan “bay” fe'liga -ga qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan (Sevortyan, II, 32).

Poyga. 1. Kim o'zdi musobaqasi. M: *Yugurish poygasi.*

2. Ko'chma ma'noda. Biron ish –harakat, jarayonda boshqalarga nisbatan yuqori natijalarga, ko'rsatkichlarga erishish uchun bo'lgan harakat; musobaqa. M: *Paxta terimida Farg'ona poyganing oldida borayapti.*

3. Ko'chma ma'no. Biror sohada bir – biridan o'zib, ustun turish uchun bo'lgan harakat, raqobat. M: *Bugungi kunda yer yuzida yadro qurollari bilan qurollanish poygasiga qarshi ovoz tobora baralla yangramoqda* (O'TIL, III, 285).



PORLOQ – (turkiycha so'z) sifat, asliy sifat, oddiy daraja, yasama (parla+q=parlaq<porloq). Turkiy tilda qo'llangan bu so'z “nurdek ravshan”, “ravnaqli” kabi ma'nolarni anglatgan (Sh. Raxmatullayev, O'TEL, 271).

Porloq. 1. Porlab nur sohib turadigan, nurdek ravshan.

M: *Quyosh nuri juda ko'rkam, yuksak va porloq, Nurin hatto ayamaydi vayronadan ham.*

2. Ko'chma ma'no. Baxt-saodat, istiqbol sari boshlovchi; ravnaqli, nurafshon. M: *Porloq kelajak* (O'TIL, III, 297).



POG'ONA – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (baqan +a = baqana < bag'ana < pag'ana < pog'ona). Bu ot qadimgi turkiy tildagi “yog'och ustunni qoq” ma'nosini anglatgan “baqan” fe'liga -“a” qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan (Sevortyan, II, 42).

Pog'ona. 1. Zinaning, narvonning oyoq qo'yib chiqiladigan

va tushiladigan poyalaridan har biri; pillapoya. M: *Narvonning pog'onasi*.

2. Ko'chma ma'no. O'sish, yuksalish, taraqqiyot kabi tadrijiy jarayonlarning har bir bosqichi. M: *Taraqqiyot pog'onalari*.

3. Ko'chma ma'no. Amal, unvon, martaba kabilarning har bir bosqichi. M: *Domla o'zi yetgan pog'onani ham, oldinda uni kutib turgan martabalarni ham sevardi*.

4. Birin-ketin sodir bo'ladigan ish-harakatning har bir bosqichi. M: *Qiz eskichasiga yashirin ravishda sotildi. Endi eng so'nggi pog'ona-domla imomning nikoh o'qishi qoldi* (O'TIL, III, 305).



PUK – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so'z (bo'k >po'k>puk) . Bu so'z qadimgi turkiy tilda ham “oshiqning do'mboq tomoni” degan ma'noni anglatgan va bo'k tarzida talaffuz qilingan. Bo'k so'zi “qayrilgan”, “egilgan” ma'nosini anglatgan sifat bo'lib, sifatlanmishsiz (bo'k taman>bo'k)ishlatilishi natijasida “do'ng tomon”ma'nosini anglata boshlagan otga ko'chgan (Sevortyan, II, 291).

Puk. Oshiqning chikkaga qarama-qarshi, do'mboq tomoni.

M: *Qo'ying, o'sha qozi domlangizga ham otgan oshiqning hammasi pukkasi tushdi* (O'TIL, III, 319).



PO'LAT – (arabcha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so'z (bulad(un)>bulad>fo'lod>po'lat). Bu so'z asli arabcha so'z bo'lib, “temirning uglerod bilan qo'shilmasidan hosil bo'ladigan kulrang qattiq metal”ma'nosini anglatadi

(Sh.Raxmatullayev, II, 348).

Po'lat -1. Temirning ma'lum miqdordagi uglerod bilan qo'shilishidan hosil bo'lgan kulrang, cho'kichlanuvchi qattiq metal. M: *Zanglamaydigan po'lat*.

2. Shu metallardan tayyorlangan, yasalgan po'lat sim. M: *Po'lat qaychi, po'lat tish*.

3.Ko'chma ma'no. *Metinday mustahkam, buzilmas, yengilmas*.

4. Kuchli, zabardast. Masalan: *Po'lat qal'a*.

5. Po‘lat (erkak va xotin – qizlar ismi) (O‘TIL,328).



QADOQ I – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (qat//qad+aq=qadaq>qadoq). Bu ot eski o‘zbek tilida “qattiq holatga kel” ma’nosini anglatuvchi “qat” fe’lining qad shakliga -aq qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan (DS, 401).

Qadoq. 1. Odam terisidagi ko‘p ishqalanadigan va qisiladigan joyning qalinlashuvi, qattiq qavariq (ko‘proq oyoq panjalari), tovon, kaft, ba‘zan qo‘l panjalarida uchraydi. M: *Sobir aka og‘ir mehnatdan ezilgan, qo‘llari qadoq, mushaklari chayir bo‘lib ketgan edi* (O‘TIL, V,206).



QADOQ II – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (qada +q = qadaq < qadoq). Bu ot asli qadimgi turkiy tildagi “biriktir”, “sanch” ma’nosini anglatgan “qata” fe’lining keyin yuzaga kelgan qada shakliga -q qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan. Bu so‘z dastlab “mix” ma’nosini anglatgan, “chega” ma’nosi ma’no torayishi natijasida yuzaga kelgan (Sh.Raxmatullayev, O‘TEL,I, 502).

Qadoq. 1.Chega. M: *Bitta qadoq bilan butun bo‘ladigan likopcha*(O‘TIL,V,206).2.Qadoqlangan, chegalangan.

M: *Saltonbonu qadoq piyolaga shilpildoq solib berdi.*



QADOQ III – (turkiycha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub (qadaq < qadoq). Bu asli turkiycha soʻz boʻlib, “mix” maʼnosini anglatuvchi qadaq soʻzidan oʻsib chiqqan: qadimgi qoʻl tarozisining posangisidagi boʻlimlar mixcha bilan belgilangan, shunday boʻlimning har biri bir qadoq hisoblangan (SSTTN,II,7).

Qadoq – 3. Qiymat jihatidan bir funtga teng boʻlgan, qadimgi ogʻirlik oʻlchov birligi (bir funt = 409,513g). M: *Bir qadoq choy* (OʻTIL,V,206).



QAZI – (turkiycha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik,tub soʻz (qazi:< qazi). Bu soʻz qadimgi turkiy tilde datslab “qorin goʻshtining kindik atrofidagi yogʻli qismi” maʼnosini anglatgan, hozirgi maʼnosi ham aynan shu maʼnodan osib chiqqan (DLT, III, 243).

Qazi. Otning toʻsh va peshnob goʻshti; shunday goʻshtdan otning yoʻgʻon ichagiga tiqib tayyorlangan oziq-ovqat mahsuloti. M: *Kechki norin uchun katta qozonda yogʻli qazi pishadi* (OʻTIL, V,209).



QAZILMA – (turkiycha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (qazi +l = qazil + ma =qazilma). Bu soʻz turkiy tilda “kovla” maʼnosini anglatuvchi “qazi” feʼlining majhul nisbat yasovchi -l qoʻshimchasi bilan hosil qilingan shaklidan -ma qoʻshimchasi bilan yasalgan (Sh.Raxmatullayev, OʻTEL, I,504).

Qazilma. 1. Geolog. Yer ostidan qazib olinadigan narsalar (koʻmir, heft, ruda va sh.k). M: *Foydali qazilmalardan olinadigan mineral oʻgʻitlar.*

2. Arxeologiya. Yer ostida qolib ketgan va qazib topiladigan qadimiy yodgorliklar yoki ularning qoldiqlari; topilma, topildi.

3. Qadimiy yodgorliklarni yoki ularning qoldiqlarini topish va tekshirish yuzasidan olib boriladigan qazish ishlari (OʻTIL, V, 209).



QAZG‘OQ – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (qas + g‘a = qasg‘a +q = qasg‘aq = qazg‘aq < qazg‘oq). Bu so‘z asli turkiy tildagi “teri, po‘stloq” ma’nosini anglatgan “qas” otiga eski o‘zbek tilidagi -g‘a qo‘shimchasi bilan yasalgan fe’lga -q qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan (DS, 430).

Qazg‘oq. 1. Boshning sochli qismida paydo bo‘ladigan mayda qipiqalar.

M: Qazg‘oq bosh terisi quriganda paydo bo‘lib, ko‘pincha soch to‘kilishining asosiy belgisi hisoblanadi.

2. Ipak qurti, yosh buzoq va sh.k.ning nishxo‘rt aralash axlat (O‘TIL, V, 210).



QAYINSINGIL – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, shaxs oti, aniq ot, birlikda, bosh kelishikda, tub so‘z (qayin singil < qayinsingil). Bu so‘z qadimgi turkiy tildagi “xotinning tug‘ishganlari (eriga nisbatan)” ma’nosini anglatgan “qayin” so‘zi bilan “keyin tug‘ilgan qiz farzand” ma’nosini anglatuvchi singil so‘zidan tarkib topgan (DS, 500).

Qayinsingil – qayin singil (erning singlisi, uning xotiniga nisbatan va xotinning singlisi uning eriga nisbatan).

M: *Nurining kelinoylari shoshib-pishib o‘rinlaridan turishdida, qayinsingilni qarshi olish uchun hovliga tushishdi* (O‘TIL, V, 216).



QAYIQ – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama, (qiy < qay +g‘i + q = qayg‘iq < qayiq). Bu so‘z qadimgi turkiy tildagi “yonlamasiga, yotiq holatda kes” ma’nosini anglatgan qiy fe’lining o‘zgargan qay shakliga -g‘i qo‘shimchasi hamda - q ot yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishidan paydo bo‘lgan (DS, 406, 440).

Qayiq – daryo, ko‘l va b. suv havzalari uchun mo‘ljallangan suzish vositasi (O‘TIL, V, 213).



QAYMOQ – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot,

birlik, bosh kelishik, yasama (qay + maq = qaymoq). Bu soʻz qadimgi turkiy tilda “yogʻli boʻl” maʼnosini anglatgan “qay” feʼliga -maq qoʻshimchasini qoʻshish bilan hosil boʻlgan (DLT, III, 115).

Qaymoq – 1. Bir necha vaqt turgan, saqlangan sut betida paydo boʻladigan yoki sutdat separator yordamida yoki boshqa yoʻl bilan ajratib olingan quyuq, yogʻli mahsulot. M: *Quyuyq qaymoq*.

2. Koʻchma maʼno. Kishi yoki narsalarning eng yaxshi qismi, sarasi, asillari. M: *Yigitlarning qaymogʻi dalada. ..*

3. Koʻchma maʼnoda. Biror ish, narsa va shu kabilar ning natijasi, hosili, xullasi. M: *Yerning qaymogʻi mehnat qilganniki (OʻTIL, V, 213).*



QAYCHI – (turkiycha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (qiy > qay + ich = qayich +i = qaychi). Bu soʻz qadimgi turkiy tilda yotiq holatda kes maʼnosini anglatgan “qiy” feʼlining unlisi oʻzgargan qay shaklidan -“ich” qoʻshimchasi bilan ot yasalgan va unga kuchaytirish, takror maʼnosini ifodalovchi -i qoʻshimchasi qoʻshilgan (DS, 406).

Qaychi – yupqa narsalarni, mato, qogʻoz va shu kabilarni kesish uchun ishlatiladigan, oʻrta yeridan bir-biriga vint bilan biriktirilgan ikki tigʻdan iborat dastali asbob. M: *Oʻtkir qaychi, tok qaychi (OʻTIL, V,222).*



QALDIRGʻOCH – (turkiycha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub soʻz (qargʻilach>qarligʻach>qardigʻach>qardirgʻach>qaldirgʻach>qaldirgʻoch). Bu soʻz qadimgi turkiy tilda ham “qanoti ingichka va uzun, juda tez uchadigan, qora-ola rangli chumchuqsimon qush” maʼnosini anglatgan va bu soʻz asli qargʻigʻach, qarligʻach tarzida talaffuz qilingan. Qargʻilach soʻzi “koʻrshapalak” maʼnosini ham anglatgan. Qarligʻach soʻzi esa bir maʼnoli soʻz boʻlib, faqat qaldirgʻoch maʼnosini anglatgan (DLT, I, 479;DS, 426, 428).

Qaldirgʻoch. 1.Chumchuqsimonlar turkumining bir oilasini tashkil etadigan, qanoti ingichka va uzun, juda tez uchadigan,

qora-ola kichkina qushcha. M: *Tuya qaldirg'och, tog' qaldirg'ochi, shahar qaldirg'ochi.*

2. Ko'chma ma'no. Biror narsaning paydo yoki sodir bo'lish belgisi; boshlab beruvchi, darakchi. M: *Jamoamizda yangi va ulug' ishning qaldirg'ochlari bo'lasiz* (O'TIL, V, 227).



QALPOQ – (turkiycha so'z) ot, turdosh, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so'z (qali+ba=qaliba+q = qalibaq> qalbaq> qalpaq> qalpoq). Qalpoq so'zining tarkibi bo'lgan “qali” so'zi asli qadimgi turkiy tilda qo'llangan fe'l bo'lib, “ko'taril” ma'nosini anglatgan va –ba qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan otga kichraytirish ma'nosini ifodalovchi -qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilingan (SSTTN, II,21; DS, 411).

Qalpoq. 1.Yupqa namatdan qilingan bosh kiyimi. M:*Baxmal jiyakli oq qalpoq.*

2.Har qanday to'qima yoki matodan tikilgan bosh kiyim.

M: *Bolalar qalpog'i, paxol qalpoq.*

3.Kaska. *Mis qalpoq, po'lat qalpoq.*

4.Shevaga xos so'z. *Do'ppi-kallapo'sh.*

5.Narsalar ustini qoplab, berkitib turadigan soyabon, yoki qopqoq. M:*Shipga osig'liq qirqinchi chiroqning qalpog'i uy devorlarining tepa yog'iga cho'ziq soya solgan.*

6.Biror narsaning qalpoqli qismi, kallagi, kallak. M: *Mix qalpog'i, zamburug' qalpog'i* (O'TIL, V, 229).



QIZ – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so'z(qiz). Bu so'z qadimgi turkiy tilda ham “ayol jinsiga mansub farzand”, “balog'at yoshiga yetmagan ayol” ma'nolarini anglatgan “qiz” so'zi tarkibidagi “i” unlisi qattqlik belgisiga ega bo'lib, keyinchalik bu holat yo'qolgan (DLT, I, 315; DS, 449).

Qiz. 1.Balog'at yoshiga yetmagan ayol. M: *yosh qiz, o'quvchi qiz.*

2.Xotin jinsiga mansub farzand (o'z ota-onasiga nisbatan).

M: *Uning uch o'g'il, ikki qizi bor.*

3.Balog'atga yetgan, ammo hali erga tegmagan ayol;

ma'suma, bokira. M: *Qizmi,juvonmi,Gulnormi-baribir,man dadamning yosh xotin olishini xohlamayman, dedi Salim.*

4.Qizlarga yoki yosh juvonlarga nisbatan murojaatda ishlatilib, hurmat, erkalash, o'zini yaqin olish singari ma'nolarni ifodalaydi. M: *Yozib bering, aylanay, poshsho qiz* (O'TIL, V,226).



QO'YIN – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik,yasama so'z(qoy+un=qoyun>qoyin>qo'yin). Bu so'z qadimgi turkiy tilda “badanning ko'krak bilan kiyim oralig'i” ma'nosini anglatgan “qoy” otiga kichraytirish ma'nosini ifodalovchi -un qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilingan (DS, 453).

Qo'yin. 1. Ko'krak va uni yopib turgan kiyim orasidagi joy. M: *Daftarlarini qo'yniga soldi.*

2.Ko'chma ma'no.Quchoq, og'ush. M: *Tabiat qo'ynida yayramoq* (O'TIL, V, 399).



QO'L – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so'z (qo:l>qo'l).

Bu ot qadimgi turkiy tilda “odamning yelkadan barmoq uchigacha bo'lgan a'zosi” ma'nosini anglatgan “qol” otidan kelib chiqqan (DS, 454, DLT, III, 148).

Qo'l. 1.Odamning barmoq uchlaridan yelkasigacha bo'lgan qismi, a'zosi.


M: *Baquvvat qo'llar. Qo'lni oldinga cho'zmoq.*

2. Shu a'zoning bilakdan barmoqlar uchigacha bo'lgan qismi; panja. M: *Qo'l bilan silamoq.*

3. Ish-mehnat bajaruvchi a'zo(vosita)sifatida.M:*Qo'lim band.*

4. Hayvonlarning oldingi oyoqlari.M:*Qo'yning qo'li va soni.Qo'l go'shti.*

5. Barmoq. M: *Besh qo'l barobar emas* (O'TIL, V, 405).



RABOT – (arabcha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub soʻz (ribat>rabat>rabot). Bu arabcha soʻz “joylashdi” maʼnosini anglatgan rabata feʼlidan hosil qilingan (ARS, 283).

Rabot. 1. Mustahkamlangan qoʻrgʻonlarda soqchilar turadigan joy yoki bir-biridan maʼlum masofada joylashgan qoʻrgʻon. M: *Mirzachoʻldagi har bir daraxt, uy, rabot juda koʻp nomaʼlum qahramonlarni hikoya qilib berishi mumkin.*

2. Savdo yoʻllaridagi mustahkamlangan manzil, karvonsaroy. M: *Ariq qazmoqdamiz, choʻllarda ish koʻp. Rabotlar ham qurish kerak.*

3. Shahardan chetroqdagi turar joy. M: *Shaharning mehnatkash hunarmandlar yashaydigan yangi qismi- rabotda hayot qaynaydi* (OʻTIL, V, 332).



RADIO – (lotincha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub soʻz (radiare>radio). Bu soʻz lotin tilidagi “nur taratmoq” maʼnosini anglatgan radiare feʼlidan hosil qilingan. Lotincha>radiare; Nemischa>radio; ruscha oʻzb>radio. Radio soʻzi rus tiliga XX asrda nemis tilidan kirib kelgan.

Radio. 1. Signal, ovoz kabi axborotlarni maʼlum masofaga elektromagnit toʻlqinlar yordamida simsiz uzatish va qabul qilish

usuli. M: *Radio orqali boshqarish.*

2. Fan-texnikaning ushbu usul asosidagi fizik hodisalarni o‘rganish, bu usuldan turli sohalarda keng foydalanish bilan bog‘liq sohasi.

3. Ommaviy axborot vositalaridan biri- matnni va musiqiy dasturlarni eshittirish; radioeshittirish. M: *Ammo Azizxon bo‘layotgan voqealarga beparvo. Kim qancha ishlayapti, radio nimalar deyapti-qiziqmasdi.*

4. Radiopriyomnik; reproduktor. M: *Faqat ko‘cha betidagi simyog‘ochda radio cho‘lni boshiga ko‘tarib gapirardi (O‘TIL, V, 338).*

Radio Sankt-Peterburg shahrida A.S.Popov tomonidan kashf etilgan.



RADIUS – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (radius). Bu so‘z lotin tilidan olingan bo‘lib, “nur” degan ma‘noni anglatadi. Radius so‘zi rus tiliga Pyotr I davrida o‘zlashgan (Shanskiy. SH.E.S).

Radius-aylana yoki sharning biror nuqtasini uning markazi bilan tutashtiruvchi to‘g‘ri chiziq kesmasi (O‘TIL, V, 341).



RAKETA – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (fransuzcha raquette<italyancha <rocchetta;lotincha<rete). Bu so‘z italyan tilidagi rocca, ya‘ni “urchuq”, “duk” so‘zlaridan suffiks yo‘li bilan yasalgan. Italyanча rossa>italyanча roccheto nemischa>rakete ruscha o‘zbekcha>raketa. Raketa so‘zi rus tiliga Pyotr I davrida o‘zlashgan (Shanskiy. SHES).

Raketa. 1. Ichidagi zaryadi yonganda osmonga ko‘tariladigan, mushakbozlikda yoki harbiy ishlarda signallar berish va kerakli joylarni yoritish uchun qo‘llanadigan snaryad; mushak.

M: *Qishloqning kun botish tomonidagi o‘rmon burchagidan ikki marta oq raketa otildi.*

2. Reaktiv kuch ta‘sirida harakatlanadigan uchuvchi apparat. M: *Tinchlik maqsadida qo‘llanadigan raketalar. Jangovar*

raketalar (O‘TIL, V, 345).



RAYHON – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (rayhan>rayhon). Bu arabcha so‘z “hid taratdi” ma’nosini anglatuvchi “raha” fe’lidan hosil bo‘lgan asliy sifat bo‘lib, asli “hid taratuvchi o‘simliklar” ma’nosini anglatgan, keyinchalik shunday xususiyatli o‘simliklardan biri “ovqatga oshko‘k sifatida qo‘shiladigan xushbo‘y o‘simlik” ma’nosini anglatib, ot so‘z turkumiga oid so‘zga aylangan (SH.Rahmatullayev. O‘TEL,II, 352).

Rayhon. 1. Labguldoshlarga mansub oshko‘k uchun ekiladigan bir yillik xushbo‘y o‘simlik. M: *Osh rayhon.Jambil, rayhonning isi yetti mahalla narida dimoqqa uriladi.*

2. Rayhon(xotin-qizlar ismi)(O‘TIL, V, 344).



RAMAZON – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z(ramadan>ramazan>ramazon). Bu arabcha so‘z “qiyinchilik keltirdi” ma’nosini anglatgan ko‘p ma’noli “ramida” fe’lidan hosil qilingan (ARS, 314).

Ramazon. 1. Qamariy yil hisobida 30 kundan iborat to‘qqizinchi oyning arabcha nomi (shariatga ko‘ra, bu oy davomida musulmonlar ro‘za tutadilar). M: *Ramazonning oxirgi haftasi qolib, katta hayitning bahor oylariga to‘g‘ri kelgani hammaga sevinch bag‘ishlardi.*

2. Shu oyda bolalar va gadoylar eshikma-eshik yurib aytadigan qo‘shiq. M:*Ramazon aytmoq.*

3. Ramazon(erkaklar ismi) (O‘TIL, III, 346).



RAMZ – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (ramz(un)>ramz). Bu so‘z arabcha “belgi qo‘ydi” ma’nosini anglatuvchi ramaza fe’lidan hosil qilingan.

Ramz. 1. Biror g‘oya, tushuncha, hodisa kabilarni ifodalovchi, eslatuvchi shartli belgi, ishora. M: *Kabutar-tinchlik ramzi.*

2. Qochiriq yoki ishora bilan aytilgan gap; imo-ishora, shama.

M: *Latifa, askiya, ramz-u kinoya, O‘tar ulfatlar ichra benihoya.*

3. Ramz(erkaklar ismi) (O‘TIL, III, 346).



RASSOM – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z(rassam>rassom). Bu so‘z arab tilida “rasm soluvchi” ma’nosini anglatuvchi “rassam” otidan hosil qilingan (UAYA, 240).

Rassom - rasm soluvchi san’atkor.M: *O‘zbek xalq rassomlari.*



RAQAM – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik(raqm>raqam).

Bu so‘z arab tilida “miqdor ma’nosini ifodalovchi ramzni yozdi” ma’nosini ifodalovchi “raqama” fe’lidan hosil qilingan (ARS, 309).

Raqam. 1. Sonni ifodalovchi grafik belgi. M: *Tabiiyki, bu raqam sizni dahshatga soladi.*

4. Biror son bilan ifodalangan miqdor, ko‘rsatkich.

M: *Raisning oxirgi yakunlovchi so‘zi, Qo‘chqorovning nutqiday, raqamlar, muvaffaqiyatlar, maqtovdan nari o‘tmasdi.*

3.Bir turdagi predmetlarga tartib bilan qo‘shilgan son; no‘mer. M: *Tartib raqami.*



RAHMAT – (arabcha so‘z) undov so‘z, urf-odat undovi, soda (rahmat(un) < rahmat). Bu so‘z arabcha rahm - shafqat qildi” ma’nosini anglatuvchi “rahima” fe’lidan hosil qilingan (ARS, 291).

Rahmat. 1. Tashakkur va minnatdorchilikni ifodalovchi so‘z. M: *Katta rahmat.* 2. Tashakkur, minnatdorchilik, shukronalik.

M: *Kim yaxshilki urug‘ini sepsa, rahmat hosilini oladi.*

3. Marhamat, muruvvat. M: *Xudoyo, rahmatingdan o‘rgilay, oshxo‘rga – osh, nonxo‘rga non yetkuzursan* (O‘TIL, 363).



REKLAMA – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (reclamare>reklama). Bu so‘z lotin

tilidagi “qichqirmoq”, “baqirib chaqirmoq” ma’nolarini anglatuvchi *reclamare* soʻziga borib taqaladi: lotincha *reclamare* > fransuzcha > *reclame* > ruscha, oʻzbekcha > *reklama*. *Reklama* soʻzi rus tiliga Pyotr I davrida fransuz tilidan oʻtgan boʻlib, dastlab reklamalar ogʻzaki shaklda boʻlgan (Shanskiy. SHES).

Reklama. 1. Muayyan tovar yoki koʻrsatilgan xizmat turlari haqida xaridorlarni xabardor qilish, ularga nisbatan talab ehtiyojni yuzaga keltirish yoki kuchaytirish maqsadida ana shu tovar va xizmatlar toʻgʻrisida berilgan maʼlumot. M: *Savdo reklamasi*.

2. Biron shaxs, tashkilot, narsani ommalashtirish maqsadida ular haqida maʼlumotlar tarqatish. M: *Siyosiy reklama*.

3. Shu maqsadda chiqarilgan eʼlon, plakat. M: *Reklama osmoq* (OʻTIL, V, 374).



SAKKIZ – (turkiycha soʻz) son, miqdor son, sanoq son, tub son, (*sakiz* < *sakkiz*). Bu soʻz qadimgi turkiy tilda ham yeti bilan toʻqqiz oraligʻidagi butun miqdor maʼnosini anglatgan soʻz boʻlib, *sakiz* tarzida talaffuz qilingan (PDP, 420).

Sakkiz – 8 raqamini va shu raqam bilan ifodalangan son, miqdorni ifodalaydi. M: *Yettidan keyin sakkiz keladi*.



SANA – (turkiycha soʻz) feʼl, harakat feʼli, boʻlishli, aniq nisbat, oʻtimli, yasama (san+a=sana). Bu soʻz qadimgi turkiy tildagi “hisobla” maʼnosini anglatgan “sa” feʼliga -n qoʻshimchsini qoʻshish bilan yasalgan, “adad” miqdor maʼnosini anglatuvchi “san”otiga -a qoʻshimchasini qoʻshish bilan yasalgan (PDP,419; DLT, III,290;DS, 483).

Sana. 1.Yil hisobi; yil. M: *Sanai milodiy*.

2.Biror voqea sodir boʻlgan yil, oy, kun va shu haqdagi maʼlumot. M: *Tarixiy sana* (OʻTIL,III,437).



SARIMSOQ – (turkiycha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot,birlik, bosh kelishik, yasama soʻz (saru + m = sarum +sa = sarumsa +q = sarumsaq < sarimsaq < sarimsoq). Bu soʻz qadimgi turkiy tildagi “ora” maʼnosini anglatgan saru feʼliga -m qoʻshimchasi qoʻshilib ot yasalgan va undan – sa qoʻshimchasi bilan feʼl yasalgan, keyin bu feʼldan -q qoʻshimchasi bilan ot yasalgan (KPS, 637).

Sarimsoq. 1. Piyozlar turkumiga mansub, ikki yoki koʻp yillik oʻsimlik va uning ovqatga ishlatiladigan oʻtkir hidli, achchiq piyozi; sabzavot ekini. M: *Sarimsoq, rayhon hidi dimoqqa urildi*.

2. Sarimsoq (erkaklar ismi) (OʻTIL, III, 449).



SARIQ – (turkiycha soʻz) sifat, asliy sifat, oddiy daraja, tub sifat (sarigʻ < sariq). Bu soʻz qadimgi turkiy tilde ham somon rangli maʼnosini anglatgan (PDP, 420; DLT, I, 355; DS,488).

Sariq. 1. Somon, zarchava, tilla kabi narsalar tusidagi rang. M: *Sariq ipak*.

2. Malla rang, malla (soch, tuk, teri haqida). M: *Sariq soch*.

3.Tuxumning oqsil moddasi oʻrtasidagi qismi. M: *Tuxumning oqini oqlab ye, sarigʻini – saqlab*.

4. Jigardagi jiddiy salbiy oʻzgarishlar tufayli teri, koʻz oqining sargʻayishidan iborat ogʻir va yuqumli kasallik nomi; gepatit. M: *Sariq kasallik*.



SEN – (turkiycha so‘z) olmosh, kishilik olmoshi, birlik, II shaxs (si +n = sin > sen). Bu so‘z qadimgi turkiy tilda “tinglovchi” ma’nosini anglatgan si so‘ziga “yakka” ma’nosini ifodalovchi -n qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilingan (PDP,282).

Sen. 1. O‘zidan kichiklarga yoki yaqin kishilarga murojaat tarzida yoki ularning nomi o‘rnida ishlatiladigan so‘z. M: *Sen Pushkinning sevgan malagi, Sen – Gyote orzu etgan qiz.*

2. Ko‘plik shaklida. Tinglovchiga nisbatan mensimaslik, bepisandlik kabi ma’noni bildiradi. M: *Hali shoshmay tur, senlarga bir jazo beraylik, boshqa diyonatsizlarga ham ibrat bo‘lsin.*

3. Jonsiz narsalarga murojaat tarzida yoki ularning nomi o‘rnida ishlatiladi. M: *Ajal, sen nayzangni sanchdingmi chindan, O‘zbek she‘riyatini pahlavoniga.*



SIZ – (turkiycha so‘z) olmosh, kishilik olmoshi, II shaxs ko‘plik (si+z=siz). Bu olmosh asli qadimgi turkiy tildagi “tinglovchi” ma’nosini bildirgan si so‘ziga “ikki” (ko‘p) ma’nosini ifodalagan -z qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilingan. Bu olmosh qadimgi turkiy tilda ham II shaxs birlik, hurmat bilan murojaat qilish ma’nosida ishlatilgan (DLT, III,136).

Siz. 1. O‘zidan katta kishining yoki hurmat bildiriladigan shaxsning nomi o‘rnida qo‘llanuvchi so‘z (tinglovchiga nisbatan). M: *Qimirlamang, otaxon! Siz kelganda, biz tursak yarashadi, biz kelganda, siz tursangiz, xunuk ko‘rinadi.*

2. Ko‘pchilikka qilingan murojaatda qo‘llanadi. M: *Mana, Nazira xola ham, Shahodat xola ham kelishdi. Yaxshi bo‘ldi. O‘zim ham sizlarni yig‘ib, ikki og‘iz gaplashmoqchi edim (O‘TIL, III, 496).*



SIGIR – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, narsa oti, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (sig‘ir > sigir). Sig‘ir so‘zi qadimgi turkiy tilda “urg‘ochi qoramol” ma’nosini anglatgan

(DLT,I, 344).

Sigir. Buzoqlagan urg‘ochi qoramol. M: *Hovli etagidagi og‘ilxona tomondan sigirning pishillagani, allanimaning tap – tap etib yerga tushgani eshitildi* (O‘TIL, III, 492).



SINF – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z, (sinf(un) > sinf). Bu so‘z arab tilida “xiliga, turiga qarab guruhlab” ma’nosini anglatuvchi “sannafa” fe’lidan hosil bo‘lib, arab tilida “tur”, “nav”, “guruh” ma’nolarini anglatadi (ATG,142;ARS,447).

Sinf – 1. Kishilarning tarixan shakllangan ishlab chiqarish tizimida, ijtimoiy mehnatni tashkil etishda muayyan mavqe va o‘ringa ega bo‘lgan, ishlab chiqarish vositalariga, ijtimoiy boylikning taqsimlanishiga bir xil daxldorligi va manfaatlarining umumiyliigi jihatidan birlashgan katta guruhi; nisbatan barqaror bo‘lgan katta ijtimoiy qatlam. M: *Mulkdorlar sinfi* (O‘TIL, III, 516).

Sinf. 2. (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, bosh kelishik, birlik, tub so‘z (sinf(un) > sinf). Bu so‘z sinf I so‘zi asosida yuzaga kelgan bo‘lib, “maktabda bir o‘quv yiliga teng pog‘ona”, “maktabda mashg‘ulot o‘tkaziladigan xona” kabi ma’nolarni anglatgan (O‘TIL, III, 516).



SIFAT – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, atama oti, aniq ot, tub so‘z (sifat (un) > sifat). Bu so‘z ko‘p ma’noli vasafa fe’lining “aniqladi”, “tasvirladi” ma’nosi asosida hosil qilingan bo‘lib, arab tilida “belgi – xususiyat”, “belgi ma’nosini anglatuvchi so‘zlar turkumi” ma’nolarini anglatadi (ARS,891,UAYA,568).

Sifat. 1. Narsa, voqea-hodisa va shu kabilarni ularning o‘ziga xos belgi va ichki xususiyatlariga ko‘ra ifodalovchi falsafiy tushuncha. M: *Miqdorning sifatga aylanishi*.

2. Narsaning, kimsaning ijobiy yoki salbiy xususiyati, fazilati, xislati. M: *Inson sifatлари ichida kamtarlik eng yaxshi fazilatdir*.

3. Molning, mahsulotning yoki ishning yaroqlilik darajasi, qo‘yilgan talablarga qanchalik javob bera olishini belgilovchi xususiyati.

M: *Mahsulotning sifatini yaxshilamoq.*

4. Qo'shma so'z tarkibida "o'xshash", "-simon" kabi ma'nolarni bildiradi.



SIRTLON – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so'z (sirt+la=sirtla+n=sirtlan). Bu ot qadimgi turkiy tilda "dag'al jun" ma'nosini anglatgan "sirt" otidan -la qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan fe'lga -n qo'shimchasini qo'shib yasalgan (TPS, 542; KPS, 683).

Sirtlon. O'limtik bilan oziqlanadigan, bo'ynida yo'li bor, rangi yashash joyiga moslashadigan yirtqich sutemizuvchi hayvon. M: *Ikki sirtlon bir sirtlonning sirtin yirtar* (O'TIL, III, 524).



SIRG'A – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelshik, yasama so'z (siri+q=siriq+a=siriqa>sirig'a>sirg'a). Bu ot qadimgi turkiy tildagi "zich qilib, pishiqlab tik" ma'nosini anglatgan siri fe'lga -q qoshimchasini qo'shish orqali hosil qilingan (DLT, III, 278).

Sirg'a. Quloqqa taqiladigan bezak buyum; isirg'a, zirak.

M: *Kumush sirg'a* (O'TIL, III, 525).



SICHQON – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, narsa oti, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so'z (sichg'an > sichqan > sichqon). Qadimgi turkiy tilda ham bu so'z "kalamushdan kichik kemiruvchi sutemizuvchi hayvon" ma'nosini bildirgan.

Sichqon. 1. Yer yuzida keng tarqalgan, xavfli kasalliklar tarqatadigan kichik kemiruvchi sutemizuvchi hayvon.

M: *Qayerdadir yulg'un tagida cho'l sichqonimi, nimadir nogoh shitirladiyu, Zulxumor cho'chib tushdi.*

2. Muchal yil hisobida birinchi yil nomi. M: *Uning yili sichqon.*



SOAT – (arabcha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik,

bosh kelishik, yasama soʻz (saʻat(un) > soat). Bu soʻz arab tilida “joyladi”, “qamrab oldi” maʼnosini anglatuvchi “saʻa” feʼliga -at (un) qoʻshimchasini qoʻshish orqali yasalgan ot (Sh.Rahmatullayev, II, 387).

Soat. 1. Sutkaning 24 dan bir ulushiga teng vaqt va shu muddatni koʻrsatuvchi vaqt oʻlchovi. M: *Bir soat – oltmish daqiqa.*

2. Tush paytidan yoki yarim kechadan boshlab shu oʻlchovda hisoblanadigan vaqt oraligʻi; payt. M: *Majlis roppa – rosa soat birda boshlandi.*

3. Vaqtni sutka davomida shu oʻlchovda oʻlchaydigan asbob. M: *Oltin soat. Choʻntak soat.*

4. Oʻquv mashgʻuloti uchun belgilangan qirq daqiqa yoki qirq besh daqiqali dars, vaqt. M: *Oʻzbek tili uchun haftada toʻrt soat ajratilgan.*

5. Umuman, vaqt, fursat, payt, on. M: *Tole soatini kutmoqdan oʻzga ilojimiz yoʻq.*

6. Maʼlum maqsad uchun belgilangan, xos vaqt. M: *Qabul soatlari. Ish soati.*

7. Soat (erkaklar ismi).



SOCH – (turkiycha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, narsa oti, birlik, bosh kelishik (sach > soch). Qadimgi turkiy tilda ham ushbu soʻz “boshda oʻsadigan qil tolalar qoplamasi” maʼnosini anglatgan (PDP,418; DLT,I,311, DS,479).

Soch. 1. Odamning bosh terisida oʻsadigan qil tolalar qoplamasi va ularning har biri. M: *Siyrak soch. Quyuyq soch.*

2. Biror tarzda oʻstirilgan va tartibga solingan shunday tolalar majmui. M: *Oʻrtadan farq ochib qoʻyilgan soch.*

3. Koʻchma maʼnoda. Tola, nur singari narsalar haqida.

M: *Qorli togʻlar orqasidan Atlas sochin tarab quyosh, Goh moʻralab oʻynatar qosh, Xanda sochar dudogʻidan* (OʻTIL,III,557).



SUV – (turkiycha y.s), ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik (sub > suv). Qadimgi turkiy tilda bu soʻz “tussiz

shaffof suyuqlik” ma’nosini anglatgan va “sub” tarzida talaffuz qilingan (PDP,422; DS,512).

Suv – 1.Vodorod bilan kislorodning kimyoviy birikmasidan iborat rangsiz, hidsiz, shaffof suyuqlik; tabiatda muz va bug‘ holida ham uchraydi, barcha tirik organizmlarning va ko‘pgina moddalarning tarkibiy qismini tashkil qiladi. M: *Qor suvi. Dengiz suvi.*

2. Shunday suyuqlik ichimlik sifatida. M: *Mineral suvlar.*

3. Soy, ko‘l, daryo va sh.k.ning suvli sathi haqida.

M: *Suv bo‘yi.*

4. Ho‘l meva, sabzavot va sh.k.lar tarkibidagi shira, sharbat ,suyuqlik. M: *Anor suvi.*

5. Tirik organism va a’zolaridan ajralib chiqadigan suyuqlik, shira. M:*Oshqozon suvi.*

6. Umuman, turli narsalar tarkibidagi namlik.

M:*Suvi qochgan non.*

7. Ko‘chma ma’noda. Maza – matrasi, shirasi yoki jiri yo‘q (meva yoki ovqat haqida). M: *Bu sho‘rva emas, shildir suv.*

8. Kashtachilikda:to‘g‘ri yoki to‘lqinsimon chiziq shaklidagi gul elementi. M: *Suvi oq , guli turli qiyiqcha.*

9. Eski o‘zbek tilida. O‘n tanobga teng yer o‘lchov birligi. M:*Har o‘n tanob yer bir suv hisoblanib, mana shu maydon hisobidan ariq tozalashga bir hasharchi yuborilar edi.*

10. Turli birikmali nomlar tarkibida keladi. M:*suv kalamushu, suv echkilari (O‘TIL,III,576).*



SUYAK – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, birlik, tub so‘z (sunguk >so‘ngak >so‘yak > suyak). Bu so‘z qadimgi turkiy tilda so‘ngak tarzida talaffuz qilingan (Sh.Raxmatullayev, O‘TEL, I, 305).

Suyak. 1. Odam va umrtqali hayvonlar skeletining har bir qismi; so‘ngak. M: *O‘mrov suyak. Suyak og‘rig‘i. Fil suyagi. Suyak butun bo‘lsa, et bitib ketar.*

2. So‘yilgan molning etli ustuxoni (ovqat sifatida).

M: *Suyak qaynatmoq.*

5. Etdan tozalangan ustuxon(xomashyo, material sifatida).

M: *Suyakka gul chizib, asboblar (parma, arracha, egov va b.) yordamida o'yib, naqshlar hosil qilinadi hamda jilolanadi.*


4. Sifat. Juda oriq, ozg'in. M: *Suyak odam.*

5. Ko'chma ma'no. Avlod, nasl, urug'. M: *Sulton suyagini xo'rlamas. Maqol. (O'TIL,III,601).*



SUMALAK – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (suma +lak = sumalak). Bu so'z qadimgi turkiy tildagi "ivitilgan bug'doy" ma'nosini anglatgan suma otidan eski o'zbek tilida kichraytirish ma'nosini ifodalovchi -lak qo'shimchasi bilan hosil qilingan (DLT,III,253).

Sumalak. 1.Undirib yanchilgan bug'doy, un va yog' aralashmasidan tayyorlanadigan, servitamin, xushxo'r holvaytarsimon ovqat (odatda bahor kezlari ayollar o'rtasida xalfana asosida pishiriladi). M: *Bu kecha – gulgun kecha, O'choqda o't tonggacha, Kim pishirsa sumalak, Yashasin - ey minggacha! (O'TIL, III,586).*



TANGLAY – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so'z (tang +la = tangla +y =tanglay). Bu ot qadimgi turkiy tilda mavjud bo'lib, "yuqori", "tepa" ma'nosini anglatgan tang so'zidan eski o'zbek tilida -la qo'shimchasi bilan fe'l yasalgan. Yasama fe'lga -y

qo‘shimchasini qo‘shib ot hosil qilingan (DS, 552).

Tanglay – og‘iz bo‘shlig‘ining yuqori devoir; qattiq va yumshoq tanglaydan iborat bo‘lib, og‘iz bo‘shlig‘ini burun bo‘shlig‘idan ajratib turadi. M: *Qattiq tanglay* (O‘TIL, III, 661).



TARIQ – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (tar+i=tari+g‘=tarig‘>tariq). Bu so‘z qadimgi turkiy tilda “ekin maydoni” ma’nosini anglatgan “tar” otiga -i qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalib, “ekin ek” ma’nosini anglatgan fe’lga -g‘ qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil bo‘lgan (Sevortyan, III, 158; DLT, I, 354).

Tariq. 1. Boshqodoshlar oilasiga mansub bir yillik g‘alla o‘simligi va uning oqlab sok qilinadigan doni. M: *Tariq sepmoq*.

2. Yo‘l, ko‘cha; usul, yo‘sin. M: *-Ne tariq bilan?- qiziqib so‘radi Majdiddin* (O‘TIL, III, 682).



TARLON – (turkiycha so‘z) sifat, nisbiy sifat, oddiy daraja, yasama so‘z (tar+il=taril+an=tarilan>tarlan>tarlon). Bu sifat qadimgi turkiy tildagi “soch” ma’nosini anglatgan “tar” fe’lining “o‘zlik” ma’nosini ifodalovchi -(i)l qo‘shimchasini olgan shakliga -an qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan (DTL< II, 419).

Tarlon - ola - targ‘il, chavkar; shu tUSDagi ot. M: *Tarlon biya Boychiborning enasi Chibarning tovushin to‘qayda bildi* (O‘TIL, III, 684).



TAROQ – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (tar + g‘a = targ‘a + q = targ‘aq > taraq > taroq). Bu ot qadimgi turkiy tilda “ajrat”, “bo‘lak-bo‘lak qil” ma’nosini anglatgan “tar” fe’liga “takror” ma’nosini ifodalovchi -g‘a qo‘shimchasini olgan shakliga -q qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil bo‘lgan (DLT, I, 434; DS, 536).

Taroq. 1. Soch, soqol tarash uchun ishlatiladigan, yog‘och, metall, suyak va shu kabi narsalardan yasalgan buyum.

M: *Shamshod taroq, temir taroq*.

2. Matoga bosiladigan shu nusxadagi naqsh, taram-taram gul.

M: *Jonoqi olmalarning ikki betidagi naqsh Marg‘ilon atlasining mayda taroqlarini eslatadi.*

3. Dastgoh, moslama va sh.k. narsalarni tarash yoki titish uchun xizmat qiladigan qismi. M: *Yigiruv dastgohining tarog‘i* (O‘TIL, III, 681).



TAQINCHOQ – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (taq+in = taqin + chaq = taqinchoq). Bu so‘z o‘zbek tilidagi “birkit” ma’nosini ifodalovchi “taq” fe’liga -in qo‘shimchasini qo‘shib yasalgan otga kichraytirish ma’nosini ifodalovchi -chaq qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilingan (Sh.Rahmatullayev.O‘TEL, I, 327).

Taqinchoq. Quloq, bo‘yin, barmoqqa taqiladigan bezak buyumi. M: *Kelinim taqinchoqlarga o‘ch: zirak, marjon, uzuklari son-sanoqsiz* (O‘TIL, IV, 36).



TEGIRMON – (turkicha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (tegir + man = tegirman > tegirmon). Bu ot qadimgi turkiy tilda “aylan” ma’nosini anglatgan “tegir” fe’liga -man qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan (Sevortyan, III, 177; DLT, I, 350-452)

Tegirmon. G‘allani, donni yanchib un qilish uchun moslangan, maxsus qismlardan iborat, suv, shamol, elektr energiyasi va sh. k. kuchi bilan ishlaydigan qurilma. M: *Suv tegirmon. Shamol tegirmon.*



TEKIN – (turkiycha so‘z) sifat, nisbiy sifat, xususiyat bildiruvchi sifat, oddiy daraja, tub so‘z (teko‘n > tekin). Bu sifat “evaziga hech nima talab qilinmaydigan” ma’nosini anglatuvchi “teko‘n” so‘zidan hosil qilingan (Sh.Rahmatullayev.O‘TEL, I, 528).

Tekin. Evaziga pul, haq yoki boshqa biror narsa talab qilinmaydigan; pulsiz, bepul. M: *Tekin qimiz, et qayda.*



TEMIR – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (tamir > temur > temir). Bu ot qadimgi turkiy

tilda ham “qoramtir kumush rangli og‘ir metall” ma’nosini anglatib, tamir tarzida talaffuz qilingan (PDP, 429).

Temir. 1. Mendeleev davriy sistemasining 8-guruhiga mansub kimyoviy element, bolg‘alanganda yassilanadigan, istalgan shaklga kiradigan, uglerod bilan qo‘shilganda po‘lat va cho‘yan hosil qiladigan kumush rangli og‘ir metall. M: *Sof temir*.

2. Umuman, temir, po‘lat va sh. k.lar va ulardan yasalgan buyum, narsalar. M: *Temir qoshiq. Temir darvoza* (O‘TIL, IV, 61).



TERI – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (tari > teri). Bu ot qadimgi turkiy tilda “tananing tashqi qoplamasi”, “charm” ma’nolarini anglatib, “tari” tarzida talaffuz qilingan (Sh. Rahmatullayev, O‘TEL, I, 331).

Teri. 1. Odam va hayvon tanasining tashqi qoplami, tana a’zolarining tashqi ta’sirlardan himoya qiluvchi va turli fiziologik vazifalarni bajaradigan po‘sti. M: *Quyoning terisini shilmoq*.

2. Molning, hayvonning shilib olingan po‘sti. M: *Shu yerda ishlaydigan odamlardan biri, yo‘qchilik vajhidan, bir kuni bola-chaqasi bilan otning terisidan sho‘rva qilib ichibdi*.

3. Mol po‘stidan maxsus ishlov berib tayyorlangan material; charm, ko‘n. M: *Uyda biroz teri bor. Ammo tagcharm yo‘q*.

4. Po‘st, po‘choq. M: *Terisi qalin qovun* (O‘TIL, IV, 72).



TIZZA – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (tiz+a=tiza>tizza). Bu ot asli “ketma-ket bog‘la” ma’nosini anglatgan “tiz” fe’liga eski o‘zbek tilidagi – a qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan (Sevortyan, III, 337).

Tizza. 1. Oyoqning bukiladigan boldir bilan son qo‘shiladigan joyi. M: *Hayot...Kelinchaklarcha, bir oyog‘ini yig‘ishtirib, ikkinchi oyog‘ini tizzasidan bukib o‘tirdi*.

2. Ishton, shim va shu kabi kiyimlarning tizzani qoplab turadigan, tizzaga to‘g‘ri keladigan qismi. M: *Ishtoni yo‘q tizzasi yirtiqqa kular*.

3. Oyoqning tizdan dumbagacha bo‘lgan qismi (o‘tirgan holatda). M: *Zulfiqor ustodga yaqin o‘tirib, qo‘ynidan keng va*

qalin daftarni olib, tizzasiga qo'ydi (O'TIL, IV,84).



TIL – (turkiycha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama soʻz (ti+l=til). Bu soʻz qadimgi turkiy tilda “gapir” maʼnosini anglatgan “ti” feʼliga -l qoʻshimchasini qoʻshish orqali yasalgan (Sevortyan, III, 229).

Til. 1. Ogʻiz boʻshligʻida joylashgan, taʼm-maza bilish, ogʻizga ovqat olish, yalash va sh.k.lar uchun xizmat qiladigan muskulli aʼzo. M: *Issiqdan itning tili osilgan.*

2. Koʻchma maʼno. Asbob, mexanizmlar va sh.k.larning osilib, qimirlab turadigan qismi. M: *Soatning tili.*

3. Koʻchma maʼno. Tigʻga oʻxshash, uchli narsa. M: *Shamol kuchayib, olovning tili yana ham uzunlashdi (O'TIL, IV, 91).*



TIRNOQ – (turkiycha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama soʻz (tir + in = tirin + a = tirina + q = tirinaq > tirnaq > tirnoq). Bu soʻz qadimgi turkiy tilda “tirnoq bilan yuz terisini til” maʼnosini anglatgan tir feʼliga -in qoʻshimchasini qoʻshish bilan sifat yasalgan. Yasama sifatga(tirin) -a feʼl yasovchi qoʻshimchasini qoʻshish bilan feʼl yasalgan. Yasama feʼlga(tirina) -q qoʻshimchasini qoʻshish bilan ot yasalgan (Sevortyan, III, 347).

Tirnoq. 1. Barmoqlar uchining orqa tomonidagi etga yopishgan, barmoqlarni himoya qiluvchi shoxsimon moddadan ibotar tuzilma, qoplama. M: *Tirnoq oʻstirmoq.*

2. Baʼzi hayvon va qushlarning panjasi yoki changalidagi uchi qayrilgan, oʻtkir, shox moddali oʻsimta. M: *Burgutning tirnogʻi.*

3. Shevada. Otning tuyogʻi. M: *Ot tirnogʻiga tekkan tosh yongʻoqday ushalib ketdi.*

4. Koʻchma maʼno. Farzand, bola. M: *Obodon xola Safo ota bilan ellik yil birga turmush kechirdi. Ammo ularga tirnoq nasib etmadi.*

5. Koʻchma maʼno. Baland simyogʻochlarga, machtalarga koʻtarilish uchun oyoq kiyimiga mahkam bogʻlab olinadigan tishli oʻroqsimon temir asbob. M: *Baʼzan kechalari ham chaqirib*

qolishsa, yo‘q demay, brezent shimini kiyib, shaldir-shuldur zanjirli “temir tirnoq”larini yelkasiga ilib, chiqib ketardi (O‘TIL, IV, 113).



TIRSAK – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (tir+si = tirsi+ga = tirsiga+k = tirsigak> tirsgak> tirsak). Bu ot qadimgi turkiy tilda “yig‘”, “bukla” ma’nosini anglatgan “tir” fe’liga “moyil” ma’nosini ifodalovchi –si qo‘shimchasini qo‘shib tirsi so‘zi yasalgan. Bu yasama so‘zga esa “takror” ma’nosini ifodalovchi –ga qo‘shimchasi qo‘shilgandan so‘ng, -k qo‘shimchasi qo‘shilib, ot yasalgan (Sevortyan, III, 205; DLT, III, 430).

Tirsak. 1. Qo‘lning bilak suyagi yelka suyagi qo‘shiladigan, bukilib byrchak hosil qiladigan joyi, bo‘g‘imi. M: *Nazokat tirsagini stolga qo‘ydi-da, chiroyli panjalari bilan yuzlarini silab, noz va erkalik bilan so‘z boshladi.*

2. Yengning qo‘lning shu yeriga to‘g‘ri keladigan joyi, qismi. M: *Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan, qalami yaktagingning yengi zulfingga ilinib tisakkacha yirtildi.*

3. Narsalarning burchak hosil qilib bukilgan joyi yoki qismi. M: *Trubaning tirsagi.*

4. Uzatilgan qo‘l barmoqlarini uchidan tirsagigacha bo‘lgan masofaga teng uzunlik o‘lchovi birligi. M: *Taxminan yarim metr yoki undan oshiqroq* (O‘TIL, IV, 115).



TOVUSH – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (tavush> tovush). Qadimgi turkiy tilda bu ot “sado” ma’nosini anglatib, “tavish” tarzida talaffuz qilingan (Sh. Rahmatullayev, O‘TELI, 344).

Tovush. 1. Gapirish, kuylash, qichqirish, yig‘lash va sh.k.lar vaqtida yuzaga keladigan va eshitish a‘zolari qabul qilib oladigan hodisa; ovoz, sado, sas. M: *Mungli tovush, yig‘itovushi.*

2. Ma’lum sifatlarga ega bo‘lgan ovoz. M: *Baland tovush. Musiqiy tovush.*


3. Mexanik tebranishlar natijasida yuzaga keladigan va quloq bilan eshitadigan har qanday ovoz va sado. M: *Oyoq tovushi.*

4. Shovqin; shovqin-suron. M: *Tovush qilma, o‘lasan!*

5. Nutq a'zolarining artikulyasiyasi biln hosil bo'ladigan eng kichik til birligi.

7. Musiqaning ifoda kuchiga ega eng kichik tarkibiy qismi.

8. Ko'chma ma'no. Saylovlarda yoki biror masalani hal etishda o'z fikrini bildirish huquqi va usuli; ovoz. M: *Mulla Obid bir tovushdan, ammo Usmon polvon ikki qarshi ovoz bilan saylanib o'tdi* (O'TIL, IV, 130).



U – I.(turkiycha so'z) olmosh, ko'rsatish olmoshi, birlik(ol>ul>u). Bu olmosh qadimgi turkiy tilda “ol” tarzida talaffuz qilingan bo'lib, nariroqdagi kishi yoki narsani ko'rsatish olmoshi (Sh.Rahmatullayev, O'TEL, I, 377).

U. So'zlovchidan naridagi yoki uzoqdagi kimsa, narsani ko'rsatish uchun qo'llanadi. M: *Bu kitobni emas, u kitobni bering* (O'TIL, IV, 260).

U. II.(turkiycha so'z) olmosh, kishilik olmoshi, birlik, III shaxs (ol>ul>u). Bu olmosh qadimgi turkiy tilda “ol” ko'rsatish olmoshidan o'sib chiqqan.Eski o'zbek tilidagi birlik shakli “ul” bo'lib, ko'plik shakli ul (ul+ar) va al(al+ar) bo'lgan (Sh.Rahmatullayev, O'TEL, I, 377).

U. III. So'zlovchi va tiinglovchidan boshqa shaxsni nutq jarayonida qatnashmayotgan shaxs (o'zga) ni bildiradi.

M: *U ketgandan keyin, Sidiqjon shu yerning o'zida cho'kka*

tushdi (O‘TIL, IV, 260).



UZANGI – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (uza + n = uzan + gu = uzangu >uzangi). Bu ot qadimgi turkiy tilda “yuqoriga ko‘tar” ma‘nosini anglatgan “uza” fe‘liga “o‘zlik” ma‘nosini ifodalovchi -n qo‘shimchasi qo‘shilib, uzan fe‘li hosil bo‘lgan. Uzan fe‘liga -gu qo‘shimchasi qo‘shilgandan so‘ng, uzangi oti hosil bo‘lgan (Sevortyan, I, 624; DS, 630).

Uzangi. Egarning ikki tomoniga qayish bilan bog‘lab, osib qo‘yiladigan, otga minish va egarda oyoqlarni tirab o‘tirish uchun xizmat qiladigan metaldan yasalgan ot abzali. M: *Komil uzangiga oyoq uchini qo‘yib, egarga minib oldi* (O‘TIL, IV, 265).



UY – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (o‘y>uy). Bu ot qadimgi turkiy tilda qo‘llanib, “yashashga, ishlashga xizmat qiladigan qurilma”, “bino”, “xona” ma‘nolarini anglatgan (Sevortyan, I, 513).

Uy. 1. Yashash uchun yoki turli tashkilot, muassasa va shu.k. joylashishi uchun mo‘ljallangan bino. M: *Uch xonali uy*.

2. Yashash uchun mo‘ljallangan bino ichidagi xona.

M: *Bu bino uch uy va bir ayvondan iborat*.

3. Biror ijtimoiy talabni qondirishga qaratilgan muassasa.

M: *Mehribonlik uyi, dam olish uyi*.

4. Biror oila yoki xonadon o‘rnashgan bino va shu binoga taalluqli yer; bino, hovli. M: *Qizlik uyga qirq ot bog‘lanar*.

5. Oila; xonadon. M: *Qirq uy quda bo‘lsa, qirq yil qirg‘in bo‘lmas* (O‘TIL, IV, 269).



UYQU – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (uyu+qu=uyuqu>uyqu). Bu ot qadimgi turkiy tildagi “fiziologik sokinlik holatida bo‘l” ma‘nosini anglatgan uyu fe‘liga -qu qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan (Sevortyan, I, 579; DS, 607).

Uyqu. 1. Odam va hayvonlarda davriy yuz beradigan fiziologik holat (uyquda asab tizimi, asosan bosh miya

po'stlog'ining faolligi pasayadi, ong, muskul tonusi va sezuvchanlik susayadi). M: *Qattiq uyqu*.

2. Ko'chma ma'noda. "Hayot"dan to'xtagan, harakatsiz, shovqin-suronsiz, tinch holat(tabiat hodisalari va sh.k.ga nisbatan). M: *Ona tabiat, ertangi kurash oldidan miriqib dam olishga chog'langan pahlavonlarday og'ir uyquga cho'ngandi* (O'TIL, IV, 273).



UKKI – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so'z(uki>ukki). Qadimgi turkiy tilda bu ot "boyo'g'lilar turkumiga mansub yirtqich tun qushi" ma'nosini anglatgan "o'gi" otidan hosil qilingan (DLT, I, 175).

Ukki. Yapoloqqushlar urug'idan bo'lgan yirik yirtqich tun qushi. M: *Boyo'g'lilarning eng katta vakili ukki hisoblanadi* (O'TIL,IV, 276).



ULKAN – (turkiycha so'z) sifat, asliy sifat, hajm-o'lchov sifati, oddiy daraja, yasama so'z (uluk + a = uluka + n = ulukan > ulkan). Bu sifat qadimgi turkiy tilda "katta hajm" ma'nosini anglatgan "uluk" otiga -a qo'shimchasini qo'shish orqali "uluka" fe'li yasalgan. Uluka fe'liga -n qo'shimchasini qo'shish orqali ulkan sifati hosil bo'lgan (Sevortyan, I, 630).

Ulkan. 1. Egallangan o'rni, hajmi g'oyat yirik, juda katta, buyuk. M: *Ulkan bino*.

2. Ko'lami, qamrovi, qudrati jihatidan juda katta; buyuk.

M: *Juda ulkan ish*.

3. Ko'chma ma'noda. Mazmun mundarijasi, ahamiyati jihatidan katta, yirik. M: *Ulkan asar*.

4. Nom, e'tibor qozongan; buyuk, ulug'. M: *Ulkan yozuvchi* (O'TIL, IV, 278).



UMURTQA – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so'z (ong + ur = ongur + t = ongurt + q = ongurtqa > ungurtqa > umurtqa). Bu ot qadimgi turkiy tildagi "qismlarga ajra" ma'nosini anglatgan "ong" fe'liga -ur orttirma nisbat qo'shimchasini qo'shish orqali hosil bo'lgan "ongur"

fe'liga "takror" ma'nosini ifodalovchi -t qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan so'zga -qa qo'shimchasini qo'shish orqali ot yasalgan (Sevortyan, I, 462-464).

Umurtqa. Odam va umurtqali hayvonlar skeletining umurtqalarining o'zaro ustma-ust qo'shilishidan vujudga keladigan asosiy qismi(uning bo'yin, ko'krak, bel, dumg'aza va dum bo'limlari bor) (O'TIL, IV,287).



UMR – (arabcha so'z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, tub so'z (umr (un) > umr). Bu so'z arab tilidagi "yashadi", "hayot kechirdi" ma'nosini anglatuvchi ko'p ma'noli "amara" fe'lidan o'sib chiqqan (ARS, 539).

Umr. Tug'ilgandan to o'lgungacha bo'lgan davr, yashash muddati, shu muddat davomidagi hayot, yashash. M: *Uzoq umr ko'rmoq* (O'TIL, IV,285).



UVUN-TO'DA – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so'z (ug + un = ugun > uvun). Bu juft otning birinchi qismi hozirgi o'zbek tilida mustaqil ishlatilmaydi; asli qadimgi turkiy tildagi "to'dala" ma'nosini anglatgan ug fe'liga -un qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan (Sevortyan, I, 621).

Uvun-to'da. 1. Eski, chirik, yirtiq narsalar; eski-tuskilar.

M: *Uvun-to'dalarning orasida xonaqoning bir burchagida tong ottirdim.*

2. Betartib, pala-partish; yig'ishtirilmagan. M: *Uyning eshigi lang ochiq edi. Narsalar uvun-to'da bo'lib yotibdi* (O'TIL, IV, 263).



USHOQ – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so'z (uv + sha = uvsha + q = uvshaq > ushaq > ushoq). Bu ot qadimgi turkiy tildagi "kichik bo'laklarga ajra" ma'nosini anglatgan "uv" fe'lining "takror" ma'nosini ifodalovchi -sha qo'shimchasini olgan shaklidan -q qo'shimchasi bilan yasalgan (Sevortyan, I, 618; DLT, I, 97; DS,617).

Ushoq. 1. Nonning mayda bo'lakchalari; uvoq. M: *Patir*

ushog‘i.

2. Jussasi, gavdasi kichik, zaif, nimjon. M: *Ushoq kishi. Hikoyani tinglagan sarim, bu qotma, ushoq chol ko‘z o‘ngimda salobat kasb etib, gavdalanardi.*

3. Shevada. Bola, bola-chaqa. M: *Mo‘g‘ul kelib, o‘zimizni qul qilib olsa, xotin, ushog‘imizni bozorga chiqarib sotsa, yaxshimi? (O‘TIL, IV, 312).*



VAGON – (inglizcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, (wag(g)on). Rus tiliga XIX asrda o‘zlashgan. Fransuzcha wagon, inglizcha wag(g)on “temiryo‘l vagoni” so‘zidan, ingliz wag(g)on, nemischa wagen so‘zidan yasalgan: nemischa > wagen inglizcha > wag(g)on fransuzcha > wagon rus, o‘zbekcha > vagon.

Vagon- temir yo‘llarda yo‘lovchilar va yuklarni tashish uchun mo‘ljallangan, ochiq yoki yopiq (uy) shaklidagi g‘ildirakli maxsus qurilma. M: *Temir yo‘l vagoni (O‘TIL, I, 430).*



VAZIR – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (vazir(un) > vazir). Bu so‘z “podsho, xon saroyida yuksak lavozimga tayinlandi” ma’nosini anglatuvchi “vazara” fe’lidan hosil qilingan (ATG, 143).

Vazir. 1. Oʻrta asrlarda Yaqin va Oʻrta Sharq davlatlarida, jumladan, Oʻrta Osiyo xonliklarida hukumat idorasi yoki kengashi (devoni) boshligʻi. M: *Saroy vaziri noiloj bosh egib, farmoni oliy hozirlagani chiqib ketdi.*

2. Mamlakatda muayyan tarmoq faoliyatini boshqaruvchi shaxs. M: *Sogʻliqni saqlash vaziri.*

3. Koʻchma maʼnoda. Oilada, jamoada boshliqdan keying mavqeda turuvchi shaxs. M: *Ovulingning oqsoqoli mulla Fozil, Oʻltirar bek oldida ikki vazir* (OʻTIL, I, 433).



VARRAK – (turkiycha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama soʻz (var-var) + ak = varvarak > varrak). Bu ot var-var tovushga taqlid soʻziga -(a)k qoʻshimchasini qoʻshib yasalgan, shundan keyin takrorlanuvchi qismlar chiziqchasiz yozilgan, oxiri ikkinchi qism boshlanishidagi va tovushlari talaffuz qilinmay qoʻygan (SH.Rahmatullayev, OʻTEL, I, 83).

Varrak. Bir taxta yupqa qogʻozga yoki matoga qamish yoki savagʻich choʻplarini belgili tartibda qoʻyib, yelimlab tayyorlanadigan va ipga ulab, shamolda uchiriladigan oʻyinchoq; varvarak. M: *Varrak uchirmoq* (OʻTIL, I, 442).



VA ALAYKUM ASSALOM – (arabcha soʻz) undov soʻz, urf-odat undovi, birikmali. Bu soʻz asli arabcha soʻz boʻlib, “sizga ham tinchlik-omonlik tilayman” maʼnosini anglatadi (OʻTEL, Sh.Rahmatullayev, 80). Va alaykum assalom – Salomlashuvda salomga javob berish shakli boʻlib, “sizning oʻzingizga ham”, degan maʼnoni anglatadi (OʻTIL, I, 430).



VAZIFA – (arabcha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub soʻz (vazifat > vazifa). Bu soʻz asli “lavozim”, “ish berdi” maʼnosini anglatuvchi vazafa feʼlidan hosil qilingan (ARS, 898).

Vazifa. 1. Amalga oshirilishi, hal qilinishi lozim boʻlgan, koʻzda tutilgan maqsad, maqsadli ish. M: *Millatni uygʻotish – uygʻonganlarning vazifasi.*

2. Zimmada bo‘lgan muayyan ish, ishlar. M: *Ruslan bilan Normat ko‘chaga o‘z vazifalarini bajargani chiqdi.*

3. Doim amalga oshirish, amal qilish, bajarish lozim bo‘lgan ish; burch. M: *Er topganini saranjom – sarishta qilish-xotinning vazifasi.*

4. Bajarish uchun berilgan, topshirilgan ish; topshiriq. Ertasi kuni o‘z shogirdlariga vazifa berib qo‘ydi-da, ayollarning o‘qishini ko‘rishga keldi.

5. Biror narsa bajaradigan ish, xizmat. M: *Yotoqxonada istiqomat qiluvchilardan har birining kitob va daftarlari kechasi o‘ziga yostiqlik vazifasini o‘tar edi.*

6. Xizmat lavozimi, mansab, amal doirasida bajariladigan ishlar majmui. M: *Viloyat xalq deputatlaridan besh kishi jiddiy kamchiliklari uchun o‘z vazifalaridan bo‘shatildilar* (O‘TIL, I, 433).



VAZN – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, (vazn (un) < vazn).

Bu arabcha so‘z “og‘irligini o‘lchadi” ma’nosini anglatgan “vazana” fe’lidan hosil bo‘lgan (ARS,885).

Vazn – 1. O‘lchov, vazn. M: *Tabiatda qudrat bormi, Bizdan vazn olmasin.*

2. Og‘irlik; og‘irlik o‘lchami, salmoq. M: *Yuk vazni.*

3. Ko‘chma ma’noda. Shaxsning mavqei, mavqe darajasi.

M: *Salimxon jon-dili bilan Saidiyning begonasiratmaslikka, o‘zi bilan bir tekislikka qo‘yishga tirishar va hatto o‘zini nodonlikka solib, Saidiyning vaznini orttirar edi.*

4. Adabiy termin. She’riy satrda she’rning ritm ohangi va tuzilishini belgilovchi bo‘g‘inlar soni va joylashishi; she’r o‘lchovlari. M: *Aruz vazni. Barmoq vazni.*

5. Musiqaga oid. Musiqa asarida uning ritm ohangini va tuzilishini belgilovchi ritmik birliklar soni va joylanishi.

M: *Vaznga tushmagan qo‘shiqlar* (O‘TIL, I, 134).



VARAQ – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (varaq (un) < varaq). Bu so‘z “barg bilan

qoplandi” ma’nosini anglatuvchi varaqa fe’lidan hosil bo’lgan (O‘TEL, 84).

Varaq. 1. Bo‘yi va eni ma’lum hajmga ega bo’lgan, asosan yozish uchun ishlatiladigan qog‘oz va qog‘oz bo‘lagi. M: *Ertoyev stol tortmasidan bir varaqa qog‘oz olib, nimalarnidir tez yozdi.*

2. Daftar, kitob va sh.k.ni tashkil etuvchi old – orqa sahifadan iborat har bir qat, bo‘lak. M: *Ahmad varaqning uchini buklab, jurnalni yopdi.*

3. Ko‘chma ma’no. O‘tmish hayot, tarixning muayyan davrlari, qismlaridan har biri, sahifasi. M: *Uzilmasin zamonning rishtasi deya, Asrlarning orasi qolmasin deb bo‘sh, Yemasin deb tarixning varag‘in kuya, Qullikka erk tilagi kerib turdi to‘sh* (O‘TIL, I,440).



VATAN – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z(vatan(un)>vatan). Bu so‘z “yashadi”, “hayot kechirdi” ma’nosini anglatuvchi “vatana” fe’lidan o‘sib chiqqan (ARS,897).

Vatan. 1. Kishining tug‘ilib o‘sgan o‘lkasi, shahri yoki qishlog‘i;yurt, diyori. M: *Bulbul chamanni sevar,odam – vatanni.*

2. Kishi tug‘ilib o‘sgan va o‘zini uning fuqarosi hisoblagan mamlakat; ona yurt. M: *Ona vatan – ulug‘ vatan.*

3.Turar joy, boshpana, maskan, uy. M: *Yoshi yigirma beshni qoraladi.Lekin boshida na bo‘yradek vatani bor, na jonida halovati.*

4. O‘simlik va shu kabilarning asli kelib chiqqan yerini bildiradi. M: *Uy limoni – rutagullilar oilasiga mansub, doim yashil subtropik o‘simlik.Vatani Xitoy, Yaponiya, Sharqiy Hindiston* (O‘TIL, I,444).



VAQT – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (vaqt(un) < vaqt).

Bu so‘z arabcha “muddat belgiladi” ma’nosini anglatuvchi “vaqata” fe’lidan o‘sib chiqqan (Sh.Rahmatullayev, O‘TEL, II, 91).

Vaqt. 1. Yuz berib turuvchi voqea – hodisa, narsalarning

asrlar, yillar, soatlar, daqiqalar va sh.k.bilan o‘lchanadigan davomiyligi, shunday o‘lchov belgisiga ega bo‘lgan obektiv hodisa. M: *Vaqt g‘oyat imillab o‘tardi.*

2. Shu obyektiv hodisaning daqiqa, soat, kun, yil va sh.k.bilan almashinuvidagi oralig‘i, qismi, bo‘lagi. M: *Bayramlardagina kiyadigan, boshqa vaqtlarda chamadonida avaylab saqlaydigan oq surp ko‘ylagini kiydi.*

3. Soat, kun, oy, yil va sh.k.ning uzluksiz izchil almashuvida biror maqsad uchun belgilangan yoki biror maqsad uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan muddat oralig‘i; fursat. M: *Vaqtning qo‘ldan bermoq.*

4. Vaqtning biror narsa, ish – mashg‘ulot uchun belgilangan, ajratilgan bo‘lagi; muddat. M: *Masalani to‘g‘ri yechdi – yu, oqqa ko‘chirayotganida, vaqti tugab qoldi.*

5. Obyektiv o‘tuvchi vaqtning ma‘lum ijtimoiy hodisa, holatlar bilan bog‘liq, ular bilan kechgan bo‘lagi; zamon, davr.

M: *Quldorlik vaqtida. Mo‘g‘ullar hukmronligi vaqtida.*

6. Obyektiv tarzda kechuvchi zamon, davrning, kishi hayotining ma‘lum, aniq bir bo‘lagi, nuqtasi, oralig‘i. M: *Vaqt kech bo‘lib qoldi* (O‘TIL, I, 448).



VELOSIPED – (lotincha so‘z) ot, turdosh ot, narsa oti, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (velox – tez + pedis – oyoq > velocipede > vilosiped). XIX asr yarmida fransuz tilidan rus tiliga o‘tgan. Fransuzcha velocipede “tezoyoq”, lotincha velox, velocis “tez” vapes, pedis “oyoq” so‘zlarining qurilishidan hosil bo‘lgan: lotincha velox > fransuzcha velocis > fransuzcha velocipede > rus, o‘zbek tilida >velosiped.

Velosiped. Pedallar yordamida harakatga keltiriladigan ikki yoki uch g‘ildirakli transport vositasi. M: *Velosiped poygasi* (O‘TIL, I, 455).



VILOYAT – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (vilayat < viloyat). Bu so‘z “boshqardi” ma‘nosini anglatuvchi valia fe‘lidan o‘sib chiqqan (UAYA, 568).

Viloyat. 1. Mamlakatning poytaxtdan yiroqdagi chekka o'lkasi. M: *Bobur mirzoning orzulari shulkim, Movarounnahr yana Ulug'bek davridagi kabi birlashsa, poytaxt asliga qaytsa hamma viloyatlar hamjihat-u obod bo'lsa.*

2. Eskirgan so'z. Umuman, mamlakat, o'lka, yurt.

M: *Badaxshon viloyatida ham geologlar yangi konlarni aniqladilar.*

3. Eskirgan so'z. Shahardan chekka joylar. M: *Kezib shahru viloyat, ko'cha-ko'yni darbadar.*

4. Mamlakatning bir va undan ortiq shaharlarini ham o'z ichiga oladigan, yirik ma'muriy – hududiy bo'linma. M: *Toshkent viloyati* (O'TIL, I,461).



VINEGRET – (fors-tojikcha so'z) ot, birlik. Rus tiliga XVIII asrda fransuz tilidan o'tgan. Fransuzcha vinaigrette “sirka va go'shtdan tayyorlangan qayla” vinaigre “sirka” so'zidan suffiksial yo'l bilan yasalgan; vinaigre vin “vino” vaaigre “nordon” so'zlarining birikishidan hosil qilingan: fransuzcha vinaigre > fransuzcha vinaigrette > rus, o'zbek vinegret.



VIRUS – (lotincha so'z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik. Faqat tirik hujayralarda ko'payib, odam, hayvon, o'simlikda yuqimli kasalliklar qo'zg'atuvchi mikroorganizm. M: *Gripp virusi* (O'TIL, 462). XIX asrning oxirida rus olimlari D.Ivanovskiyva N.Tamaleya tomondan 1-marta ishlatilgan. Eski ma'nosi “zahar”




VOLIDA – (arabcha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so'z (valid+at (un = validatun < volida). Bu so'z “dunyoga keltirdi” ma'nosini anglatuvchi valada fe'lidan hosil qilingan valid(un) sifat-doshiga -at(un) qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilingan (ATG, 29).

Volida – ona. M: *Volidamiz betob yotgan ekanlar, meni ko'rib hushdan ketdilar* (O'TIL, 467).



VITAMIN – (lotincha so‘z) turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (vita + amin = vitamin). Bu so‘zni polyak olimi K.Funk lotincha vita “hayot” va kimyoviy termin “amin” so‘zlarining qo‘shish yo‘li bilan yasalgan. Lotincha amin ammiak so‘zining qisqartma shakli.

Vitamin – inson va hayvon organizmining odatdagi hayotiy faoliyati uchun zarur moddalar, shunday moddalari bor preparat;darmondori. M: *Hozirgi kunda o‘ttizga yaqin vitamin ma‘lum* (O‘TIL, I, 463).



XABAR – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (xabara < xabar). Bu so‘z arab tilida “tajribaga ega bo‘ldi”, “amaliy jihatdan bildi” ma‘nolarini anglatuvchi “xabara” fe‘lidan o‘sib chiqqan (ARS, 209).

Xabar. 1. Biror kimsa, narsa yoki hodisa haqidagi axborot, darak, bildirish. M: *Gulnor bu xabarni juda sovuq qarshi oldi.*

2. Yangilik. M: *Mulla Abdushukur, - Mirzakarimboy mehmonlardan biriga murojaat qildi, - olamda nima xabarlar bor, gapirsangizchi.*

3. Kundalik matbuot, radio va televideniye vositasida olingan axborot, ma‘lumot; maqola. M: *Kechalari uxlamay radio*

karnayiga quloq tutib, olis frontda bo'layotgan xabarlarni eshitardi (O'TIL, IV, 370).



XACHIR – (turkiycha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama soʻz (qat + ir = qatir > qachir > xachir). Bu soʻz asli turkiycha soʻz boʻlib, “qoʻsh”, “aralashtir” maʼnosini anglatuvchi “qat” feʼliga -ir qoʻshimchasini qoʻshish bilan hosil qilingan. Bu soʻz turkman, ozarbayjon > gʻatir; qoraqalpoq > qashir tarzida talaffuz qilingan (Sh.Rahmatullayev, OʻTEL, I, 398).

Xachir. 1. Ot (biya), bilan eshak (hangi) dan urchigan, yuk tashuvchi uy hayvoni. M: *Podisho bularga ori q xachirga mol-dunyo va yoʻl ozigʻini ortib beribdi* (OʻTIL, IV, 393).



XAVF – (arabcha soʻz) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik (xav (un) < xavf). Bu arabcha soʻz “nimadir sodir boʻlishidan qoʻrqish”, “qoʻrqdi” maʼnolarini anglatuvchi “xafa” feʼlidan hosil qilingan (ATG,142).

Xavf. 1. Biror xatarli hodisa yoki falokat sodir boʻlishi ehtimolligi, xatar. M: *Bu voqeadan xabar topgan Sulton Ali mirzo oʻlim xavfi oʻziga ham yaqinlashib kelayotganini sezdi.*

2. Xavotirlanish, xavfsirash; xavotir, tashvish. M: *Hamisha xavfda koʻnglim bu muhabbat intihosidan, Meni ham etmasa majnun debon Raʼnoning savdosi* (OʻTIL, IV, 372).



XALIFA – (arabcha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, shaxs oti, birlik, bosh kelishik, yasma soʻz (xalifat (un) < xalifa). Bu soʻz arabcha “oʻrnini bosdi” maʼnosini anglatgan koʻp maʼnoli “xalafa” feʼliga – at (un) qoʻshimchasini qoʻshish orqali hosil qilingan (ARS,234; ATG,143).

Xalifa. 1. Musulmonlar jamoasi va musulmon davlatining diniy, ayni bir paytda dunyoviy boshligʻi; ruhoniylar hukmdori; Muhammad paygʻambarning vorisi, Allohning yerdagi noibi hisoblangan.

M: *Abdushukur davom etdi so‘zida: - Butun olami islomning xalifasi Sulton hazratlari bu urushda tanho goldilar* (O‘TIL, IV, 379).



XALQ – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, shaxs oti, jomlovchi ot, birlik, bosh kelishik. Bu arabcha so‘z “yaratdi”, “yuzaga keltirdi” ma’nosini anglatuvchi “xalaqa” fe’lidan hosil bo‘lgan (ARS, 235; ATG, 142).

Xalq -1. Yaratish, ijod qilish; yaratilgan jonzot va odamlar. M: *Xalqqa xizmat – oliy himmat.*

2. Tarixiy birlikning turli shakllari; qabila, elat, millat.

M: *O‘zbek xalqi Navoiy, Bobur, Lutfiy kabi buyuk donishmand shoirlarning asarlarini o‘qigan.*

3. Muayyan joy aholisi. M: *O‘zbekiston xalqi. Qishloq xalqi.*

4. Biror joyga to‘plangan odamlar; xaloyiq, olomon.

M: *Tovushga qo‘yishda xalq bir og‘izdan qo‘l ko‘tardi, orqasidan bir necha daqiqagacha olqish davom etadi.*

5. Kasb, mashg‘ulot, toifa yoki jinsni bildiruvchi so‘zlar bilan kelib, o‘sha kasb, mashg‘ulot, toifa yoki jinsga mansub kishilar guruhini bildiradi. M: *Shoir xalqi.*

6. Umum (aholi, odamlar) ga aloqadorlikni, umum tomonidan e’tirof etilganlikni ifodalovchi so‘z sifatida ba’zi muassasalar, lavozim va unvonlar nomlari tarkibida qo‘llanadi. M: *Xalq ta’limi* (O‘TIL, IV, 381).



XARITA – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (xaritat < xarita). Bu arabcha so‘z “bo‘laklarga bo‘ldi” ma’nosini anglatadigan ”xarata” fe’lidan hosil qilingan xarit(un) sifatdoshiga -at(un) qo‘shimchasini qo‘shish orqali ot yasalgan (ARS, 216; ATG,147; UAYA,500).

Xarita. Karta. M: *Geografik xarita. Jaxon xaritasi* (O‘TIL, IV, 385).



XATO – (arabcha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik (xatʼa < xata < xato). Bu arabcha soʻz “yanglishdi”, “xatoga yoʻl qoʻydi” maʼnosini anglatuvchi “xatia” feʼlidan hosil qilingan (ARS,225;ATG,145).

Xato. 1. Hisoblash, yozish,oʻqish, soʻzlash va sh.k.larda adashish, yanglishish, notoʻgʻrilik, qusur. M: *Imloviy xato. Matematik xato.*

2. Umuman, turmushda, ishda yoʻl qoʻyilgan kamchilik, nuqson, notoʻgʻri xatti – harakat. M: *Doʻst xatongni toʻgʻirlyadi.*

3. Haqiqatga toʻgʻri kelmaydigan, asossiz, notoʻgʻri. M: *Xato yozmoq.*

4. Qishloq xoʻjaligi. Yerdan chiqmay yoki unmay qolgan urugʻ haqida. M: *Yaxshi ishlanmagan yerga ekilgan urugʻ xato chiqadi.*

5. Moʻljalga, nishonga tegmaslik. M: *Oʻq xato ketdi* (OʻTIL,IV,390).



XOLA – (arabcha soʻz) ot, turdosh ot, shaxs oti, aniq ot, birlik, bosh kelishik (xalat < xala (xola). Bu arabcha soʻz “togʻa” maʼnosini anglatuvchi xal(un) soʻziga -at(un) qoʻshimchasini qoʻshish orqali “onaning opa-singillari” maʼnosini anglatuvchi soʻz yasalgan (ARS, 241; ATG,29).

Xola. 1. Onaning singlisi yoki opasi. M: *Bobur xolasi va qayligʻini butun odamlariyu koʻch – koʻronlari bilan birga qoʻriqlab olib ketmoqda.*

2. Keksa ayollarga hurmat bilan murojaat qilish shakli.

M: *Lutfiniso xola bogʻchadan ikki doʻppi olib, besh soʻm pul bilan uzatdi.*

3. Hurmat yuzasidan yoshi katta ayollar ismiga qoʻshib ishlatiladi.

M: *Qani, Toʻxta xola, gapiring!* (OʻTIL,IV,406).



XON – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, shaxs oti, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (qan < xan < xon). Bu so‘z qadimgi turkiy tilda ham “kichikroq davlatning mutlaq hukmdori” degan ma’noni anglatgan (PDP,411).

Xon. 1. Turkiy va mo‘gil xalqlari hukmdorlari unvoni.

M: *Qo‘qon xoni*.

2. Tarixiy ma’no. Xonlik qilgan, xon lavozimidagi shaxs ismiga qo‘shilib, unvon ifodalaydi. M: *Bahodirxon – Xivada, Xudoyorxon- Qo‘qonda xonlik qilgan*.

3. Erkak va ayollar ismiga qo‘shilib, hurmatni ifodalaydi.

M: *Oqilxon, Karimaxon* (O‘TIL, IV, 410).



XULQ – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z. Bu arabcha so‘z “loyiq bo‘ldi” ma’nosini anglatgan “xaluqa” so‘zidan hosil bo‘lgan (ATG,142).

Xulq – 1. Kishining muomala va ruhiy xususiyatlari majmui; fe‘l, xarakter. M: *Xulqi sovuq odam*.

2. Kishiga odat bo‘lib qolgan, takrorlanib turadigan xatti - harakat; odat, qiliq. M: *Nabigul yaramas xulqlari bor ekanini bo‘yniga olish bilan Qodirni yana ham yumshatdi* (O‘TIL, IV, 422).



YALMOG‘IZ – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (yalma + ag‘iz = yalmaag‘iz < yalmag‘iz < yalmog‘iz). Bu so‘z “dush kelgan narsani yeb yutib yuboradigan afsonaviy maxluq ma’nosini bildirgan (Sevortyan, IV, 96).

Yalmog‘iz. 1. Xalq og‘zaki poetik ijodida keng tarqalgan, o‘ta xunuk, qari kampir sifatida tasvirlanadigan, dush kelgan hamma narsani yeb, yutib yuboradigan afsonaviy maxluq; jodugar. M: *Yalmog‘iz kampir*.

2. Ko‘chma ma’no. Hamma narsani yeb yutadigan, quritadigan; yuho. M: *Dollarga topingan yalmog‘izlarning qonli hurujiga chek qo‘ying tezroq* (O‘TIL, V, 106).



YALQOV – (turkiycha so‘z) sifat, xususiyat bildiruvchi sifat, asliy sifat, oddiy daraja, yasama (yal + qa = yalqa + v = yalqov). Bu sifat qadimgi turkiy tildagi “ish qilishni yoqtirmaydigan“ ma’nosini anglatgan “yal” sifatiga -qa qo‘shimchasini qo‘shish orqali fe’l yasalgan. Yalqa fe’liga -v qo‘shimchasini qo‘shish orqali “yalqov” sifati paydo bo‘lgan (Sevortyan, IV, 14 -15).

Yalqov. 1. Ishlashni yoqtirmoydigan; ishyoqmas; dangasa.

M: *Yalqov va g'irrom yo qo'li egri bo'lsa, sillqlik bilan haydayman.*

2. Markaziy va Janubiy Amerikada tarqalgan, daraxtda yashaydigan, kam harakat kichik sut emizuvchi hayvon (O'TIL, V, 110).



YAL-YAL – (turkiycha soʻz) taqlid soʻz, holatga taqlid, takror soʻz, yasama soʻz (ya + l = yal-yal). Bu soʻz qadimgi turkiy tildagi “alanga ol” maʼnosini anglatgan ya feʼliga -l qoʻshimchasini qoʻshish orqali yasalgan va “alanga” maʼnosini anglatgan va yal otini takrorlash yoʻli bilan tuzilgan (Sevortyan, IV, 107).



YAMOQ – (turkiycha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama soʻz (yama + gʻ = yamagʻ > yamaq > yamoq). Bu soʻz qadimgi turkiy tilda “biror narsaning yirtilgan, uzilgan, teshilgan joyini butunla” maʼnosini anglatgan “yama” feʼliga -gʻ qoʻshimchasini qoʻshish orqali hosil qilingan (Sevortyan, IV, 108; DLT, III, 35).

Yamoq. 1. Biror narsaning yirtilgan, teshilgan, uzilgan joyini yamash, butunlash uchun moʻljallangan bir parcha mato, charm va shu kabi.

M: *Shimining tizzasi bilan oʻng choʻntagining tagiga yamoq solingan edi.*

2. Yamoq solingan, yamoqli joy. M: *Sherali jilla boʻlmasa, bitta yamoqni bekitmoqchi boʻlib, koʻylagini shimining ustidan tushirdi.*

3. Yamash, talab etadigan, yamaladigan narsa, buyum.

M: *U endi vaqtining koʻpini har kim keltirgan yamoqlarni yamash bilan oʻtkaza boshladi.*

4. Yamash yamashga oid. M: *Yamoq ishlari siyraklashgach, yuvilgan kiyimlarga dazmol bosishdi.*

5. Koʻchma maʼno. Tuzalgan yaraning izi, chandiq.

M: *Yuzning yamogʻi.*

6.Ko'chma ma'no. Kam – ko'stni, kamchilikni to'ldirgan narsa. M: *Yomonga yomon bo'l, yaxshiga yamoq bo'l* (O'TIL, V,112).



YANTOQ – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (yan + da (< la) = yanda + q = yandaq > yantaq > yantoq. Bu ot qadimgi turkiy tilda “alanga ol” ma'nosini anglatgan “yan” fe'liga -da qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan (Sevortyan, IV, 117).

Yantoq – Cho'llarda o'sadigan, dukkakilarga mansub, tikanli ko'p yillik begona o't. M: *Tuyaga yantoq kerak bo'lsa, bo'ynini cho'zadi* (O'TIL, V,115).



YANGA – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so'z (yangga > yanga). Bu ot qadimgi turkiy tilda ham “akaning xotini” degan ma'noni anglatgan (Sevortyan, IV, 189).

Yanga. 1. Akaning xotini (uka va singilga nisbatan); kelinoyi. M: *Men bilet olib boraman,- deydi akasi bilan yangasiga.*

2.Yoshi o'ziga nisbatan katta bo'lgan ayolga (o'zga ayolga) nisbatan qo'llanadi. M: *Bug'doyzorda bir ko'ring sanam yanga kuchini* (O'TIL, V,112).



YAPALOQQUSH – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, qo'shma so'z (yabaqu + qulaq = yapalaq < yapaloq). Bu ot tarixan “yabaqu” va “quloq” so'zlaridan tarkib topgan. “Yabaqu” so'zi “o'siq va chigal sochli (tukli)” ma'nosini anglatgan (Sevortyan, IV,129).

Yapaloqqush – boyo'g'li, boyqush (O'TIL, V,115).



YAPROQ – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (yap + ur = yapur +g'a = yapurg'a +q = yapurg'aq < yapuraq < yapraq < yaproq). Bu ot qadimgi turkiy tilda “qopla” ma'nosini anglatuvchi “yap” fe'liga

kichraytirish ma'nosini ifodalovchi – ur qo'shimchasini hamda – g'a qo'shimchasini va unga kichraytirish ma'nosini ifodalovchi – q qo'shimchasini qo'shib yasalgan (SSTN, II, 348).

Yaproq. 1. O'simliklarning havodan oziqlanish va gaz almashinish uchun xizmat qiluvchi, odatda yupqa varaqcha shaklidagi asosiy, vegetativ a'zolaridan biri; barg. M: *Yashil yaproqlar*.

2. Bir bo'lak yupqa narsa haqida. M: *Bir yaproq qazi* (O'TIL, V,115).



YAXSHI – (turkiycha so'z) sifat, asliy sifat, xususiyat bildiruvchi sifat, oddiy daraja, yasama so'z (yaq + ish = yaqish + i = yaqishi < yaqshi < yaxshi).

Bu sifat qadimgi turkiy tilda ham “didga, xohishga mos tush, ma'qul bo'l” ma'nosini anglatgan “yaq” fe'liga “biroz” ma'nosini ifodalovchi -ish qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilingan so'zga -i qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan (Sevortyan, IV,64).

Yaxshi. 1. Ijobiy sifatga ega bo'lgan, biror talabga to'la javob beradigan, kishiga yoqadigan, ma'qul bo'ladigan.

M: *Yaxshi kishi*.

2. Modal so'z. Rozilik, maqullash ma'nosini bildiradi; xo'p bo'ladi, durust, maqul. M: *Yaxshi, hozir yetib boraman* (O'TIL, V,124).



YASHIL – (turkiycha so'z) sifat, rang-tus bildiruvchi sifat, asliy sifat, yasama so'z (yash + il = yashil). Bu sifat qadimgi turkiy tilda mavjud bo'lib, “barg rangiga ega bo'l” ma'nosini anglatgan “yash” fe'liga -il qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan (Sevortyan, IV, 164).

Yashil. 1. Sariq va ko'k rang o'rtaligidagi, barg yoki maysa rangiga ega bo'lgan rang. M: *Yashil bargli o'simliklar*.

2. Yashil rangli yosh maysalar va o'simliklar bilan qoplangan. M: *Yashil vodi* (O'TIL, V,126).



YAYLOV – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (yay + la = yayla +g‘ = yaylag‘ < yaylav < yaylov). Bu ot qadimgi turkiy tilda “bahor”, “yoz” ma’nolarini anglatgan “yay” otiga -la qo‘shimchasi qo‘shilib, “yayla” fe’li hosil bo‘lgan. Bu fe’lga -g‘ qo‘shimchasini qo‘shish orqali ot hosil qilingan (PDP,383;DLT,III,54; DS,227).

Yaylov. Chorva mollari erkin o‘tlaydigan, yoyilib boqiladigan keng dala, maydon; o‘tloq. M: *Mollar bilan yoz yaylovda bo‘lamiz, qish sovuqda ferma bilan kelamiz* (O‘TIL,V,100).



YELKA – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama (yel + ka < yelka). Bu so‘z qadimgi turkiy tildagi ko‘p ma’noli “yol bitadigan joy” ma’nosini anglatuvchi “yel” so‘ziga kichraytirish ma’nosini ifodalovchi -ka qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilingan (Sevortyan, IV, 86).

Yelka. 1.Qo‘lning tanaga yaqin qismi. M: *Ahmadjon uni darhol tortib olib qarasa, o‘ng qo‘li yelkasidan uzilgan.*

2.Tananing ikki yelka, kurak qismi, kift. M: *U yelkasi keng, ko‘krakdor, lo‘ppi yuzli edi.*

3. Ko‘chma ma’no. Kiyimning yelka ustida turadigan qismi. M: *Ko‘ylakning yelkasi to‘g‘ri kelmadi.*

4. Ko‘chma ma’no. Zimma, gardan. M: *Terimni mashinalar yelkasiga yuklaganmiz.*

5. Texnikaga oid. Richagning tayanch nuqtasidan kuch qo‘yilgan nuqtasigacha bo‘lgan qismi. M: *Yelkasini to‘g‘irlab olmoq* (O‘TIL,II,7).



YETTI – (turkiycha so‘z) son, sanoq son, miqdor son,yasama so‘z (yet + i = yeti < yetti). Bu son qadimgi turkiy tilda “ ma’lum bir manzilga borib ol” ma’nosini anglatgan “yet” fe’liga -i qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan (Sevortyan , IV,168).

Yetti. 1.Yetti raqami va shu raqam bilan ifodalangan son, miqdor.M: *Yetti kishi*.

2. Etnografik. Yetti. Vafotning to‘rtinchi kuni o‘tkaziladigan marosim, ma’raka. M: *Kecha, odatga muvofiq, nari – beri yetti qilindi*.

3. Ayrim so‘zlar bilan qo‘llanib, ma’noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. M: *Yetti uxlab tushimga kirmagan*.



YIL – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (yil > yil). Qadimgi turkiy tilda bu so‘z “hayvonlar nomi bilan ataluvchi 12 oylik muddat” ma’nosini anglatgan (PDP, 391; DLT, III, 10).

Yil. 1. Yerning quyosh atrofida bir matra aylanib chiqish muddati; o‘n ikki kalendar oyiga teng vaqt, shunday vaqtga teng o‘lchov. M: *Yilning to‘rt fasli*.

2. Biror hodisa, voqea yuz bergan kundan boshlab o‘tgan o‘n ikki oylik vaqt. M: *Uning ishga kirganiga besh yil bo‘ldi*.

3. O‘n ikki oylik vaqt bilan hisoblanadigan kalendar tizimi. M: *Milodiy yil. Hijriy yil*.

4. Astronomiyaga oid. Biror planetaning Quyosh atrofida bir marta aylanishida o‘tadigan muddat. M: *Mars yili* (687 sutkaga teng), *Zuhra yili* (225 sutkaga teng).

5. Tarixiy. Muchal yil hisobida o‘n ikki muchalning har biri. M: *U qo‘y yilida tug‘ilgan*.

6. Etnografik. Yil oshi. M: *Eri Xoldorbekovning yili o‘tar-o‘tmas, boyvachchaga kenja xotin bo‘lib tushdi* (O‘TIL, II, 268).



YOZ – (turkiycha so‘z) ot turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub (yaz > yoz).

Qadimgi turkiy tilda bu so‘z “yilning issiq yarmi” ma’nosini anglatgan (Sevortyan, IV, 71).

Yoz. 1.Yilning bahor bilan kuz orasidagi eng issiq fasli.

M: *Laylak keldi- yoz bo‘ldi*.

2. Ko‘chma ma’noda. Umrning eng gullagan, yoshlik davri.
M:Yozim o‘tdi, chiroyingizga to‘ymay aslo, bu quvnoq ko‘ngil
(O‘TIL, II, 26).



YOMG‘IR – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (yag‘ + mur = yag‘mur > yang‘ur > yomg‘ir). Bu ot qadimgi turkiy tilda “osmondan yog‘in shaklida tushib tur “ ma’nosini anglatgan “yag‘” fe’liga -mur qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan (PDP, 383; DLT,III,68; DS 223).



ZABUR – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (zabur(un) < zabur). Bu arabcha so‘z asli “yozdi”, “ko‘chirib yozdi” ma’nosini anglatuvchi “zabara” fe’lidan hosil qilingan (ARS,325; ATG,143).

Zabur – Dovud alayhissalomga nozil bo‘lgan ilohiy kitob. To‘rt muqaddas kitobdan birining nomi. Yahudiy – xristian diniy yozuvlari tarkibiga kirgan Psaltir (qadimiy yahudiy duolari – psalmalar to‘plami)kitobi arablarda Zabur, deb atalgan (Muxtorxon Eshon Umarxo‘ja, Diniy atamalar va iboralar, 2016).



ZAKOVAT – (arabcha soʻz) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, yasama soʻz (zakavat > zakovat). Bu soʻz arabcha soʻz boʻlib, “idrokli, oʻtkir zehqli boʻldi” maʼnosini anglatuvchi “zakiy” a feʼlidan hosil qilingan (ATG,143).

Zakovat - sezgirlik, aqllilik, farosat, zakiylik. M: *Uning qotmadan kelgan tiniq yuzida, katta – katta koʻzlarida zakovat nuri porlaydi* (OʻTIL, II, 125).



ZAKOT – (arabcha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama soʻz (zakat (un) < zakat < zakot). Bu arabcha soʻz “koʻpaydi”, “ishi rivoj topdi” maʼnolarini anglatuvchi “zaka” feʼliga -at(un) qoʻshimchasini qoʻshish orqali yasalgan ot boʻlib, arab tilida “poklik”, “sadaqa”, “oʻndan bir ulush” kabi maʼnolarni anglatadi (UAYA, 500; ARS,331).

Zakot. 1. Shariatga muvofiq, puldor, badavlat musulmonning oʻziga qarashli mol-mulki va daromadining qirqdan bir ulushi miqdorida(roʻza vaqtida) beva-bechoralarga, kambagʻal - qashshoqlarga beradigan xayr-sadaqasi. M: *Mana, Fargʻonaning eng aziz, eng badavlat, eng xalqparvar odami – Sodiqjon boyvachcha yaqinda butun Qoʻqon xalqiga zakot berdilar.*

2. Tarixiy soʻz. Oʻrta Osiyo xonliklarida; chorva va mol - mulkning qirqdan bir ulushi miqdorida har yili xazina foydasiga olingan soliq.

M: *Soliqlarning uchinchi turi zakot mol-mulkdan olinadigan davlat soligʻi edi.*



ZAM – zam (arabcha soʻz) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik,tub soʻz(zom-zom < zam-zam). Bu arabcha soʻz asli “chanqadi” maʼnosini anglatuvchi zamia feʼlidan hosil qilingan (ARS, 492).

Zam-zam. 1.Makka shahrida Masjidi Harom sahnidagi muqaddas buloq. Kaʻba yonida boʻlib, hozirgi vaqtda pastda –

alohida va maxsus joyga o'tkazilgan suv jo'mraklari orqali ichiladi.

2. Buloq suvi. M: *Zam – zam suvidan to'yib – to'yib ichish kerak; boshi va tanasi ustidan uni quyish zarur* (Muxtorxon Eshon Umarxo'ja, Diniy atamalar va iboralar).



ZARAR – (arabcha so'z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, yasama so'z (darar (un) < darar < zarar).

Bu so'z asli "ziyon keltirdi" ma'nosini anglatuvchi "darra" fe'liga -un qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan (ARS,140; UAYA, 568).

Zarar. 1. Shikast, buzilish; ziyon – zahmat. M: *Zalda hamma bir narsa to'g'risida gaplashardi; "Do'l qattiq yog'di. G'o'zaga zarar qilmasmikan?"*

2. Savdo-sotiqdan ko'rilgan ziyon; umuman, moddiy yutqiziq. M: *Tarvuzi qo'ltig'idan tushgan director teatrga bir yuz yetmish so'mu to'rt tiyin zarar keltirgan shu tomoshabinning yoqasidan bo'g'ib, ko'chaga opchiqib tashlagudek o'qraydi* (O'TIL,II, 132).



ZAVOL – (arabcha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so'z (zaval < zavol). Bu arabcha so'z "yo'q bo'ldi" ma'nosini anglatuvchi "zala" fe'lidan hosil qilingan (ARS, 338; ATG,142).

Zavol – vaqt o'lchovi. Quyoshning tik holatidan botish tomonga qarab yurish boshlagan payt. M: *Peshin nomozining avval vaqti zavol vaqtidan boshlanur. Zavol shunday vaqtiki, kun qiyom(tush)dan andak o'tib,qibla tarafga moyil bo'lur* (Muxtorxon Eshon Umarxo'ja, Diniy atamalar va iboralar,66).

Zavol. 1.Kunning ikkinchi yarmi, kun oqqan payt bilan kun botar payt oralig'i. M: *Shom bo'ldi, zavol bo'ldi, yigitga uvol bo'ldi.*

2. Ko'chma ma'no. Yo'q bo'lish, mahv bo'lish, o'lim.

M: *Rostga zavol yo'q.*

3. Ko‘chma ma’no. Ofat, kushanda. Ko‘k qurt! Yomon ofat. G‘o‘zaning zavoli (O‘TIL,II, 122).



ZIRAK – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (zir + a = zira + k = zirak). Bu so‘z tebranishni ifodalovchi “zir” holatga taqlid so‘ziga -a qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan fe’lga -k qo‘shimchasini qo‘shib, ot yasalgan (KRS, 294).

Zirak – Quloqqa taqiladigan bezak; isirg‘a. M: *Tilla zirak* (O‘TIL, II,154).



ZIYORAT – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (ziyarat < ziyorot). Bu so‘z asli arabcha so‘z bo‘lib, “huzuriga bordi” ma’nosini anglatuvchi “zara” fe’lidan hosil bo‘lgan (ARS,337).

Ziyorat. 1. Urfda biror kishini hurmat qilishlik va uning xursand bo‘lishini xohlab, uning oldiga yo‘l olmoqlikdir.

M: *Mirzo Anvar inimga Xudo martaba ato qilgan emish, deb eshitdim, - dedi Safar bo‘zchi,- pirimni ziyorat qilay, deb kelyapman.*

2. Qabrlar ziyorati. Marhumlarga Allohdan rahmat tilamoq va ulardan ibrat olmoq uchun qabristonlarga yo‘l olmoq. M: *Ammo shahzoda Qusamning nur sochuvchi mozorining ziyoratidan ahli dillar ajoyib zavq oladilar.*

3. Baytullohni qasd qilib borish. M: *Haj deb lug‘atda bir narsaga qasd qilmoq aytilur va shariatda Ka’batullohni ziyorat qilmoqqa qasd qilmoq xos qilingan*(Muxtorxon Eshon Umarxo‘ja, Diniy atamalar va iboralar, 68).



ZOHID – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, shaxs oti, aniq oti, birlik, bosh kelishik, tub so‘z(zahid>zohid). Bu so‘z asli arabcha so‘z bo‘lib, “har qanday istakni tark etdi”, “kishilar bilan muloqotni tark etdi” ma’nolarini anglatuvchi “zahada” fe’lidan hosil qilingan (ARS, 336).

Zohid. 1. Tarki dunyo qilgan dindor kishi. M: *Zohidlarni hamisha mehrob, minbarda tasavvur qilasizlar* (O‘TIL, II, 162).

Zohid-Xudoning marhamatiga musharraf bo‘lish niyatida tarki dunyo qilgan odam. Dunyo va uning matolariga hirs qo‘ymagan inson. M: *Zohid bo‘lishni faqirlik, deb, anglash yaramaganidek, boy bo‘lishni ham dunyoga o‘chlikdan, deb tushunish to‘g‘ri bo‘lmaydi* (Muxtorxon Eshon Umarxo‘ja, Diniy atamalar va iboralar).



O‘GIT – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (o‘g + ut > o‘gut > o‘git). Bu ot qadimgi turkiy tilda “fikr bildir” ma’nosini anglatgan “o‘g” fe’liga (u)t qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan (Sevortyan, I, 501).

O‘git. Yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, aytiladigan gap; nasihat.

M: *Zehni tez, tirishqoq Sobir otasining o‘gitini bajarishga intilib, “Mashrab”, “So‘fi Olloyor” kabi kitoblarni tezda sharillatib o‘qiydigan bo‘ldi* (O‘TIL, V, 133).



O‘MGAK – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (o‘m + ug = o‘mug + ak = o‘mugak > o‘mgak). Bu turkiy so‘z “bo‘rtib tur” ma’nosini

anglatgan “o‘m” fe’liga-ug qo‘himchasini qo‘shish bilan “o‘mug” oti hosil qilingan (Sevortyan ,I, 453). O‘mgak-Ko‘krak, to‘sh.

M: *O‘tkir so‘z o‘mganni teshar* (O‘TIL, V, 152).



O‘MIZ – (turkiycha so‘z) ot, tutdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (o‘m+uz=o‘muz). Bu ot qadimgi turkiy tilda “doira shaklida bo‘rtib turgan suyak” ma’nosini anglatgan o‘m otiga -(u)z qo‘shish bilan hosil qilingan. Bu so‘z asli “ikki yelka suyagining bo‘rtib turgan qismi” ma’nosini anglatadi (Sevortyan, I, 455).

O‘miz. 1. Yelkaning qo‘l bilan tutashgan qismi. M: *U mening o‘mizimdan Bir otaday ushladi.*

2. Kiyimning yeng o‘tkazish uchun o‘yiladigan joyi (O‘TIL, V, 153).



O‘MROV – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (o‘m + ur = o‘mur + av = o‘murav > o‘mrav > o‘mrov). Bu so‘z qadimgi turkiy tildagi “bo‘rtiq” ma’nosini anglatgan “o‘m” otiga -(u)r qo‘shimchasi qo‘shilib o‘mur fe’li yasalgan va bu fe’lga -(a)v qo‘shimchasi qo‘shilib ot yasalgan (Sevortyan, I, 454).

O‘mrov-ko‘krak. M: *Ibrohimbek popuklik lo‘la bolishni tortib, tizzasiga qo‘ydi. Unga o‘mrovni tirab oldi* (O‘TIL, V, 153)

O‘NGACH – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (o‘ng + uch = o‘nguch > o‘ngach). Bu ot qadimgi turkiy tilda “kovak”, “bo‘shliq” ma’nosini anglatgan “o‘ng” otiga -(u)ch qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan (DS, 387).

O‘ngach-Odam va hayvonlarda ovqat hazm qilish yo‘lining halqum bilan me‘da o‘rtasidagi bir qismi (iste‘mol qilingan ovqat massasi u orqali me‘daga yo‘naladi)(O‘TIL, V, 278).



O‘PKA – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (o‘p + ka = o‘pka). Bu ot qadimgi turkiy tildagi “ich tomonga tort” ma’nosini anglatgan o‘p fe’liga

-ka qo‘shimchasini qo‘shish orqali ot yasalgan (Sevortyan, I, 641).

O‘pka. 1. Odam va quruqlikda yashovci umurtqali hayvonlarning ko‘krak qafasi ichiga joylashgan bir juft, konus shaklidagi nafas olish a‘zosi. M: *O‘pka kasalligi*.

2. Ko‘chma ma‘noda. O‘zini bosolmaydigan, hovliqma shaxslarga nisbatan, odatda ularning ismiga qo‘shib (tirkab) ishlatiladi. M: *Jumavoy o‘pkadan har narsani kutsa bo‘ladi*.

3. Hayvonlarning shu a‘zosi (ovqat sifatida). M: *Uzoqdagi quyruqdan yaqindagi (oldindagi) o‘pka yaxshi*.



O‘RDAK – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (o‘:r + dak = o‘:rdak > o‘rdak).

Bu ot qadimgi turkiy tildagi “sho‘ng‘i” manosini anglatgan f‘e‘liga -dak qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan (DLT, I, 128; DS,388)

O‘rdak so‘zi asli “ko‘p marta sho‘ng‘uvchi” ma‘nosini anglatgan.

Bu qushga ana shu xususiyati asosida nom berigan.

O‘rdak- O‘rdaksimonlar oilasiga mansub bo‘yni kalta, oyoqlari qisqa, kuraksimon, suvda suzib yurishga moslangan, yalpoq tumshuqli parranda. M: *Yovvoyi o‘rdak* (O‘TIL, V, 165).



O‘RGAN – (turkiycha so‘z) fe‘l, harakat fe‘li, o‘timli fe‘l, bo‘lishli, buyruq-istak mayli, yasama so‘z (o‘ + g = o‘g + ur + o‘gur + an = o‘guran > o‘gran > o‘rgan). Bu fe‘l qadimgi turkiyda “bil” ma‘nosini anglatgan “o‘” fe‘liga -g qo‘shimchasini qo‘shish bilan “fikir” ma‘nosini anglatuvchi “o‘g” oti yasalgan. Bu otga -(u)r qo‘shimchasini qo‘shib fe‘l yasalgan. So‘ngra o‘zlik ma‘nosini ifodalovchi -(a)n qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilingan (Sevortyan, I, 498).

O‘rgan. 1. Bilim, kasb, ish va shu kabilarni o‘zlashtirmoq, egallamoq, bilib olmoq. M: *Birovdan ish o‘rganmoq*.

2. Siri, mohiyati, mazmuni va shu kabilarni aniqlash, belgilash maqsadida tekshiruv, kuzatuv, tahlildan o‘tkazmoq.

M: *Bu dalillarni sinchiklab o'rganib, Quyoshning nisbatan tinch paytida kosmik nurlanish yerdan uzoq joylarda kishi uchun xavfli bo'lmasligi kerak, degan xulosaga kelish mumkin.*

3. G'ayritabiiy, noqulay kabi tuyulmaydigan holga aylanmoq, shunday sezilmoq, qabul qilmoq. M: *Xalq bunga haqli edi, chunki bunday tinchsizliklarni ko'ra- ko'ra, juda o'rganib qoldi.*

4. Odat qilmoq. M: *O'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'yimas.*

5. O'zini yaxshi aloqada tutmoq, moslashmoq, bog'lanib qolmoq. M: *Bu to'riq menga juda o'rgangan* (O'TIL, V, 162).



O'RGIMCHAK – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so'z (o'r + gu = o'rgu + m = o'rgum + chak = o'rgumchak > o'rgimchak). Bu so'z qadimgi turkiy tilda “esh” ma'nosini anglatgan “o'r” fe'liga qo'shimchalar qo'shish bilan hosil qilingan (Sevortyan, I, 545).



O'ROQ – (turkiycha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so'z (o'p + g'a = o'rg'a + q = o'rg'aq > o'raq > o'roq). Bu ot qadimgi turkiy tilda “ poyasi bilan kes” ma'nosini anglatuvchi “o'r” fe'lining takror ma'nosini ifodalovchi -g'a qo'shimchasi bilan hosil qilingan shaklidan -q qo'shimchasi bilan yasalgan (Sevortyan, I, 468).

O'roq. 1. Turli boshqli ekinlar, beda, pichan va o'tlarni qo'lda o'rish uchun ishlatiladigan, beli bukik, o'tkir tig'li mehnat quroli; qo'l o'roq. M: *Yo'lchi o'roqqa diqqat bilan tikilib qaradi va enkayib o'ra boshladi.*

2. O'rish ishi; o'rish jarayoni. M: *Avji o'roq payti. O'roqda yo'q, mashoqda yo'q, xirmonda- hozir* (O'TIL, V, 169).



O'TTIZ – (turkiycha so'z) son, sanoq son, miqdor son, sodda son, tub so'z (o'ttuz > o'ttiz). Bu son qadimgi turkiy tilda dastlab “otuz” tarzida talaffuz qilingan (PDP, 405; DS, 374).

O'ttiz-O'ttiz raqami va shu raqam bilan ifodalangan son ; miqdor. M: *O'ttiz metr chit. Ikki o'n besh - bir o'ttiz* (O'TIL, V, 184).



O'YNA – (turkiycha soʻz) feʼl, harakat feʼli, oʻtimli feʼl, boʻlishli, buyruq-istak mayli, II shaxs, kelasi zamon, yasama soʻz (oʻyun + a = oʻyuna > oʻyna). Bu feʼl qadimgi turkiy tilda “tana, oyoq va qoʻl va qosh-koʻzlarini kuyga monand holda harakatlantir”, “raqsga tush” maʼnolarini anglatgan “oʻyun” otiga -a feʼl yasovchi qoʻshimchasini qoʻshish bilan yasalgan (Sevortyan, I, 436; PDP,404; DS, 365).

Oʻyna. 1. Dam olish, koʻngil ochish maqsadidagi biror erkin ish, mashgʻulot, oʻyin bilan shugʻullanmoq. M: *Bekinmachoq oʻynamoq.*

2. Rasmiy ish- vazifalardan holi holda dam olish, sayr etish kabi holatlarda vaqt oʻtkazmoq. M: *Sobiraxon, Bahrini ham olib boringlar, oʻynab kelsin.*

3. Musobaqa tarzidagi sport oʻyini bilan shugʻullanmoq, shunday oʻyinda qatnashmoq. M: *Shaxmat oʻynamoq.*

4. Qimor oʻyinida qatnashmoq. M: *Siz bilan oʻynamasa, kim bilan ham oʻynaydi, - dedi gap ohangini oʻzgartirib.*

5. Tana, oyoq, qoʻl va qosh-koʻzlarini kuyga muqobil holda harakatlantirmoq; raqs tushmoq. M: *Bu juvon tanovarga juda yaxshi oʻynaydi.* (OʻTIL,V,143).



O'Z – (turkiycha soʻz) olmosh, oʻzlik olmoshi, sodda soʻz, tub soʻz, birlik, bosh kelishik, tub soʻz (oʻ:z > oʻz). Bu olmosh qadimgi turkiy tilda “tananing ich qismi” maʼnosini anglatgan. “Taʼkid” maʼnosi keyinchalik yuzaga kelgan (Sevortyan, I, 507).

Oʻz. 1. Egalik olmoshini olgan ot oldidan kelganda, kimsa yoki narsaning egalik qoʻshimchasidan anglashilgan shaxsga (1, 2 yoki 3-shaxsga) qarashli ekani ifodalanadi. Bunda shaxs maʼnosi shaxs qoʻshimchasi orqali voqelanadi, oʻz soʻzi taʼkidlash uchun qoʻllanadi. M: *Oʻz vatani.*

2. Egalik qoʻshimchasi bilan kelganda; 1)ish-harakat shu qoʻshimcha bildirgan shaxsga oidligini bildiradi. M:*Oʻzim soʻradim. Oʻzing soʻra.*

3. Biron maqsad, sabab bilan emas, shunchaki. M: – *Nimaga xafasan? Mana, man sog‘-salomat qaytdim. – Hech nima, -yerga qarab, dedi Unsin, – o‘zim shunday...*

4. O‘ziga xos. M: Kuzda baliq ovlashning ham o‘z gashti bor.

5. Qaratqich kelishigidagi so‘z bilan qo‘llanib, o‘xshashlikni alohida ta’kid, qayd bilan bildiradi. M: *Katta o‘g‘li otasining o‘zi* (O‘TIL, V, 134).



O‘ZAK – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (o‘z + ak = o‘:zak > o‘zak). Bu so‘z qadimgi turkiy tilda “tananing ich qismi ma’nosini anglatuvchi “o‘:z” so‘ziga kichraytirish ma’nosini ifodalovchi -(a)k qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilingan (Sevortyan, I, 510).

O‘zak. 1. O‘simlik poyasi va ildizining ko‘pincha yumchoq to‘qimadan iborat bo‘ladigan ichki qismi. M: *Tolning o‘zagi*.

2. Shevada. Daraxt, buta kabilarning tanasi; poya.

M: *G‘ulomjon o‘rikning keksa, yo‘g‘on o‘zagini ushlab turib, to‘xtadi*.

4. Ildizmevaning (yog‘och o‘zagiga o‘xshash) o‘rta qismi.

M: *Sabzining o‘zagi*

4. Tilshunoslikka oid. So‘zning asl ma’nosini bildirib, yangi so‘z yasashiga asos bo‘ladigan, so‘z yasovchi qo‘shiladigan eng kichik qism; so‘z yasash asosi.

5. Ko‘chma ma’noda. Biror narsaning eng muhim, asosiy qismi; asos, mohiyat. M: *Ular (ayollar) oilaning o‘zagi va fayzidir* (O‘TIL, V, 134).



O‘Y – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (o + y = oy > o‘y). Bu so‘z asli qadimgi turkiy tildagi “fikrla” ma’nosini anglatgan “o” fe’liga -y qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan (Sevortyan, I, 429).

O‘y. 1. Xayolan fikr, mulohaza yuritish jarayoni va uning natijasi; fikr, mulohaza. M: *Uning mardona ochiq peshonasi, quyruq egilmas qoshlari chuqur o‘yni ifodalar edi*.

2. Fikran mo‘ljallangan reja, maqsad, niyat. M: *Ishimdan xursandman, endi bitta yarimta nasibaga qo‘shilgan xotin chiqib qolsa, uylansam, degan o‘yim ham yo‘q emas.*

3. Fikrlash qobiliyati; aql. M: *Bo‘yimiz yetsa ham, o‘yimiz yetmaydi.*

4. O‘ylangan narsa. M: *Hamma suv chiqarishni o‘ylardi. Hozir hammaning o‘yi suv (O‘TIL, V, 139).*



G‘ALABA – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (g‘alabat < g‘alaba). Bu arabcha so‘z “yengdi” ma’nosini anglatgan “g‘alaba” fe’lidan hosil bo‘lgan (ARS, 568).

G‘alaba. 1. Jang yoki bellashuvda qozonilgan, erishilgan muvaffaqiyat; zafar. M: *Hirot darvozalari tepasida karnayu sunray, nog‘oralar avj qildi; sulton Shohrux mirzo lashkarlari g‘alaba bilan qaytib keldi.*

2. Ish-faoliyat, maqsad yo‘lida erishilgan muvaffaqiyat, yaxshi natija; yutuq. M: *O‘zbekiston oqsoqoli Yo‘ldosh Oxunboboyev xalq hasharida qatnashgan barcha quruvchilarni katta g‘alaba bilan tabrikladi (O‘TIL, V, 430).*



G‘ALLA – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (g‘allat < g‘alla). Bu so‘z arabcha “hosil

berdi” ma’nosini anglatgan “g’alla” fe’lidan hosil qilingan. Arabchada “hosil”, “don-dun” ma’nolarini anglatadi (ARS, 570).

G’alla – daromad; o’rim, hosil; don, g’alla. Boshhoqli ekinlar hosili; don. M: *G’alla tayyorlash punkti* (O’TIL, V,433).



G’AMXO’R – (fors-tojikcha so’z) sifat, nisbiy sifat, xususiyat sifati, yasama so’z (g’am “tarqat” ma’nosini anglatuvchi “xoridan” fe’lining “xor” hozirgi zamon asosini qo’shish orqali yasalgan (TJRS, 427,477).

G’amxo’r – qayg’uga sherik, hamdard bo’luvchi, yupatuvchi; shafqatli. Kimsa uchun qayg’uradigan, uning g’amini yeydigan.

M: *Yuragidagi shuncha g’am – g’ussani ko’tarib, yana singlisiga onaday, otaday mehribon va g’amxor akadan ayrilish!..*



G’ANIMAT– (arabcha so’z) sifat, asliy sifat, xususiyat sifati, yasama so’z (g’animat(un) < g’animat). Bu arabcha so’z asli “o’lja sifatida oldi” ma’nosini anglatuvchi “g’anima” fe’lidan yasalgan (ATG,43).

G’animat. 1. Husayn Boyqaro merganlar bilan birga tantanali ov haftalari tuzib, qorli sahrolarga suron solar, katta g’animat bilan qaytardi.

2. Umuman, qo’lga kirgan, ega bo’lingan narsa. M: *O’g’illari o’ttizinchi yillarda otalaridan meros qolgan g’animatlarni cho’ntakka solib, ming mashaqqatlar bilan Mashhadga qochgan edi.*

3. Shaxs, holat yoki narsaning mavjudligi vaqtinchalik, o’tkinchi va qaytmaydigan ekanini bildiradi. M: *Dam g’animat. Yoshlik g’animat* (O’TIL, V, 436).



G’ARB – (arabcha so’z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so’z (g’arb(un), g’arb). Bu arabcha so’z “quyosh botdi” ma’nosini anglatgan “g’araba” fe’lidan hosil bo’lgan (ARS, 559).

G’arb – 1. Dunyoning to’rt tomonidan biri; sharqqa qarama – qarshi tomon; quyosh botadigan tomon; kunbotar. M: *G’arbdan esgan shamol.*

2. Ma'lum bir obyekt, hudud, maydon va shu kabilarning g'arb tomoni, g'arbiy qismi. M: *O'zbekistonning g'arbi*.

3. G'arbiy Yevropa (O'TIL, V,437).



G'AVVOS – (arabcha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so'z (g'avvas < g'avvos). Bu arabcha so'z ko'pmanoli "suvga sho'ng'idi" ma'nosini anglatgan "g'avvasa" fe'lidan hosil qilingan (ARS,574).

G'avvos. 1.Suvga sho'ng'uvchi, suv ostida ostida dur izlovchi shaxs.

2. Suv o'tkazmaydigan maxsus kiyimda suv osti ishlarini bajaruvchi shaxs. M:*Kemaning yukini g'ovvoslar necha asrlardan keyin – yaqindagina suv yuzasiga chiqardilar* (O'TIL,V,425).



G'AZAL – (arabcha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so'z (g'azal(un) < g'azal). Bu arabcha so'z ko'p ma'noli "ko'ngil ovlaydigan so'zlar aytdi" ma'nosini anglatadigan "g'azila" fe'lidan hosil qilingan (ATG, 142).

G'azal – xotin-qizlarning ko'nglini olish, erkalash; lirik she'r. Aruz she'riy tizimida uch baytdan o'n to'qqiz baytgacha bo'lgan, Sharq xalqlari, jumladan, o'zbek adabiyotidagi lirik she'r.

M: *Hunarim, ma'lumingiz – g'azallar yozish, Ba'zan bir hijo qilur qonimga tashna* (O'TIL,V,427).



G'AZOT – (arabcha so'z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so'z (g'azvat < g'azat < g'azot). Bu arabcha so'z "bosqin qildi" ma'nosini anglatgan g'aza fe'lidan hosil qilingan (ATG, 143).

G'azot – islom dinini yoyish yoki dushmanlardan himoya qilish uchun Rasulloh (s.a.v) boshchiliklarida olib borilgan yoki u zot bevosita qatnashgan jang harakatlari va harbiy yurishlar.

M: *Chunki bul ikkovlari Rasululloh (s.a.v)ga yoqarlik darajada bu g'azotda ish ko'rsatdilar* (Muxtorxon Eshon Umarxo'ja, Diniy atamalar va iboralar).

G'azot.1.Din yo'lida qilinadigan urush, jang; musulmonlarning muqaddas urushi. M: *Musulmonobod yo'lida*

g‘azotni boshlash uchun hamma narsa tayyor, faqat yarog‘-aslaha yo‘q.

2. Boshqalar yeriga hujum, istilo. M: *Urushda yarqillar keskir po‘lotim, Misrning yurtiga bo‘ldi g‘azotim* (O‘TIL,V,428).



G‘AYRAT – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik (g‘ayrat(un) < g‘ayrat). Bu arabcha so‘z “intildi” ma’nosini anglatgan g‘ara fe’lidan hosil qilingan (ATG,143).

G‘ayrat. 1. Ish-harakatga bo‘lgan kuchli intilish, berilish hissi; ishtiyoq. M:*Siz, muhtaram ustodning mehribonchiliklaringiz bir g‘ayratimizga o‘n g‘ayrat qo‘shadi* (ATG, 143).



G‘IYBAT – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik(g‘iybat(un) < g‘iybat). Bu ot “badnom qildi”ma’nosini anglatgan “g‘aba” fe’lidan hosil qilingan (ARS,575,576).

G‘iybat – Yomonlash, qoralash. Bir kishining o‘zi yo‘q paytida uning moddiy, jismoniy, ma’naviy – axloqiy ayblari, kamchiliklari haqida gap sotish. Buni islom dini qattiq qoralaydi, gunoh.

M: *G‘iybat qilish kabi uni tinglash ham haromdir. Islom ulamolari fikriga biror zarur tug‘ilish ehtimoli bo‘lmasa, g‘iybatga to‘sqinlik qilish, buning imkoni bo‘lmasa, An‘om surasi 68-oyat hukmiga ko‘ra, g‘iybat bo‘layotgan majlisni tark etish, bu ham mumkin bo‘lmasa, g‘iybatga qarshi norozilik kayfiyatida boshqa narsalar bilan mashg‘ul bo‘lish kerak* (Muxtorxon Eshon Umarxo‘ja, Diniy atamalar va iboralar, 197).



G‘OLIB – (arabcha so‘z) sifat, asliy sifat, xususiyat sifati, tub sifat (g‘alib < g‘olib). Bu arabcha so‘z “yengdi” ma’nosini anglatgan “g‘alaba” fe’lidan hosil qilingan (ARS, 568).

G‘olib – g‘alaba qiluvchi, muzaffar. Urush, jang, kurash, tortishuv, musobaqa va shu kabilarda g‘alaba qozongan, ustun chiqqan;muzaffar. M: *G‘olib xalq* (O‘TIL,V,454).



G‘OYIB – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (g‘aib < g‘ayib < g‘oyib). Bu arabcha so‘z “ko‘zdan yo‘qoldi” ma‘nosini anglatgan g‘aba fe‘lidan hosil qilingan (ARS, 575).

G‘oyib – Mavjud, bor bo‘lmagan; yashirin, pinhoni; ko‘rinmas. Shu yerda yo‘q, mavjud emas; ko‘rinmay ketgan, yo‘q bo‘lib ketgan. M: *Shu paytda bir kabutar ajoyib, Ko‘kda borar goh ko‘rinib, goh g‘oyib* (O‘TIL, V, 453).



G‘ULUV – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik (g‘uluvv < g‘uluv). Bu so‘z “chek-chegaradan chiqdi” ma‘nosini anglatgan g‘ala fe‘lidan hosil qilingan bo‘lib, arab tilida “me‘yordan chiqish”, “haddan tashqari intilish” ma‘nolarini anglatadi (ARS, 570; ATG, 143).

G‘uluv – dinda, e‘tiqodda chuqur ketish, ibodatlarda o‘zini ko‘rsatmoqqa intilish.

M: *Havasim oqibat g‘uluv qildi,*

O‘zini aql chorag‘i bildi (Muxtorxon Eshon Umarxo‘ja, Diniy atamalar va iboralar, 197).

G‘uluv. 1. Bo‘rttirib ko‘rsatish, haddan ortiqlik, mubolaga; chegaradan chiqishlik. Kelishmovchilik, norozilik va shu kabilarni ifodalovchi ovoz, xatti – harakat; g‘avg‘o, to‘polon, janjal.

M: *..podshoning urushi uchun tutun puli ham, don ham, moy ham kor qilmay qoldi. Endi podsho mardikor so‘radi. Shunda hamma yerda g‘ulu chiqdi.*

2. Kishi ruhi, dilidagi notinch, bezovta holat; notinchlik, bezovtalik. M: *Kechalari mizg‘imas me‘mor, Muhandisda o‘zgacha g‘ulu.*

3. Mubolag‘aning uchinchi darajasi: ma‘lum narsa, belgi, holat yoki harakatni aql bovar qilmaydigan, hayotda ham ro‘y bermaydigan, tarzda tasvirlashdan iborat she‘riy san‘at (O‘TIL, V, 449).



G‘URUR – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (g‘uro‘r < g‘urur). Bu ot arabcha

“mag‘rurlanish hissiga berildi” ma’nosini anglatuvchi “g‘arra” fe’lidan hosil qilingan (ARS, 558; ATG, 143).

G‘urur. 1. Jaholat; xom (puch) xayol; manmanlik, mag‘rurlik; kibr-havo. Insonning o‘z qadr – qimmatini bilish, uni hurmat qilish hissi; izzat-nafs. M: *Yigitlik g‘ururi*. Qizlik g‘ururi (O‘TIL,V,461).



SHAJARA – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (shajarat < shajara). Bu arabcha so‘z shajarat(un) shakliga ega bo‘lib, “daraxt ekdi” ma’nosini anglatgan “shajar” fe’liga -at(un) qo‘shimchasini qo‘shish orqali dona oti hosil qilingan va “bir dona daraxt” ma’nosini anglatgan. *Shajarat al nasab* birikmasi tarkibida ishlatilib, “nasl-nasab daraxti” ma’nosini anglatadi (ARS,393, UAYA, 568, ATG, 373).

Shajara – daraxt; daraxt shaklida tuzilgan sxema. Ma’lum bir urug‘ avlodlarining kelib chiqishi va o‘zaro qarindoshlik darajasini izchillik bilan ko‘rsatuvchi ro‘yxat, tarix; silsila.

M: *Somoniylar shajarasining so‘nggi butog‘i bo‘lgan podsho Nuh binn Mansur kasalmand odam edi* (O‘TIL,IV,533).



SHAKKOK – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (shakkak < shakkok). Bu arabcha so‘z

shakkak(un) shakliga ega bo‘lib, “shubhalandi” ma’nosini anglatuvchi “shakka” fe’lidan hosil qilingan (ARS,412).

Shakkok – shubha bilan qaraydigan, ishonmaydigan. Diniy aqidalarga shubha bilan qaraydigan, shak keltiradigan kishi.

M: *Xo‘sh, sizni shakkoklikda ayblamoq uchun ularda hech asos bormi?* – *so‘radi Navoiy kulib Sultonmuroddan.*



SHAKL – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (shakl(un) < shakl). Bu arabcha so‘z asli “ko‘rinish berdi” ma’nosini anglatga “shakala” fe’lidan hosil qilingan (ARS,413).

Shakl. 1. Narsaning tashqi ko‘rinishi, sirtqi qiyofasi, ifodasi. M: *Uchburchak shaklidagi jism.*

2. Matematik termin. Ma’lum ko‘rinish, qolipdagi narsa, figura. M: *Geometrik shakllar.*

3. Fizik termin. Jismning holati, ko‘rinishi. M: *Muz suvning qattiq shaklidir.*

4. Mazmunning ifoda tomoni, tashqi ko‘rinishi, ifodalanishi. M: *Bu ajoyib asar obidada ming – minglab o‘zbek oilalarining jasorati umumlashma shaklida ifodalangan.*

5. Ko‘chma ma’no. Biror narsani amalga oshirish yo‘sini; usul. M: *Sen bilan ikkimiz ikki shaklda o‘ylaymiz* (O‘TIL, IV,536).



SHALVAY – (turkiycha so‘z) fe’l, harakat fe’li, bo‘lishli fe’l, o‘timsiz fe’l, yasama so‘z (shal+ba = shalba +y = shalbay > shalvay). Bu fe’l asli turkiy tildagi “bo‘shashgan” ma’nosini bildiruvchi shal – shul so‘ziga eski o‘zbek tilidagi -ba qo‘shimchasini qo‘shish bilan fe’l yasalgan. Yasama fe’lga “biroz” ma’nosini ifodalovchi -y qo‘shimchasini qo‘shish bilan shalbay fe’li hosil qilingan (Sh.Rahmatullayev, O‘TEL,446). Shalvay–Kuch–madorsiz, holsiz holatga tushmoq; boshashmoq, shalviamoq. M: *Qudrat po‘chtadan negadir shalvayib kelayotgan edi* (O‘TIL,IV,538).



SHALOQ – (turkiycha so‘z) sifat, asliy sifat, oddiy daraja, yasama so‘z (shal + a = shala + q = shalaq < shaloq). Bu so‘z qadimgi turkiy tildagi “bo‘shashgan” ma’nosini anglatuvchi shal-shul so‘ziga -a qo‘shimchasini qo‘shib shala fe’li yasalgan. Bu fe’lga -q qo‘shimchasi qo‘shilib, shalaq sifati hosil bo‘lgan (Sh.Rahmatullayev, O‘TEL,I,447).

Shaloq. 1. Qismlari eskirib,bo‘shashib,futurdan ketgan;buzuq.
M: *Shaloq arava. Shaloq mashina.*

2. Ko‘chma ma’no. Holdan toygan, charchagan; ezilgan.

M: *A‘zoyi badanim go‘yo birov kaltaklab tashlagandek shaloq.*

3. Axloqi buzuq, bezori. M: *Shaloq odam.*

4. Axloq doirasidan tashqari; axloqsiz, uyatli, buzuq. M: *Boqi aka eng shaloq so‘zlar bilan so‘kingancha, Haydarga tashlandi (O‘TIL,IV,540).*



SHAM – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (sham(un) < sham). Bu arabcha so‘z “qotadigan yog‘dan tayyorlangan mum bilan qopladi” ma’nosini anglatgan “shama’a” fe’lidan hosil qilingan (ARS,416).

Sham. 1. To‘ng‘adigan yoki quyuvlashgan, o‘rtasiga pilik qo‘yib yasalgan tayoqsimon chiroq. M: *Sham qoldig‘i. Shamni yoqmoq.*

2. Fizik termin.Yorug‘lik kuchining o‘lchov birligi. M: *Kuchi yuz sham bo‘lgan lampochka (O‘TIL, IV,540).*



SHAMOL – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (shamal < shamol). Bu arabcha so‘z shamal(un) shakliga ega bo‘lib, asli “o‘radi” ma’nosini anglatgan “shamala” fe’lidan hosil bo‘lgan (ARS,416 – 417). Shamol – Havoning yer sathi bo‘ylab(gorizantal) harakati. M: *Yoqimli shamol. Sovuq shamol (O‘TIL,IV,542).*



SHAMS – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik (shams(un) < shams). Bu arabcha so‘z “nurli bo‘ldi” ma’nosini anglatgan “shamasa” fe’lidan hosil bo‘lgan (ARS,416).

Shams. 1. Quyosh. M:*Bugun koinotda shams-podsho, qamar – vazirdir.*

2. Shams (erkaklar ismi) (O‘TIL,IV,542).



SHAPARAK – (turkiycha so‘z) sifat, xususiyat sifati, nisbiy sifat, oddiy daraja, yasama so‘z (shab-shap + ar = shapar + ak = shaparak). Bu sifat asli qadimgi turkiy tilda mavjud bo‘lib, “yassila”, “yupqa qil” ma’nosini anglatgan “shab”- shap fe’liga -a(r) qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilingan shakliga -a(k) qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilingan (Sh.Rahmatullayev, O‘TEL,I,450).

Shaparak – Yupqa, puchak. M: *Shaparak non. Taxmonda bir eski yashik. Uning ustida uvada ko‘rpa. Toshday qattiq kir, shaparak yosti* (O‘TIL,IV,545).



SHARSHARA – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (shar – shar) + a = sharshara). Bu ot asli eski o‘zbek tilida ko‘p miqdordagi suvning yuqoridan pastga quyilib tushayotganida hosil bo‘ladigan tovushga taqlidni bildiruvchi “shar” so‘zining takror shakliga -a qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan (O‘TEL,I,451).

Sharshara – Baland, tik tepalikdan pastga shovullab oqib tushadigan suv oqimi; shalola.

M: *Oltmish metr balandlikdan otilib tushayotgan sharshara to‘foni tagida bo‘ldik.*



SHARAF – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (sharaf(un) < sharaf). Bu arabcha so‘z “hurmatli bo‘ldi”, “dongdor bo‘ldi” ma’nosini anglatgan “sharufa” fe’lidan hosil qilingan (ARS, 405).

Sharaf – 1. Fahrlanishga arziydigan narsa, yuksak qoniqish hissi; baxt , faxr, iftixor. M: *Shodlik bilan tug‘ilib, sharafu obro‘ bilan o‘tmoq – inson uchun baxt.*

2. Biror ijobiy xislat, xizmat yoki talant tufayli xalq orasida taratilgan dong; shuhrat, shon. M: *Paxtakor qahramonlarga shon va sharaflar bo‘lsin.*

3. Sharaf (erkaklar ismi) (O‘TIL, IV,546).



SHARIAT – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik (shari‘at < shariat). Bu arabcha so‘z “qonun chiqardi” ma’nosini anglatgan shara’a fe’liga -at(un) qo‘shimchasini qo‘shib mavhum ot yasalgan (ATG, 48; ARS,400;UAYA,500).

Shariat – Islom huquq tizimida: musulmonlarning Qur’on asosida ishlab chiqilgan diniy, jinoiy va fuqarolik qonun va qoidalari majmui. M: *Yarashadigan bo‘lsangiz, shariat yo‘l topib beradi* (O‘TIL,IV,547).



SHARQ – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik bosh kelishik, tub so‘z (sharq(un) < sharq). Bu arabcha so‘z “quyosh chiqdi” ma’nosini anglatgan “sharaqa” fe’lidan hosil qilingan (ARS,401-402).

Sharq. 1. Dunyoning to‘rt tomonidan biri; g‘arbga qarama – qarshi bo‘lgan tomon, quyosh chiqadigan tomon; kunchiqish.

M: *Ot ko‘chaning sharqqa yurib yana shimolga burilib, tor ko‘cha bo‘ylab uzoq ketdi.*

2. G‘arbiy Yevropaga nisbatan sharq tomondagi mamlakatlar, o‘lkalar. M: *Sharqqa sayohat* (O‘TIL,IV,552).



SHAVKAT – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (shavk + at(un) < shavkatun < shavkat). Bu ot arabcha so‘z bo‘lib, “tikanli bo‘ldi” ma’nosini anglatuvchi “shaka” fe’liga -at(un) qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan. Bu so‘z arab tilida “tikan”, “vilka” “qiltanoq”, “kuch - qudrat” ma’nolarni anglatadi (ARS, 422; ATG,142).

Shavkat. 1. Tikan; tig‘, kuch, qudrat, quvvat. El-xalq ichida qozonilgan katta obro, hurmat; shon – shuhrat, dovruc. M: *Qizini yer – ko‘kka ishonmagan onasi.. bu qizni katta shavkat va dabdaba bilan uzatishni orzu qilardi.*

2. Salobat, viqor; savlat. M: *Saroyning o‘rtaligida adras ko‘rpachalar to‘shalgan shiypon ostida shavkat bilan paryostiqa suyanib, karvonboshi o‘tirmoqda edi.*

3. Dabdaba, tantana, hashamat. M: *Bazm butun shavkatni, butun an‘ana va odati bilan davom etadi.*

4. Shavkat (erkaklar va xotin – qizlar ismi) (O‘TIL,IV,532).



SHAVQ – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (shavq(un) < shavq). Bu so‘z asli arabcha “intilish,xohish uyg‘otdi” ma’nosini anglatgan “shaqa” fe‘lidan hosil bo‘lgan (ARS,422).

Shavq. 1. Kuchli havas, intilish;qiziqish, ishtiyoq. M: *Bu g‘azalda yosh yigitning hissi, shavqi, nash‘asi yangradi.*

2. Shunday intilish, qiziqish tufayli yuzaga kelgan ko‘tarinki ruhiy holat; zavq. M: *Shavqqa to‘lib kuylamoq* (O‘TIL,IV,532).



SHAY – (turkiycha so‘z) ravish, holat ravishi, oddiy daraja, tub so‘z (shay > shay). Bu so‘z “tayyor holga keltirilgan”, “taxt”ma’nolarini anglatgan (Sh.Rahmatullayev, O‘TEL, 446).

Shay. 1. Tayyor holga keltirilgan; tayyor, taxt. M: *Hamma narsa shay. Doim shay bo‘lib turmoq.*

2. Narsa, buyum, nimadir. M: *U hikoya qiladi: “Muhabbat bir balo shaydir, giriftor bo‘lmagan bilamas”* (O‘TIL,IV,533).



SHAYTON – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z(shaytan < shayton). Bu arabcha so‘z “qabihlik, razillik qildi”ma’nosini anglatuvchi “shaytana” fe‘lidan hosil bo‘lgan (ARS,424,ATG,339).

Shayton – iblis, jin, ajina. Odamlarni din yo‘lidan ozdiruvchi, ularni gunohga, jinoyatga, razolatga boshlovchi yovuz ruh yoki yovuz ruhlarning boshlig‘i.

M: *Allohim, qulingman, murodga yetkaz,
Ko‘zlarim yoshini inobatga ol.
Shayton vasvasasini qalbindan ketkaz,
O‘zing yorlaqagin, haq yo‘lingga sol* (Muxtorxon Eshon Umarxo‘ja, Diniy atamalar va iboralar,176).

I. Shayton -1. Iblis; jin, ajina. M: *Ey ulug‘ shoh, bu yo‘ldan qayt, shayton vasvasasiga uchma, keyin pushaymon bo‘lib yurma.*

2. Ko‘chma ma‘no. Ayyor, quv odam; aldamchi. M: *Anavi magazinchi borku. Ulug‘bek shayton...*

3. Ko‘chma ma‘no. Sho‘x, o‘ynoqi. M: *Qiz bola shayton bo‘ladi –da, tavba, bo‘y – basti cho‘zilib, rostdan ham, suqsurdek qiz bo‘libdi.*

II. Shayton – Duradgorlik va binokorlik ishlarida; sathning tekisligini aniqlash uchun ishlatiladigan asbob; vaterpas.

M: *Gorizont tekisligini shayton yordami bilan bilish mumkin.*



SHE’R – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (shir < she’r). Bu arabcha so‘z “his qildi”, “ta’sirlandi” ma‘nosini anglatuvchi “sha’ara” fe’lidan hosil bo‘lgan (ARS,406;ATG,142).

She’r –Ma’lum vazn va qofiyali kichik badiiy asar. M: *Aruz vaznidagi she’r* (O‘TIL,IV,565).



SHIMI – (turkiycha so‘z) fe’l, harakat fe’li, o‘timli fe’l, bo‘lishli fe’l, buyruq -istak mayli, tub so‘z (shim + i = shimi). Bu so‘z o‘zbek tilida “so‘r” ma‘nosini anglatgan “shim” fe’liga “takror” ma‘nosini ifodalovchi -i qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilingan (O‘TEL ,IV,455). Shimi – shimmoq. M: *Madrahim araqqa botgan sariq mo‘ylovini shimidi* (O‘TIL,IV,573).



SHIMOL – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (shimal < shimol). Bu arabcha so‘z “o‘radi” ma‘nosini anglatgan *shamala* fe’lidan hosil qilingan (ARS,417;ATG,247).

Shimol. 1. Dunyoning to‘rt tomonidan biri – janubga qarama – qarshi bo‘lgan tomon. M: *Kompas strelkasi shimolni ko‘rsatib turipti.*

2. Ma‘lum bir joy yoki hududning ayni shu tomonidagi qismi. M: *Farg‘onaning shimoli, Afrika shimolida* (O‘TIL, IV,573).



SHIOR – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (shi‘ar < shior). Bu arabcha so‘z “his qildi”, “ta‘sirlandi” ma‘nosini anglatuvchi “sha‘ara” fe‘lidan hosil qilingan (ARS,406).

Shior. 1. Bosh g‘oya, masala yoki siyosiy talabni ifodalovchi, qisqa shaklda bayon qilingan chaqiriq. M: *Stansiya binolari va poyezdlarda “Hamma narsa front uchun, g‘alaba uchun!” deb yozilgan shiorlar ko‘zga tashlanib turadi.*

2. Faoliyatni belgilovchi, undagi asos maqsad, shu maqsadni ifodalovchi so‘z, gap. M: *Shiorimiz shu yil har gektar yerdan 35 sentnerdan hosil yetishtirishdan iborat* (O‘TIL,IV,575).



SHIDDAT– (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, mavhum ot, birlik, bosh kelishik, tub fe‘l (shiddat (un) < shiddat). Bu arabcha so‘z “kuchli, baquvvat bo‘ldi” ma‘nosini anglatuvchi shadda fe‘lidan hosil qilingan (ARS,395).

Shiddat. 1. Harakatdagi narsalarning, hodisalarning intensiv kuchi, yuqori kuch va sur‘at. M: *Shamol shiddati.*

2. Zo‘r g‘ayrat, shijoat. M: *Kun o‘tdi, kun ketidan kun keldi, lekin tog‘ qazuvchilar shiddati zarracha ham bo‘shashmadi.*



SHIFO – (arabcha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (shifa‘<shifa < shifo). Bu arabcha so‘z “sog‘aytirdi” ma‘nosini anglatuvchi shafa fe‘lidan hosil qilingan (ARS,410).

Shifo. 1. Kasallikdan xolos bo‘lish; sog‘ayish, tuzalish.

M: *Ammo eshonga ixlos qo‘yib, undan shifo umid qilib, kasallarni oli borib o‘qitadilar.*

2. Biror kasallikdan xalos bo‘lish, sog‘ayish vositasi; davo, dori. M: *Chortoq suvi ko‘p dardlarning shifosi.*



SHOTI – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (shati < shoti). Bu ot eski o‘zbek tilida shati tarzida talaffuz qilingan. Bu so‘z datslab “aravaning asosini tashkil qiluvchi, bir necha yeridan ko‘ndalangina taxta bilan birlashtirilgan ikki uzun yog‘och “ni anglatgan (KRS,904).

Shoti. 1. Aravaning o‘qi va g‘ildiragidan tashqari yuqori qismi. M: *Shotida o‘tirgan to‘raning aravakashi otga qamchi ham urmaydi.*

2. Aravaning ot qo‘shiladigan ikki yon yog‘ochi. M: *“Oqtoy” anchadan buyon yaydov yurgani uchun, arava shotisi ostiga asti ro‘para kelmay, o‘ynoqilab ketaveradi.*

3. Shevaga xos. Narvon. Po‘latjon uning ishini kuzatib turdida, keyin temir shoti bilan yuqoriga ko‘tarildi (O‘TIL,IV,596).



CHALPAK – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (chal + pa = chalpa + k = chalpak). Bu ot o‘zbek tilidagi chal fe‘liga “parchala” ma‘nosini

anglatuvchi -pa qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan so‘zga -k qo‘shimchasini qo‘shib chalpak oti yasalgan (O‘TEL,I,408).

M: – Esimdan chiqibdi, – deydi kampir. – Mayliga, men o‘zi o‘nta chalpak pishirib, chiroq yoqaman.

2. O‘rik, olcha va shu kabi ho‘l mevalar shinnisidan yoyib quritilgan shirinlik (O‘TIL,IV,451).



CHANA – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (chang + a = changa > chana). Bu ot asli yasama bo‘lib, “chang” fe‘liga -a qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan (O‘TEL, I, 411).

Chana – Qishda qor, muz qoplagan yo‘lda sirpanib yuradigan chang‘ili aravacha. M: Chanada uchmoq. Chana sporti (O‘TIL, IV, 453).



CHANOQ – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (chana + q = chanaq > chanoq). Qadimgi turkiy tilda “yog‘ochni o‘yib ishlangan tuzluq va shu kabi idish”, “kosa” ma‘nosini anglatgan bu ot “chanaq” tarzida talaffuz qilingan. Chanaq so‘zi yasama so‘z bo‘lib, “o‘y”, “chuqurcha hosil qil” ma‘nosini anglatgan (O‘TEL,I,412).

Chanoq. 1. Ko‘sakning har bir xonasi. M: *G‘o‘zalar bo‘liq, har bitta chanoq piyoladek bo‘lib ochilib turibdi.*

2. Bosh kosasi, ko‘z kosasi va umuman kosasimon suyaklar. M: *Chanoq suyagi.*

3. Tegirmonning do‘lidan don tushib turadigan tarnovsimon qismi.

4. Shevada. Chig‘anoq.



CHAQALOQ – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (chaqa + laq = chaqalaq > chaqaloq). Bu ot eski o‘zbek tilida “kichik bola” ma‘nosini anglatuvchi chaqa otiga kichraytirish ma‘nosini ifodalovchi -laq qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilingan (O‘TEL,I,416).

Chaqaloq – Yangi tug‘ilgan bola; go‘dak. M: *Dunyoga kelgan chaqaloqlar ulg‘aygani sayin, ularda hissiy a‘zolar shakllana boradi* (O‘TIL,IV,465).



CHAQIMCHI – (turkiycha so‘z) sifat, asliy sifat, oddiy daraja, yasama so‘z (chaq + im = chaqim + chi = chaqimchi). Bu so‘z chaq fe‘liga “gap tashi”, “tuhmat qil” ma’nosini -i(m) qo‘shimchasi bilan chaqim otiga -chi qo‘shimchasini qo‘shib, sifat yasalgan (O‘TEL, I, 416).

Chaqimchi – Birovning gapini birovga tashuvchi, biror kimsaning sirini ochuvchi, birovlar ustidan maxfiy xabar yetkazib turuvchi.

M: *Bekorhidan bezib qoch, Chaqimchidan ko‘chib.*



CHAYON – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (chadan > chazan > chiyan > chayan > chayon). Qadimgi turkiy tilda “o‘rgimchaksimonlar oilasiga mansub, tanasi bo‘g‘in-bo‘g‘in umurtqasiz zaharli jonivor” ma’nosini anglatgan bu ot chadan tarzida talaffuz qilingan. Keyinchalik bu ot chazzan, chayan, chiyan shakllarida ham talaffuz qilingan (PDP, 375; DLT, I, 388; DS,148).

Chayon. 1.O‘rgimchaksimonlar sinfiga mansub bo‘g‘imoyoqlilar turkumiga kiruvchi zaharli hasharot.

M: *Rivoyatlarga qaraganda, chayon o‘zining vijir – vijir bolalarini o‘z yelkasida olib yurarmish.*

2. Ko‘chma ma’noda. Tili achchiq, bamisoli chayondek chaquvchi, gazanda odam. M: *Bu kaltakesak yutgan chayonning yuragida sizga qarshi katta adovat bor* (O‘TIL, IV, 444).



CHEVAR – (turkiycha so‘z) sifat, asliy sifat, oddiy daraja, yasama so‘z (chaba + r = chabar > chavar > chevar). Bu sifat asli qadimgi turkiy tilda mavjud bo‘lib, “biror ishni chaqqon va sifatli bajar” ma’nosini anglatgan chaba fe‘liga -r qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan (O‘TEL, I,419).

Chevar. 1. Kiyim – bosh yoki kashta tikishga usta ayol, mohir tikuvchi. M: *Mana shu chevar qizlar xaridorgir mahsulot tayyorlashadi.*

2. Ko‘chma ma’no. O‘z ishining mohiri, ustasi; uddaburo.

M: *Paxtalar vatanining asl chevare – Paxta dalasining qiz - juvonlari.* (O‘TIL, IV, 471).



CHIGIT – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (chig‘ + it = chig‘it > chigit). Bu ot asli qadimgi turkiy tildagi “bog‘la” ma’nosini anglatgan chig‘ fe’liga -i(t) qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan (DLT,I,137).

Chigit – G‘o‘zaning urug‘i; terilgan paxtani qayta ishlab olinadi. M: *Yozib oling yon daftarga: G‘o‘za unar chigitdan* (O‘TIL, IV,479).



CHILDIRMA – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z(chaldir + ma = chaldirma > childirma). Bu ot qadimgi turkiy tildagi cherty chiqariladigan bog‘iq tovushni ifodalovchi chaldir – chaldir taqlid so‘ziga -ma qo‘shimchasini qo‘shish bilan ot yasalgan(DS, 137).

Childirma – Yog‘och gardishga teri qoplab yasalgan, chertib chalinadigan musiqa asbobi; doira, chirmanda, daf. M: *Katta childirma* (O‘TIL,IV,483).



CHOL – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, tub so‘z (chal > chol). Qadimgi turkiy tilda bu so‘z asli chal tarzida talaffuz qilingan. “Oq-kulrang” ma’nosini anglatuvchi sifat bo‘lgan keyinchalik bu belgi kishiga ko‘chirilib, “sochi oq” ma’nosini anglatuvchi sifat bo‘lgan (DS,137; KRS, 838).

Chol. 1. Keksaygan ota. M: *Chol-kampir bir-biriga yalt etib qaradi.*

2. Umuman, keksa erkak. M: *Qishloqning hamma chollari yig‘ildi.* (O‘TIL, IV, 505).



CHUMCHUQ – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (chibi + chiq = chibichiq > chibchiq > chimchiq > chumchuq). Bu so‘z asli “kichkina jonivor” ma’nosini anglatuvchi chibi so‘ziga kichraytish ma’nosini ifodalovchi -chiq qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilingan (KRS,880).

Chumchuq – ko‘pincha xonodonlarga yaqin joylarda yashaydigan, hasharot va don bilan oziqlanadigan kichkina qush.
M: *Chumcuqdan qo‘rqan tariq ekmas* (O‘TIL, IV, 516).



CHO‘MICH – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (chom + o‘ch = chomo‘ch > cho‘mich). Bu ot “suyuqlikka botir” ma’nosini anglatuvchi cho‘m fe’liga eski o‘zbek tilidagi -o‘ch qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida bu so‘z cho‘mcha shaklida uchrydi (DLT, II, 34; KRS, 871).

Cho‘mich. 1. Suyuq ovqatni shopirish va suzush uchun ishlatiladigan, uzun dastali ro‘zg‘or asbobi; yg‘log‘i. M: *Yog‘och cho‘mich. Sirlanga cho‘mich.*

2. Biror idishdan suv olish uchun ishlatiladigan, dastasi kalta,yog‘och,metal yoki plastmassadan qilingan ro‘zg‘or asbobi.
M: *Said suv to‘la cho‘michni uzatayotganda suv, bir qultum suv otasining soniga to‘kilib ketdi* (O‘TIL, IV, 524).



CHO‘NTAK – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (chon + ta = chonta +k = chontak > cho‘ntak). Bu ot qadimgi turkiy tilda “biror narsani sol” ma’nosini anglatgan cho‘n fe’liga -a(k) qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan (O‘TEL, I, 444).

Cho‘ntak – 1. Kiyimning pul va boshqa zarur yengil narsalar olib borish uchun tikilgan sirtqi yoki ichki xaltachasi; kissa.

M: *Yon cho‘ntak. Ustki cho‘ntak.*

2. Ko‘chma ma’no. Kimsaga tegishli mablag‘, pul. M: *O‘z cho‘ntagidan sarf qilmoq* (O‘TIL, IV, 525).



CHO‘QMOR – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (choq + ma = choqma + r = cho‘qmar). Bu ot asli yasama bo‘lib, qadimgi turkiy tildagi “urib o‘ldir” ma’nosini anglatgan choq fe’liga kuchaytirish ma’nosini anglatuvchi -ma qo‘shimchasi bilan yasalgan so‘zga -r qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan (DS, 153; TRS, 865).

Cho‘qmor. 1.To‘qmoq shaklidagi qadimiy urush quroli; gurzi, shashpar. M: *Asroraning miyasiga birov cho‘qmor bilan urganday bo‘ldi.*

2. Tosh kesadigan, parchalaydigan og‘ir to‘qmoq.M:Farhod qo‘lida tesha va cho‘qmori bilan kata-katta tog‘ toshlarini qo‘porib, Sirni bug‘a boshladi (O‘TIL, IV, 528).



CHO‘QQI – (turkiycha so‘z) ot, turdosh ot, aniq ot, birlik, bosh kelishik, yasama so‘z (choq + i = choqqi > cho‘qqi). Bu so‘z asli eski o‘zbek tilidagi “bosh kiyimi ustidagi do‘mboq” ma’nosini anglatgan *choq* otiga kuchaytirish ma’nosini ifodalovchi -i qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilingan.Qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida q undoshi ikkilangan (KRS,864).

Cho‘qqi. 1.Tog‘ning eng baland, yuksak joyi. M: *Hisor cho‘qqilari oqarib, shahar, qishloqlarga yaqinlashib kelganday tuyuldi.*

2. Tik narsalarning eng yuqori qismi. M: *Teleradiominoralar cho‘qqisi.*

3. Ko‘chma ma’no. Erishilgan yoki erishilishi mumkin bo‘lgan eng yuksak daraja, pag‘ona, ko‘rsatkich; oliy nuqta.

M: *Kamolot cho‘qqisi. Baxt cho‘qqisi* (O‘TIL, IV, 528).

MUNDARIJA

Kirish	3
Aa	4
Bb	20
Dd	33
Ee	48
Ff	54
Gg	60
Hh	63
Ii	68
Jj	72
Kk	77
Li	83
Mm	86
Nn	89
Oo	92
Pp	98
Qq	102
Rr	108
Ss	112
Tt	119
Uu	125
Vv	129
Xx	135
Yy	140
Zz	146
O‘o‘	150
G‘g‘	156
Sh sh	161
Ch ch	169

I.Mirzayev, M.Narziyeva, M.Ubaydullayeva

QISQACHA MAKTAB ETIMOLOGIK LUG‘ATI

O‘quv lug‘ati

ISBN 978-9910-9728-5-0

Muharrir: G.Rahimova
Musahhih: M.Sattarova
Tex.muharrir: H.Amirdinov

Bosishga ruxsat etildi: 28.12.2022.
Ofset bosma qog‘oz. Qog‘oz bichimi 60x84 ^{1/16}.
“Times New Roman ” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Hisob-nashriyot t.: 11,3. Shartli b.t.: 11,5.
Adadi: 100 nusxa. Buyurtma №147.

SamDCHTI nashr-matbaa markazida chop etildi.
Samarqand sh., Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93-uy.